

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
MUQIMIY NOMIDAGI QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
MAGISTRATURA BO'LIMI**

**Qo'lyozma huquqida
UDK:**

NIYOZMATOV ABDULLAJON ANVARJON O'G'LI

**"NAZAR ESHONQUL QISSALARINING QIYOSIY TADQIQI"
("Urush odamlari", "Momoqo'shiq", "Qora kitob", "Tun panjaralari"
qissalari misolida)**

5A111201- O'zbek tili va adabiyoti

Magistr akademik darajasini olish uchun taqdim etilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: filologiya fanlari nomzodi, dotsent

M.Tojiboyeva

"___" _____ 2020-yil
_____ **imzo**

Kafedra mudiri: filologiya fanlari nomzodi, dotsent

M.Jamoliddinov

"Himoyaga tavsiya etildi"
"___" _____ 2020-yil
_____ **imzo**

Magistratura bo'limi boshlig'i: falsafa fanlari doktori (PhD) O.O.Bozorov

"Himoyaga ruhsat berildi"
"___" _____ 2020-yil
_____ **imzo**

Qo'qon -2020

Annotatsiya. Ushbu dissertatsiya ishi yozuvchi Nazar Eshonqul qissalari qiyosiy tadqiqiga bag'ishlangan bo'lib, oliy ta'lim tizimida o'zbek tili va adabiyoti fakultetlarida mustaqillik davri adabiyotining qissa janri haqida bilimlarini yanada yuksaltirish, uslub, ijodkor mahorati, badiiy tahlil, qiyosiy uslubda qissalarni tadqiq qilish, uning yutuq va kamchiliklari nimadan iborat ekanligi haqida ma'lumot berishga qaratilgan.

Annotation. This dissertation is dedicated to research the comparative commentary of the narratives by Nazar Eshonqul, they which to improve the knowledge about narrative genre of the independent period literature in higher education system in faculties of "Uzbek language and literature". Also, they analyze style, skill of creator, literary research and the narrative in comparative method and envelop the information about advantages and disadvantages of narratives.

Mundarija

DISSERTATSIYANING UMUMIY TAVSIFI	4
KIRISH	8
I BOB:NAZAR ESHONQUL QISSALARINING QIYOSIY TADQIQI	11
1.1. Adib ijodining o'rganilish masalalari.....	11
1.2. Nazar Eshonqul nasrining o'ziga xos xususiyatlari.....	19
I bob yuzasidan xulosalar.....	28
II BOB: NAZAR ESHONQUL QISSALARINING BADIY TALQINI	31
2.1. Qissalarda uslub o'ziga xosligi.....	31
2.2. Qissalarda obraz va xarakterlar talqini.....	46
II bob bo'yicha xulosalar.....	62
III BOB: NAZAR ESHONQUL IJODIDA QISSA JANRINING TUTGAN O'RNI	65
3.1. An'anaviy syujet va uning o'ziga xos talqini (Urush odamlari va Momoqo'shiq qissalari misolida).....	65
3.2. Voqelikka noan'anaviy yondashuv va ijodkor maxorati (Qora kitob va tun panjaralari qissalari misolida).....	84
III bob bo'yicha xulosalar.....	98
Umumiy xulosalar	100
Foydalanilgan adabiyotlar	103

Mavzuning dolzarbligi. Jamiyat hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlar kishilar tafakkuri va dunyoqarashida ham yangicha qarashlarni vujudga keltiradi. Badiiy adabiyot ijtimoiy hayot va unda yashayotgan odamlarning qalb kechinmalarini aks ettirar ekan, tub o'zgarishlar, avvalo, badiiy adabiyotda o'z ifodasini topadi. Zero, "Adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor - bu avvalo xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor"¹, - degan so'zlar zahirida adabiyot va san'atning kishilik jamiyatidagi beqiyos o'rnini haqidagi fikrlar mujassam. Bugungi kunda badiiy adabiyot va ijod ahliga bo'lgan munosabat o'zgardi, xususan, badiiy ifoda usullari hamda voqelikni tasvirlash uslublarida ham o'ziga xos yangilanishlar ro'y berdi.

Mustaqillik arafasi va mustaqillik davrida maydonga kelgan asarlarning mavzu ko'lamini, saviyasi va hajmi turlicha. O'zbek qissachiligida ro'y berayotgan sifat o'zgarishlari, qissa janri uslubidagi yangilanishlarni kitobxonlarga original qissa namunalari taqdim etayotgan Nazar Eshonqul ijodi misolida tadqiq etish, adabiy jarayonda kechayotgan uslubiy yangilanishlar, inson muammosining turli rakurslarda aks etishi, turfa obrazlar dunyosi umumlashgan holatda namoyon bo'layotganligini tasdiqlashga xizmat qiladi. N.Eshonqul ijodida bugungi qissalar uslubining yetakchi xususiyatlari zamonamiz dolzarb ijtimoiy-ma'naviy muammolari badiiy talqin etilayotgani bilan bog'liq. Qolaversa, bugungi o'zbek qissalarining badiiy uslubi muammosi izchil monografik yo'lida tadqiq etilmagan, istiqlol davridagi erkin ijodiy muhit samaralari qissa janri taraqqiyoti va o'ziga xos jihatlari ilmiy talqin etilmagan, adabiy jarayonda badiiy asar uslubi ijodkor shaxsi bilan bir butun tizim sifatida o'rganilmaganki, bularning barchasi dissertatsiya mavzusi sifatida tanlangan muammoning dolzarbligi va zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 13 maydagi PF-4797-sonli "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti

¹ Мирзиёев Ш. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш — халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустақам пойдеворидир// Халқ сўзи, 2017, 4 август

universitetini tashkil etish to'g'risida"gi, 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2006 yil 25 avgustdagi PQ-451-sonli "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida"gi, 2010 yil 27 yanvardagi PQ-1271-sonli "Barkamol avlod yili" davlat dasturi haqida"gi, 2017 yil 13 sentyabrdagi PQ-3271-sonli "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq amalga oshirildi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbek adabiyotshunosligida qissa janri tadqiqiga bag'ishlangan alohida monografik plandagi ilmiy tadqiqot ishlari mavjud. Shuningdek, Nazar Eshonqul badiiy mahoratini yoritishga bag'ishlangan ayrim ilmiy maqola va kuzatishlar bor. Lekin ularda bevosita qissalarning qiyosiy tadqiqi masalasining aks etishi maxsus tadqiq etilmagan.

Dissertatsiyaning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot mavzusi Qo'qon davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasida ilmiy tadqiqot rejasiga kiritilgan «XXI asr qissalari tadqiqi» muammosi tarkibiy qismi sanaladi. Ushbu mavzu Qo'qon davlat pedagogika instituti ilmiy kengashi yig'ilishida muhokama etilib (5.10.2019) tasdiqlangan.

Tadqiqot maqsadi. Mazkur ilmiy tadqiqot ishimizda asosiy maqsad yozuvchi Nazar Eshonqulning "Urush odamlari", "Tun panjaralari", "Qora kitob", "Momoqo'shiq" qissalari tahlili, badiiyati, asosan, ularda tasvir masalasida yozuvchining individual uslubi, mahorati kabilarga ham etiborimizni qaratamiz.

Tadqiqot vazifalari. Ishda quyidagi vazifalar amalga oshirildi:

- badiiy nutqning qissa syujetini ta'minlovchi muhim omil ekanini asoslash;
- bugungi o'zbek qissalarida realistik uslubning yangi qirralari namoyon bo'layotganini Nazar Eshonqul asarlari misolida qayd etish;
- hozirgi o'zbek qissalarida ko'zga tashlanayotgan modern uslubning milliy va jahon adabiyoti an'analari bilan bog'liq jihatlarini aniqlash;
- qissaning yetakchi janr belgilarini ochib berish;
- qissalarning badiiy o'ziga xosligini tadqiq etish;
- realistik tasvir prinsiplarini ko'rsatish;
- bosh qahramon masalasini o'rganish;
- badiiy shartlilik shakllarini aniqlash;
- adib ijodiy uslubning o'ziga xosligini o'rganish.

Ishning tadqiq obyekti va materiallari. Nazar Eshonqulning "Urush odamlari", "Tun panjarasi", "Qora kitob", "Momoqo'shiq" qissalari kabi qissalari hamda "XXI asr O'zbek adiblari antologiyasi", adib haqidagi internet maqolalari, "Mendan mengacha", kitobi hamda qissalaridan tanlab olingan misollar mavzu tadqiqida daliliy material bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Nazar Eshonqulning "Urush odamlari", "Tun panjarasi", "Momoqo'shiq", "Qora kitob" qissalari qahramonlarining betakror ko'inishga ega ekanligi, shuningdek, obrazlarda tasvirning haqqoniyligi kabi jihatlar beixtiyor kitobxon diqqatini tortadi. Ilmiy tadqiqot ishimizda qissalardagi mana shu jihatlarining tahlili, badiiyati, asosan, ularda tasvir masalasining ifodalanishida yozuvchining individual uslubi, mahorati kabilarning tadqiq etilayotgani ishning ilmiy yangiligini tashkil etadi. Shuningdek, o'zbek nasri taraqqiyotida Nazar Eshonqul ijodining badiiy-estetik ahamiyati, o'рни va rolini ham ochishga harakat qilindi. Ushbu holatlar ham tadqiqotning ilmiy-nazariy yangiligini tayin etishga qaratilgan. N.Eshonqul asarlari tahlili jarayonida bugungi o'zbek qissalarida yangilanayotgan realistik uslub imkoniyatlari

aniqlangan; modern uslub hozirgi qissachiligimizning yangi xususiyati, jahon nasri an'analarining milliy talqini sifatida ko'rsatilgan;

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ilgari surilgan konseptual g'oyalar "Adabiyotshunoslikka kirish", "Hozirgi adabiy jarayon", "Adabiyotshunoslik nazariyasi", "Badiiy tahlil asoslari" va "O'zbek tanqidchiligi tarixi" fanlari bo'yicha o'tkaziladigan tadqiqotlar hamda metodologik yondashuvlarni takomillashtirishga xizmat qiladi

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyada bayon qilingan yondashuvlar hozirgi o'zbek qissasining uslubiy xususiyatlari, umuman, qissa janri badiiyati, o'zbek qissachiligining tadrijiy bosqichlari haqidagi nazariy xulosalardan filologik yo'lalishdagi talabalarga mo'ljallangan darslik va o'quv qo'llanmalar tayyorlash, ma'ruzalar o'qish, shuningdek, akademik litsey va kasb-hunar kolleji o'quvchilariga istiqlool arafasi va istiqlool davri qissachiligi bo'yicha mashg'ulotlar olib borishda, maxsus kurs, seminarlar tashkil etishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Ish tuzilmasining tavsifi. Dissertatsiya kirish, uch bob, boblar yuzasidan xulosalar, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, uning asosiy mazmuni _____ sahifani tashkil etadi.

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimiz yanada rivojlanib bormoqda. Ilm-fanning o'sib borishi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotimizda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mana shunday kunlarda har bir shaxs o'z mamlakatida yuz berayotgan voqealarga befarq qaramasligi zarur bir holga aylandi. Yurtimizdagi har bir fuqaro mamlakatimiz tarixini, ya'ni ota-bobolarimiz kim bo'lgani, ular qanday yo'llarni bosib o'tganligini bilgan holda vatan kelajagi uchun oqilona yo'ldan borishayotgani muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov: "Odamlarda o'zligini anglash, milliy g'urur, oriyat, o'tmishdan faxrlanish, porloq kelajakni o'z qo'limizga olganimizdan g'ururlanish kabi tuyg'ular kamol topmoqda, ularning bugungi va ertangi kuniga ishonchi ortib bormoqda"², - deb aytgan so'zlari fikrlarimizning yaqqol isbotidir. Istiqlool tufayli har bir sohada bo'lganidek, milliy adabiyotimizda ham muhim o'zgarishlar yuz berdi.

O'zbek xalqining ma'naviy-axloqiy ideallarining o'sib borishi, umuminsoniy qadriyatlarimizning tiklanishi adabiyotimizda ham o'z aksini topib bormoqda. Agar sho'ro davri adabiyotiga nazar soladigan bo'lsak, bu davr adabiyotida erkin ijod qilish, inson ruhiyatini to'laqonli aks ettirish va o'z zamonasida yuz berayotgan voqea-hodisalarni adabiyotga olib kirish, ya'ni yozuvchilar ko'z o'ngida yuz berayotgan va o'tmishimizni aks ettirish, shuning bilan bir qatorda, millatimizga xos bo'lgan qadriyatlarni o'z asarlariga singdirish ma'lum darajada siqib qo'yilgan bo'lsa, mustaqillik davriga kelib bu masalalar yuzasidan to'laqonli erkinlikka erishildi desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Bu bilan sho'ro davri adabiyotida yaxshi asarlar yaratilmagan degan fikrdan yiroqmiz, aksincha, bu davr adabiyotida ham adabiyotimizning buyuk darg'alari ijod qilishdi va o'zbek xalqining ko'zgusiga aylangan chinakam yaxshi asarlar yaratishdi. Bundan anglashilib turibdiki, muayyan jamiyat va ma'lum tuzum yo'q bo'lib ketishi mumkin, ammo adabiyot yo'q bo'lmaydi. Adabiyot har qanday

² Karimov I. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. -T.: O'zbekiston, 1996. -B. 260. 4

vaziyatda ham o'zining rivojlanishidan umuman to'xtab qolmaydi. U har tomondan bo'g'iq muhitda ham ma'lum miqdorda rivojlanib, o'zini namoyon qilib boraveradi.

Shunday qilib, mustaqillik davriga kelib, o'zbek adabiyoti rivojlanishning yuksak cho'qqisiga chiqdi. Adabiyotimizga yangicha qarashlar, yangicha uslublar kirib kela boshladi. Endilikda yozuvchilarimiz milliy qadriyat va madaniyatimizni o'z asarlarida ochiq-oydin yoritib boshladilar, bir so'z bilan aytganda, bugungi kunga kelib adabiyotimiz millatimizning, xalqimizning ko'zgusiga aylandi, adabiyot endi xalq dardini haqqoniy ravishda aks ettira boshladi.

Mustaqillikdan so'ng O'zbek adabiyoti ham jahon adabiyotida o'ziga yarasha o'rin egallay boshladi. Mustaqillikdan so'ng avvallari tilga olishga ham cho'chiydigan buyuk ijodkorlarimiz yana adabiyot kitoblarimizni bezay boshlagani millatimizning eng katta yutug'idir. Zero, muhtaram Prezidentimiz aytganlaridek, "...adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor - bu avvalo xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor ekanini, buyuk shoirimiz Cho'lonmat aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo'q"³

XX asr o'zbek adabiyotida katta o'zgarishlar yuz berdi. Yozuvchi va shoirlarimiz o'z ijodlarida g'arb adabiyoti an'analari asosida inson ruhiyatini va ong oqimini asarlaridagi qahramonlar xarakteriga singdirishga harakat qildilar. Bu urinishlar o'z samarasini berib, yuksak saviyadagi asarlar dunyo yuzini ko'ra boshladi. O'zbek adabiyoti rivojlanib borar ekan, XX asrning 20-yillarida o'zbek adabiyotida realistik qissa janri paydo bo'lgan bo'lsa, 30- yillarida o'zbek realistik adabiyotida qissa janr sifatida shakllandi. O'zbek adabiyoti nasrida epik turning bir bo'lagi bo'lmish qissa janrida ham badiiy saviyasi baland asarlar yaratildi. Bu davrda Abdulla Qodiriy ("Obid ketmon"), G'afur G'ulom ("Shum bola", "Netay", "Yodgor"), Sadriddin Ayniy ("Sudxo'rning o'limi") va ko'plab so'z ustalari qissa

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish - xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir» mavzusida O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi / Xalq so'zi. -Toshkent, 2017, 4 avgust.

janrida ijod qilishdi. Keyinchalik Abdulla Qahhor ("Sinchalak", "O'tmishdan ertaklar"), Oybek ("Bolalik"), Odil Yoqubov ("Qanot juft bo'ladi", "Matluba"), Tog'ay Murod ("Ot kishnagan oqshom", "Oydinda yurgan odamlar", "Yulduzlar mangu yonadi") kabi ko'plab yozuvchilar ham badiiy yetuk qissalar yaratib, adabiyotimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shdilar. Bu so'z ustalarining qissalari adabiyotimiz xazinasidan munosib o'rin egallab ulgurdi.

Hozirgi kun o'zbek nasrida ijod qilayotgan talantli adiblarimiz ham oz emas. Ular yaratayotgan asarlarning badiiy saviyasi yuqori cho'qqida desak, aslo, mubolag'a bo'lmaydi. Yozuvchilarimiz qissa janrining ham saviyasini o'stirib bormoqdalar. Bu yo'lda o'zining mashaqqatli mehnati evaziga yutuqlarga erishayotgan adib Nazar Eshonqul shunday ijodkorlarimizdan biridir. Bu yozuvchining qissalari qahramonlarining o'ziga xos ma'naviy olamini qanday talqin etganligi, asarlarida hayotning turli jihatlarini tasvirlashga moyillik mavjudligi hamda qahramonlarining umuminsoniy, milliy-ma'naviy qadriyatlarini o'quvchi shuuriga ko'chirishning badiiy mezonlarini oydinlashtirganligi bilan boshqa qissalardan ajralib turadi.

I. BOB. NAZAR ESHONQUL QISSALARINING QIYOSIY TADQIQI

1.1. Adib ijodining o'rganilish masalalari

Iste dodli yozuvchi Nazar Eshonqul 1962- yili Qashqadaryo viloyati Qamashi tumanidagi Tersota qishlog'ida tug'ildi. 1979- yili o'rta maktabni tugatib, Toshkent davlat universitetining jurnalistika fakultetida (1981–1986) hamda shu universitet aspiranturasida (1986–1991) tahsil oldi. Shundan keyin O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida, "Yozuvchi" gazetasida, "Jahon adabiyoti" jurnalida ishladi. 1997- yildan buyon O'zbekiston teleradiokompaniyasida faoliyat yuritib keladi.

Nasrimizning o'tgan asr 80-90- yillaridagi yangilanish odatiy an'anaviy yo'ldan birmuncha o'zgacharoq kechdi, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida G'arbda paydo bo'lgan adabiy oqimga o'xshash sifatlar namoyon bo'ldi. Hozirgi nasrimizdagi mazkur ijodiy izlanishlar darhol adabiy jamoatchilik diqqatini tortdi. Bu hol o'zbek nasrining tahlil hududi kengayib, tasvir qamrovining kengligi, tahlil maydoni, shakli, mazmuni, maqsadi borasida yangi-yangi jihatlarni namoyon etdi. Xususan, obyektiv olam, voqea-hodisalar tasviri, qahramon xatti-harakatlari, uni o'rab turgan muhit va sharoit, zamon va makon endi to'g'ridan-to'g'ri badiiy to'qimaga aylantirilmay, ularning inson tasavvuri, shuuriga ta'siri, qahramonning unga ong'li munosabati badiiyatga aylantirildi. Endi kitobxon qahramon bilan emas, balki uning tafakkuri bilan muloqotga kirishadigan, uning tafakkur jarayoni bilan bahslashadigan bo'ldi.

O'tgan asrning 80-90 yillar avlodi boshida Nazar Eshonqul bir qator yozuvchilar singari adabiyotga umuminsoniy muammolarni tahlil qilish orqali kirib keldi. Albatta, bu izlanishlar, ya'ni ilk ijod namunalari ustoz munaqqidlar tomonidan tilga olinib yuksak baholandi. Yozuvchining 2011- yilda "Shaftoli guli" deb nomlangan hikoyalar to'plami nashr qilindi. Undagi rango-rang falsafiy-psixologik hikoyalar zimmida millat kishisining ruhoniyyatidagi ajib evrilishlar, milliy qadriyatlarning toptalishi, sobiq ittifoq davridagi haybarakallachilik, shon-shuhratga moyillik, ofarinbozlik kabi puch g'oyalarga e'tiqod qo'yib alaloqibatda

falokatga yuz tutgan inson qismati rivoya qilinadi. Bir qarashda juda oddiydek tuyulgan voqelik manzarasida, falsafiy umumlashma qabarib koʻrinadi. Adib hikoyasida bitta muhim jihatga alohida eʼtibor qaratadi: falsafiy rakursda odamzod qalbini tahlil qiladi. Ezgulik va yovuzlikning jangohi hisoblangan - qalbni inkishof qiladi. Qalbning teran qatlamlariga kirib borgan sari mohiyat yuzaga chiqadi. Bu mohiyatni voqelik sifatida koʻrsatish va kuzatish yozuvchidan bilim va tafakkur talab qiladi, albatta!

Shu ma noda, Nazar Eshonqul oʻzbek nasriga, ayniqsa, hikoyachiligiga va qissachiligiga yangi ovoz, yangi ruh olib kirdi. U mana shu janrni Sharq va Gʻarb adabiyoti anʼanalari bilan uygʻunlashtirayotgan adiblardan biridir. Ilk asari – “Urush odamlari” qissasidan (1989) soʻng, “Ufq ortidagi quyosh”, “Maymun yetaklagan odam” (2004), “Shamolni tutib boʻlmaydi” (2005), “Momoqo shiq” (1991), “Yalpiz hidi” (1996), “Shaftoli guli” (2011) nomli kitoblari nashr qilingan.

Ushbu toʻplamlari orqali ijodkor oʻzbek nasrida yangi bir hech kimnikiga oʻxshamagan ovoz paydo boʻlganligini bildirib qoʻydi. Uning asarlari orqali oʻzbek adabiyotida modernizm havosi esib qoldi. Asarlarida absurdlik, turfa xulosalar, bir xillikdan qochish, oʻquvchini shunchaki oʻquvchi boʻlib qolmasdan, balki fikrlovchi boʻlishga undash yetakchilik qila boshladi. Ayniqsa, qissalari oʻsha davr voqeligini aks ettirishda muhim qadamlardan biri boʻldi.

Nazar Eshonqul yaratgan qissalar qahramonlar kechinma tavsifining ustunligi bilan boshqa qissanavislar asarlaridan ajralib turadi. Nazar Eshonqul qahramonlarning qalbi, ichki dunyosi, ruhiy olami ramzlar, metaforalar orqali betakror chizgilarda aks ettiriladi. Uning ijodini oʻrganishda qahramonlar kechinmalari, ularning qalb tuygʻulari ritmi qissaning mazmun mohiyatini yanada oshirishni kuzatishimiz mumkin.

Nazar Eshonqul qissalari mavzularining rang-barangligi bilan ham ahamiyatlidir. Misol qilib “Tun panjaralari” qissasining sarlavhasidayoq inson oʻzini ramzlar orasiga tushib qolganday his qiladi. Ushbu qissa haqida turli xil qarashlar, fikrlar bildirish mumkin. Bir qarashda bu asarni oʻqib tushunish qiyinderak tuyulsa-da, ammo asarning ruhiyatiga kirib borganingiz sayin yangidan

yangi qatlamlar ochilib boraveradi. Asar go'yo ko'nglingiz darvozasidan oshib o'tib, uning bir bo'lagiga aylanib qolgandek taassurot qoldiradi.

"Urush odamlari" qissasida esa o'zingizni ikkinchi jahon urushi davridagi zamonga tushib qolgandek his qilasiz. Qissa an'anaviy syujet asosida yozilgan bo'lib, bu asar badiiyatini, o'sha davr odamlari tabiatini, voqelikni ochib berishda muhim asos bo'lib xizmat qilgan.

Adibning "Qora kitob" qissasida esa o'z-o'zi bilan urushga kirishgan, o'z-o'zini tahlil qilishga kirishgan qahramonning qalb kechinmalari badiiy tomondan yuksak darajada ask etgan. Ushbu qissada ruhiyat manzaralari, ramzlar, metaforalar, ong oqimi jarayonlari asarni bezashga katta hissa qo'shgan.

N.Eshonqul - o'zining shu kabi asarlari bilan milliy istiqlol davri o'zbek nasriga yangi ohang olib kira oldi. Uning qissalari ifodaning qabariqligi, tasvir markaziga olingan shaxs tabiatining mutlaqo kutilmagan va yangiligidan tashqari ohangning o'zgachaligi bilan ham kishini hayratga soladi. «Nazar nasrimizni shunday ohang bilan boyitdiki, bu ohang o'zbek millatiga xos bo'lgan jihatlarni aks ettirish imkoniyati jihatidan tengsizdir»⁴.

Nazar Eshonqul qissalari ko'plab adabiyotshunoslar tomonidan o'rganilmoqda. Chunonchi, hozirgi kunlarda yaratilayotgan qissalari haqida gazeta va jurnallarda maqolalar chiqib turibdi. Bularga Mashhura Sheralievaning "2013- yil qissalari haqida ayrim mulohazalar" va Umida Rasulovanning "Qissalar tahlili" kabi maqolalarini kiritishimiz mumkin. Bu maqolalarda yozuvchilarning asarlari misolida yozuvchining o'ziga xos uslubi, insondagi psixologik xususiyatlarni talqin etishdagi mahorati yoritilishi bilan bir qatorda asardagi personajlarning tasviri haqida ham so'z boradi.

Shuningdek, Shohista Mahmudova "Yoshlik" jurnali, 2013 yil 5-sonida bergan maqolasida adib ijodini boshqacha ravishda tahlil etgan. Maqolada N. Eshonqulning "Xayol tuzog'i" asaridagi real hayotda o'z o'zini topolmagan, savdoyi shaxsning achchiq taqdiri tahlil etiladi. Asar qahramoni Voqif

⁴ Q.Yo'ldoshev. Yoniq so'z. 2006. 80-81-bet.

xarakterining ziddiyatli qirralari chuqur psixologizm orqali ochib beriladi. Ushbu maqolada "Xayol tuzog i " hikoyasida haqida qissa janri talablariga javob berishi, uni yozuvchining qissalari qatoriga qo shgan ma ql degan fikrlarni ilgari suradi.

"Taniqli adib N. Eshonqul "Xayol tuzog i " asarini o zining "Yalpiz hidi " to plamida hikoyalar sirasiga kiritgan. Aslida, bu asar g oyaviy-badiiy yuk 'ning salmog i va janriy belgilariga ko ra qissaga xos xususiyatlarga ega. Zero, qissa — hikoya bilan roman orasidagi janr bo lgani bois goho ulardagi ba zi xususiyatlarni ijodiy qabul qiladi, tasvir va ifodada qisman sintezlashadi, yangilanib boradi. Darhaqiqat, ayrim hikoyalarda qissaga xos epik bayon va estetik mohiyatning aks etishi badiiy ijodda favqulodda hodisa emas. Binobarin, "qissada qahramon hayotining bir bosqichi qalamga olinib, uning markazida qahramon turishi" bu asarda yorqin ko rinadi.

Ushbu qissada N. Eshonqul uslubiga xos muhim bir xususiyat aks etgan. Bu adib asarlarida an anaviy realistik va noan anaviy zamonaviy tasvir tamoyillarining o zaro uyg unligidir, ya ni muallif "Urush odamlari ", "Momoqo shiq " qissalaridagi realizm bilan "Tun panjaralari ", "Qora kitob ", "Muolaja " asarlaridagi modernizmni badiiy diffuziyalash yo li bilan bir asarga jamlay olgan.

Voqif xarakteri dinamikasining ilk bosqichi roviyning u haqidagi tavsifida tipik an anaviylikka yo g rilgan: "To g ri, uning na ishda, na oshiqlikda omadi yurishdi, hamma joyda betgachoparlighi pand berar, u esa hech egilishni istamas edi. Oylab ishsiz, cho ntagida pulsiz yurgan paytlarida ham hech tushkunlikka tushmagandi. U palla Voqif ehtirosli va ko ngli toza yigit edi ". Bu tasvirda qahramon sajiyasining zohiriy jihatlari, oddiy odamlarga xos tipologik xislatlar Voqifdagi biron favqulodiy belgiga ishora qilinmaydi, aksincha, "ehtirosli va ko ngli tozalighi "undagi ijobiylikni ta kidlaydi. Ammo xarakter rivojida ikkinchi bosqichdagi telbanamo va savdoyilik sabablariga real hayotdagi turmushda zamin yaratilishi mantiqan anglashiladi.

Nazarimizda, Voqifning bu olamdan yuz o girib, aqldan oza borishi va bedarak yo qolishini asoslovchi sabablar va vaziyatlar yetarli emasday. Negaki, u

sevgan qizi Robiyaga uylanishga uning o'jar otasi dastlab qarshilik qilgani, "boshpanasiz, ijarama-ijara izgi yurgani", nufuzi yo'q ro'znomada ishlashga majbur bo'lgani va bo'lim mudirining "bo'limdagi eng bebosh sizsiz",- deya tanbeh berishi ro'viy muallif ta'biridagi "irodasi va fikr yuritishiga havas qilgudek" bu yigitning birdaniga fojiaiy yo'lni tanlashi biroz erish tuyuladi. Shunga qaramay, muallif irodasi sust, e'tiqodi beqaror shaxsning manisizlik maskani – xayol olami girdobidagi ayanchli holati va qiyofasiz "qiyofa"ni chuqur psixologik rakursda modernistik tasvir orqali ko'rsatishga erisha olgan".

Ushbu maqola orqali adib ijodida qissa janriga tenglashishi mumkin bo'ladigan hikoyalar mavjudligini bilib olishimiz mumkin bo'ladi. Adib ijodiga bunday yondashuv, shubhasiz, asarlarining ko'lamdorligi, mavzu imkoniyatlarining kengligi va adib ijodining teran ekanligidan dalolat beradi.

Shuningdek, Andijon davlat universiteti "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrası 4-bosqich talabasi Shuhratbek Rahimovning bakalavr - akademik darajasini olish uchun yozgan Bitiruv malakaviy ishi mavzusida ham (Hozirgi o'zbek qissalarida xarakter va konflikt) Nazar Eshonqul qissasining xarakter va konflikt bo'yicha o'rganilish masalasi oz bo'lsa-da aks etgan.

Misol uchun o'sha bitiruv malakaviy ishdan bir parcha havola etamiz:

"D.Quronov ham konfliktni uch turini ko'rsatadi:

- 1) xarakterlararo;
- 2) qahramon va muhit;
- 3) ichki (psihologik) konflikt.

Bundan tashqari boshqa olimlarimiz ham (H. Umurov, T. Boboev va h.k) badiiy asarda konfliktning uch turi mavjudligi haqida aytib o'tishadi. Konfliktning bu uch turi badiiy asarda bir-birini taqozo qilib boraveradi, ular badiiy asarda aralash holda namoyon bo'ladi. Misol uchun, Nazar Eshonqulning "Momoqo'shiq" qissasida konfliktning uchala turini ham kuzatishimiz mumkin. Agar biz qissa qahramonlari Shamsi Saloh va Otaqul o'rtasida yuz bergan ziddiyatlar orqali xarakterlararo konfliktni ko'rsak, Shamsi Salohni xalqning hali ham qoloq hayot kechirishi azobga solishidan, uning Muazzamga aytgan:

"Bizning xalqimizning, anavi qishloqdoshlaringizning fojiasi shuki, ular baxt bilan baxtsizlikni farqlay olmaydi; ularning ko'zi ko'r, qulog'i kar; ular ojiz, mute, zaif odamlar. Uy-ro'zg'or, bola-chaqa tashvishi, odamni yuksak narsalarni o'ylashdan chalg'itadi, hatto har qanday tug'ma iste'dodni ham yo'q qilishi mumkin" - deb aytgan gaplaridan uni muhit bilan ziddiyatini ko'ramiz, bundan tashqari "Momoqo'shiq" qissasida konfliktning uchinchi turi - ichki (ruhiy) konflikt ham uchraydi. Buni biz Shamsi Soloh Muazzamni shaharga olib ketishga bo'lgan istagi amalga oshmaganda, uning ruhiyatida ikki tuyg'uning o'zaro kurashi natijasida yuzaga kelgan ziddiyatlari orqali ko'ramiz. Ko'rib turganimizdek, konfliktning uchala turi ham badiiy asarda bir-biriga uyg'unlashgan tarzda namoyon bo'ladi va yuqorida aytganimizdek, ular bir-birini taqozo qilib boraveradi.

Xulosa qilib shuni ayta olamizki, badiiy asarda konflikt o'tkirlashib borgan sari uning estetik saviyasi ham ortib boradi. Ijodkorlar hayotdagi ziddiyatlarini o'z asariga olib kirar ekanlar, uni bo'rttiribroq, yorqinroq tasvirlashga intiladilar, bu esa asarni emotsional ruhini ko'taradi.

Inson paydo bo'libdiki, u ziddiyatlar qurshovida yashaydi, ana shu ziddiyatlar uning ongini o'stirib boradi, mana shu ijtimoiy ziddiyatlarni badiiy yo'sinda adabiyotga olib kirilishi va uning badiiy asarda aks etishi, o'tkir syujetli asarlarning dunyoga kelishiga omil bo'ladi, bunday o'tkir ziddiyatlarga ega bo'lga syujet, albatta, o'quvchini badiiy asarga qiziqishini ortiribgina qo'ymay, uni ongiga chuqur ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishida Nazar Eshonqulning birgina "Momoqo'shiq" qissasi ichida konfliktning uch turiga misol ko'rib o'tdik. Ammo shuni qayd etish kerakki, bu biryozqlama fikrlar asarning umumiy g'oyasini ochishga xizmat qilmagan. Konflikt muammosi orqali asarga bir taraflama e'tibor qilib o'tilgan xolos.

Bundan tashqari Guliston davlat universiteti "O'zbek tili va adabiyoti" fakulteti bitiruvchisi Kattabekova Saodatning bitiruv malakaviy ishida adib ijodining ayrim qismiga e'tibor qaratib o'tilgan. Ushbu bitiruv malakaviy ishda

Nazar Eshonqul hikoyalari tadqiqiga keng o'rin berilgan. Masalan, uning "Muolaja" hikoyasi tahlilida quyidagilarni uchratishimiz mumkin.

"Nazar Eshonqulning "Muolaja" hikoyasida kishilarni kasallikdan xalos etish uchun ish olib borayotgan professorning ish muolajasi ko'rsatilgan. Ular bemorlarni davolash asnosida ularga ruhiy hamda jisman azob beradilar. Professor davolagan insonlar jamiyatga keraksiz bir ruhsiz kishilarga aylanadilar. Shifokorlar aslida insonlarni dori-darmonlar bilan emas shirin so'zlari bilan davolashlari kerak.

Bu hikoyada buning tamoman aksi yoritilgan. Bu hikoyada ramziylik qo'llanilib, shifokorlarni qoralaydi. Hikoyadagi professor tanqid ostiga olinadi. Professor kasallarga nisbatan beshafqat usullarni kashf qilib, kishiga ma'naviy azob berib, undan rohatlanadi. Bu usullarni qo'llab, jamiyatga keraksiz kishilar qilib davolaydi. U bemorlar qancha ko'paysa, shuncha xursand bo'ladi.

Professor manfur shaxs obrazida gavdalanadi. Chunki qilgan kashfiyotlarini bong urib maqtanadi, aslida qilgan ixtirolari insoniyatga foyda emas, zarar keltiradi.

Professor dastlab ro'znomachi yigitga uchta bemorni ko'rsatib ularning qanday kasalliklari bilan bu shifoxonaga tushib qolgani va ularning ruhiy holati haqida ma'lumot bera boshlaydi.⁵

Bundan tashqari shifoxonaning tasviri juda yomon ahvolda bo'ladi. Bu shifoxona bemorlarga tinchlik va ozodalik maskani emas, balki bemorlarni aqldan ozdiradigan oh-vohlar-u yerto'lannig sassiq, dim, qon hidiga to'la bir maskan edi. Yuqorida keltirilgan shifoxonadan chiqqan bemorlar dunyodan uzilib, o'zga shaxsga aylanib qoladi. Professor tanishtirgan bemorlar xususida to'xtalamiz.

«Bu uch odam kasallikning muolaja bosqichlariga misol bo'la oldadi. Mana bunisi,- u kursiga ikki hamshira erkak qurshovida o'tirgan, qo'llar orqaga bog'langan barzangi kishini ko'rsatadi,- hozirgina tutib kelindi: bizni bu kasal toza sarson qildi: uni ko'ndirish va ushlash uchun rosa to'rt soat vaqtimiz ketdi. ⁶

⁵ Yalpizhidi. Qissalar va hikoyalar. N. Eshonqul. T., "Sharq", 2008. -317-b.

⁶ Yalpizhidi. Qissalar va hikoyalar. N. Eshonqul. T., "Sharq", 2008. -347-b.

Ushbu hikoya orqali yozuvchining modernizm an'analarini o'z asarlarida chuqur aks ettira olishini ko'rishimiz mumkin. Bitiruv malakaviy ishiga tanlab olingan hikoyalar ham har jihatdan yetuk va pishiq hikoyalardir.

Hozir ko'rib o'tgan bitiruv malakaviy ishimizda yozuvchining modernistik hikoyalaridan biri "Muolaja" hikoyasi tadqiqi keng tahlil etilgan. Yozuvchining ijodiga bir qator yondashuvlar, u haqidagi, uning ijodi haqidagi juda ko'p maqolalar bo'lsa-da, ammo yozuvchining qissalari qiyosiy jihatdan hali to'liq tadqiq qilinmagan. Qissalar hali keng monografik planda o'rganilmagan.

1.2. Nazar Eshonqul nasrining o'ziga xos xususiyatlari

Mustaqillik yillari yurtimiz hayotida jiddiy o'zgarishlar vujudga keldi. Bu o'zgarishlar adabiyotga ham sezilarli darajada o'z ta'sirini ko'rsatdi. Chunki istiqlol mafkurasi xalq va jamiyat hayotiga chuqur singib bormoqda. O'zligini teran anglab yetgan har qanday jamiyatning turmush tarzida ma'naviyat markaziy o'rnini ishqol etishi muqarrar.

Zero, birinchi Prezidentimiz I.Karimov qayd etganidek: «Biron-bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi».⁷

Shu ma'noda badiiy adabiyot ham ma'naviyatni targ'ib etadi. Shiddatli davr xususiyatlarini badiiy obrazlar orqali yoritib beradi. Shu jihatdan, keyingi yillar adabiyotida o'ziga xos ovoz va uslubga ega bo'lgan ijodkorlardan biri Nazar Eshonquldir. Har bir ijodkor adabiyot olamiga qadam qo'yar ekan, so'z san'atining murakkab qirralarini teran his etadi. Bu maydonda o'z o'rnini qoldirishga intiladi. Nazar Eshonqul adabiyotda falsafiy fikrlari, sirli, majoziy tasvirlari orqali alohida ajralib turadi.

Adabiyotshunos U.Normatov bu haqida shunday yozadi: «Milliy adabiyotdagi har bir ijodiy hodisaning sababini tashqi omillardan emas, avvalo shu milliy zaminning o'zidan, real voqelikdan, zamona ehtiyojlaridan izlamoq darkor... Bu tamoyillar ayniqsa Nazar Eshonqul ijodida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Muallifning «Maymun yetaklagan odam» va «Muolaja» asarlaridan tortib «Bevaqt chalingan bong», «Istilo», «Tobut» hikoyalarigacha - barchasi ifoda va talqin yo'sini jihatidan o'zbek adabiyotida yangi hodisa bo'ldi».

Yozuvchi katta roman yozadimi, yoki bo'lmasa bir kichik hikoya, ularning barchasida o'zgachalik yarq etib ko'zga tashlanib turadi. O'zbek adabiyoti uzoq davr mobaynida bir xil qoliplarga asoslangan, syujet va yechimlari deyarli bir xil bo'lgan asarlar kolleksiyasiga aylandi desak yolg'on aytmagan bo'larmiz. To'g'ri,

⁷ Karimov I. "Bizdan ozod va obod vatan qolsin". T. 2006. 128-bet.

bu asarlarning ichida ham o'z salmog'i, yuki jihatidan judayam go'zal asarlar vujudga keldi, ammo shunga teskari vaziyatda ularning juda ko'plari nashr bosma taboqlarining miqdorini ko'paytirishga yaradi xolos.

Bu, albatta, birinchi navbatda mafkuraviy tazyiqlar oqibati bo'lsa, ikkinchidan partiya va senzuraning aralashuvi yozuvchilarning o'z erki bilan asarlarni chop etishga yo'l qo'yilmasdi. Allohga shukurlar bo'lsinkim, mustaqilligimiz sharofati bilan adabiyotimiz ham ancha olg'a siljidi. Unda bir biridan go'zal asarlar paydo bo'ldi va bir biridan ajoyib ijodkorlar faoliyat yuritib kelmoqda.

Mustaqillik sharofati bilan qissa janri bir qadar rivojlandi, unda yangi ijodkorlar va ularning yangi qarashlarda dunyoga kelgan asarlari bilan boyitildi.

Adabiyotimizdagi sifat o'zgarishlar qissa janrida ham ko'zga tashlana boshladi. Bu vaqtda e'lon qilingan qissalar mavzu mundarijasi turlicha. Qissalar tahlilidan: milliy qadriyatlar talqiniga e'tibor berilayotgani; sobiq mafkura xizmatchilarining tazarrusi yoritilayotgani; ommaviy madaniyatning yoshlar ma'naviyatiga ta'siri ifodalanayotgani; san'atlar aloqadorligiga ahamiyat qaratilayotgani; ijtimoiy turmushdagi ziddiyatlarni kulgi, piching zaminida tasvirlanayotgani; asar hajmiga ahamiyatning susayishi kuzatildi.

Bu davrda e'lon qilingan Nazar Eshonqul asarlarida ham ijodkorning o'ziga xosligi, hech kimnikiga o'xshamagan yo'li, asarlarida oddiy qishloq insonlarining hayotini tasvirlashdan tortib salmog'i Alber Kamyuning "Begona" romani darajasidagi absurd roman (Go'r o'gli yohud hayot suvi) gacha uchratishingiz mumkin.

Yozuvchi ijodida dastlabki davrda oddiylik ko'zga tashlangan bo'lsa, keyinchalik uning asarlarida mavhumlik, o'quvchining tafakkur olamini tubdan o'stiradigan, uning ong ostiga ta'sir ko'rsata oladigan G'arb adabiy jarayonidan oziqlangan ajoyib hikoyalar, qissalar va roman ham paydo bo'ldi.

Yozuvchining 1988-yilda yozilgan "Urush odamlari" qissasiga e'tiborimizni qaratsak. Yozuvchi ushbu qissasini hali mustaqillikka erishmasimizdan avval yozgan. Bu asar urush va shu urushning insonlar hayotiga fojiali ta'siri, oqibatlari

haqida dard bilan qog'ozga tushirilgan. Ushbu asar ayni vaqtda O'tkir Hoshimovning "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasini ham esga soladi. Ammo bu qissada yozuvchi butunlay boshqa yo'ldan boradi. Birinchi e'tiborga molik bo'lgan holat, "Urush odamlari" qissasining epigrafi.

Epigraf tanlash maxorati o'zbek adabiyotiga begona emas, Ustoz ijodkorlar Abdulla Qahhor, Said Ahmadlarning mahorat maktabi sayqal topib ulgurgan. Ayniqsa, Abdulla Qahhorning XX asr adabiyotida hikoyalariga tanlagan pesh so'zlari asarning butun bir strukturasini boshqargan desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Yozuvchi Nazar Eshonqul ijodida ham ko'plab epigraflarni uchratamizki, bu ham ustoz adiblarimizning maxorat maktabidan oziqlanganini ko'rsatadi.

"Urush odamlari" qissasida epigraf shunchalar mahorat bilan tanlanganki, uni o'qigach nega shunday degan savol kitobxonni qiynaydi va asarni o'z-o'zidan o'qiy boshlaydi.

Asarning epigrafini aynan keltiraman: "Men katta bo'lsam, miltiq sotib olaman." "Miltiqni nima qilasan?.." "Otamni otaman!!!"

Ushbu qissani o'qib tugatgach yozuvchi nega aynan bunday usulni qo'llaganini his qilish unchalik ham qiyin emas. Normat polvonning o'g'li Xolyor o'z onasining o'limiga sababchi bo'lgan insondan o'ch olmoqchi, ammo o'sha inson qani? U shuni istaganmidi? Urushdan qaytsam unday qilaman, bunday qilaman, oilam bilan butun umr baxtli-saodatli umr kechiraman degan Normatning hayotiga urush o'z ta'sirini o'tkazaverdi. Gulday oila barbod bo'ldi. Yozuvchining mahorati shundaki, qissani o'qib chiqqan o'quvchi dilida qissa qahramonlariga achinish bilan birga nurafshon hayotdan zavqlanish hislari ham qoladi. Ijodkor tabiat tasvirini shunday aks ettirganki, o'lkaga bahorning kelishi insonlarning unga quchoq ochishlari, yangi hayotning boshlanishini mahorat bilan ifoda eta olganki, bu ham o'quvchi ongida faqat fojيانing, urush oqibatlarining qolib ketmasligiga, hayot yangi o'zgarishlar bilan insonlar hayotini yoritishiga, ertangi kunga bo'lgan umid insonni tark etmasligiga ishonishiga ham turtki bo'lgan.

Aynan mana shu qissaning boshlanishiga e'tibor qilamiz: Yozuvchi O'sha davr voqeligini shunday chiroyli tarzda ifodalab bergan.

"Normat polvon bir oyog'idan ayrilib urushdan qaytdi. Urushdan majruh bo'lib qaytish odatdagi voqea bo'lib qolganligi uchun hech kim uning mayib bo'lib qaytganligiga ajablanmadi⁸". O'sha davrda insonlarning hayotida ro'y bergan urushning asoratlari, ularning hayotida urush shu darajada iz qoldiryotgandiki, insonlar hayotida majruh bo'lib qolish odatiy holga aylanib qolgandi. Insonlar o'z hayotlarida ro'y berayotgan og'irchiliklarga, ziyon zahmatlarga o'rganib qolgandi.

"Yangiboy hisobchining xotini urushdan oyoqsiz bo'lib qaytgan erini qayergadir olib borib tashlab keldi⁹". Yozuvchining qalami qudrati urushning betakror chizmasini chizdi, uning asoratlaridan toblanib chiqayotgan insonlarning va bu urush qaddini, or-nomusini-da egib qo'ygan insonlar hayotini yorqin bo'yoqlarda aks ettirib berdi. Urush insonlar hayotini qay darajada og'ir ahvolga olib kelmasin, tabiat o'z sahiyligini namoyish etaveradi. Buni asarning oxirgi sahifasidan joy olgan bahorning kirib kelish tasvirida ko'rishimiz mumkin.

"Nihoyat qo'ng'irot urug'iga bahor kirib keldi. U ming xil noz, ming xil karashma bilan urush zahmatlari ezib tashlagan urush odamlarining yuragiga yashash va yashnash ishqini soldi. Ularni erkaladi, sochlarini siladi, adirlarni qip-qizil lolalarga to'ldirdi, butun borliqqa go'zallik gilamini yoydi. Qirlarni baxt tillari -maysalar qopladi. Janjalkash, asabiy bo'lib qolgan odamlarning dimog'ini erkaladi, ularni qirlarga yetaklab chiqdi, ko'zlaridan o'pdi.

Yomg'ir bu yil xosiyatli kelishidan darak berib, toshlarni, daraxtlarni alamidan chiqquncha savaladi, jilg'alarda sho'xlik qilib buralib-buralib oqdi.

Bahor qarovsiz qolgan Normatning uyini ham sedan chiqarmadi, uning tomiga maysalar undirdi, ayvoniga qizg'aldoqlar ekdi, daraxtlarini gulga ko'mdi, arig'ida azoblanib, loyqalanib oqdi. Buzilib ketayozgan o'choq boshida ikki boychechak o'sib chiqdi. Ular hech kim eshitmas qilib, "Baxt, baxt, baxt", deya

⁸ Nazar Eshonqul. Urush odamlari. T. -2019. 4-bet.

⁹ O'sha kitob. 4-bet.

qo'ng'iroq chaldilar, yomg'ir derazasiga urilib-urilib yig'ladi, shamol ayvonga yig'ilib qolgan xas-xuslarni uchirib uzoq-uzoqlarga olib ketdi...¹ "

Ushbu parchani o'qib yozuvchining mahorati faqat ma'no qatlamlari bilangina bog'lanib qolmasligini his qilishimiz turgan gap. Ushbu parchada jonlantirish, sifatlash, o'xshatishlar shu darajada maxorat bilan qo'llanganki, bu vositalar asarning umumiy mazmunini ochib berishda muhim fundament vazifasini bajarib beradi. Buzilib ketgan o'choq boshida unib chiqqan ikki boychechak va ularning ham aynan buzilib ketgan o'choq boshidan unib chiqishi tasvirida. Normat va Anziratning fojiali taqdiridan so'ng ularning buzilib ketgan ro'zg'orlarini davom etkazuvchilari -farzandlari yangi hayotlarini boshladi ularning o'chog'ining olovini yoquvchilari, uyining chirog'ini yoquvchilari paydo bo'ldi.

Ular "Baxt, baxt, baxt" deya qo'ng'iroq chaldilar. Ha bunday jarohatli hayotdan so'ng ular butunlay baxtga loyiq edi.

Asarning bunday tugatilishi, ehtimol, juda ko'plab yozuvchilarimiz uslubi hisoblanar, ammo fojia ro'y bergandan so'ng ham asar oxirida umidbaxshlik tuyg'ularining saqlanib qolishi kamdan kam yozuvchilargagina xosdir.

Asar voqealari an'anaviy syujet asosida tashkil etilgan bo'lsa-da, ushbu qissada ham ramziylik yo'q deb bo'lmaydi. Har qanday asarida yozuvchi u yoki bu ravishda o'xshatishlar, ramzalardan foydalangan. Bir xil asarlarida ramziylikni tushunib olish oson kechsa, boshqa xil asarlarida biz yuragimiz bilan emas, zukko ongimiz yordamida bunday ramziylikni anglab boramiz.

Ushbu asardan olingan parchada shunday so'zlar keltiriladi:

"shamol ayvonga yig'ilib qolgan xas-xuslarni uchirib, uzoq-uzoqlarga olib ketdi...¹ "

Bu yerda shamol va xas-xuslar detallariga e'tibor qilaylik, adib bu yerda odatiy holatni tasvirlab turib, ayni vaqtda ikki yetim farzandning ham hayotini bir qadar oydinlashtirmayaptimikan.

¹ O'sha kitob . 155-bet.

¹ O'sha kitob 155-bet.

Ushbu parchada shamol bu vaqt obrazi bo'lsa, xas-xuslar esa o'tmish izlari edi, Shamol ayvonga yig'ilib qolgan o'tmish izlarini uchirib ketdi, uchirib ketganda ham uzoq -uzoqlarga uchirib ketdi.

Nazar Eshonqul ijodi bilan yaqindan tanishib borar ekansiz, beixtiyor yozuvchi tug'ilib o'tgan makon, u yerning odamlari, ularning xarakterlari, o'ylari fikrlari bilan tanishib borasiz. Bu narsa nafaqat uning qissalarida, balki hikoyalarida ham ko'zga tashlanadi. Masalan, Nazar Eshonqulning «Shamolni tutib bo'lmaydi» hikoyasida Tersota qishlog'ining nomi keltirib o'tiladi. Bundan tashqari adibning «Yalpiz hidi» turkumidagi «Bahor gullari», «Xazonrez» hamda «Yalpiz hidi» hikoyalarida qishloqning toza va beg'ubor tabiati quchog'ida tug'ilib, hasharga kelib yashayotgan asar qahramoni Samandar tilidan qishloq manzaralari mahorat bilan gavdalantiriladiki, o'tuvchi beixtiyor o'zini onataniyatning ajralmas bir bo'lagi ekanligini anglab boradi.

E'tiborlisi, yozuvchining "Maymun yetaklagan odam" hikoyaning chop etilishi o'zbek nasrida unutilmas voqea bo'ldi. Hikoyaning avvalgi davrlar o'zbek hikoyachiligidan butunlay farq qiladigan o'zgacha ohang, tarovat kasb etganligi, shakl-mazmunining yangiligi, asar syujeti va obrazlarning yangicha talqin va ruhda namoyon bo'lganligi barchani birdek hayajonga soldi. "Bu o'zbek adabiyotida yangi buloq ko'z ochganidan darak berdi. Unda asrga tengdosh, umri asrning alg'ov-dalg'ovlari, bema'ni maqsadlar yo'lida o'tgan, adashgan odamning fojeaviy qismati betakror tarzda ifoda etilgan edi.

Bu hikoya zamondosh-asrdosh obrazini yaratish yo'lidagi yetmish yillik tajribalarning muayyan intihosi ayni zamonda yangi bosqichning boshlanishi bo'ldi¹".¹ Nazar Eshonqul qissalarini o'tqigan o'tuvchi asar qahramonlarini shunchaki yo'ldan ozgan, "axloq normalaridan chekingan" yoki "ulug' maqsadlar yo'lida" katta to'siqlarga duch kelgan odamlar deb bo'lmashligini anglab yetadi.

Insoniyat tarixi o'tmish davrlaridan iborat. O'tmaydigan davrning o'zi yo'q. Badiiy tafakkur ham shu. U tinimsiz o'zgaradi, o'zgargani sayin badiiy tasvir

¹ Normatov U. bugungi nasrimiz tamoyillari. Jahon adabiyoti . -1997

imkoniyatlari kengayadi, torayadi, tinch turmaydi. Shu tariqa har qanday milliy-badiiy tafakkur biridan keyingisiga o'tuvchi bosqichlar evolyutsiyasidan tashkil topa boradi. Ana shu tadrijiy davomiylik ilg'ab olinsa, milliy-badiiy tafakkurning yaxlit bir jarayon ekanligini tasavvur etish oson bo'ladi. Mazkur yaxlit jarayon ichidagi badiiy tafakkur evolyutsiyasi bosqichlarini aniqlash uchun esa qo'llanilayotgan badiiy tasvir vositalari tadrijini o'tganishga to'g'ri keladi. Chunki ijodkor shaxs dunyoni, insonni qanday idrok etsa, shunga yarasha badiiy tasvir vositalaridan foydalanadi, yangilarini kashf etadi.

Asl kasbi insonshunoslik bo'lgan adabiyot hamma davrlarda ham insonni e'zozlagan. O'zbek realistik nasri bundan mustasno emas, albatta. Biroq bugungi davr adabiyoti va san'atining bosh xususiyati insonparvarlik tuyg'usining har qachongidan chuqurroq, kengroq va yuksakroq darajalarga chiqishi bilan ifodalanadi.¹ Shu o'rinda modernizm atamasiga izoh berib o'tmok joiz. «Modernizm» (fransuzcha - moderne - eng yangi, zamonaviy) atamasining XX asr avvalida G'arbiy Yevropada paydo bo'la boshlagan futurizm, ekspressionizm, imajinizm, unanizm kabi badiiy oqim va guruhlarining yuzaga kelishi bilan bog'lashadi¹. «Modernizm»ni ayrim adabiyotshunoslar aniq topib ishlatilgan atama emas, deyishadi. Ularning fikricha, «modernizm»ning lug'aviy ma'nosidan kelib chiqqanda, har qanday davr o'zining «eng yangi», «zamonaviy» badiiy oqim va guruhlarini paydo qilishi mumkin. Markscha adabiyotshunoslikda «modernizm» «dekadans» atamasi bilan bir ma'noda qo'llanib kelinadi. Aslida esa «dekadans» (fransuzcha - decadence - tushkunlik) o'tgan XIX asrning 80-yillarida yuzaga kelgan: o'sha yillar Parijda «Dekadans» nomli jurnal chiqib boshlagan, «dekadant» atamasi ham ayni shu yillari bo'lib o'tgan adabiy munozaralarda qo'llanilgan»^{1 1}. Bu atamalarning asosiy farqi shundaki, «dekadant»lar o'zlaridan oldin o'tgan adabiy oqimlar bilan bog'liq holda yuzaga kelgan bo'lsa, «modern»chilar o'tmish bilan aloqani uzib, yangi zamonga mos

¹ "O'zbekiston adabiyoti va san'ati". 1996 yil 2-fevral

¹ Sharafuddinov O. Modernizm -jo'n hodisa emas. O'z As. 2002 yil 7 iyun.

¹ Rasulov A. Tinch oqar daryo. O'z. AS. 2003 yil 9 iyul.

¹ Navoiy, Alisher. Xamsa. To'plam. Farhod va Shirin. T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986. -75-bet.

«modern» san'atini yaratishga kirishishgan. Shu boisdan ham «modern»ni «eng yangi», «zamonaviy»dan ko'ra kengroq ma'noda, butkul yangi, g'ayri'anaviy, oldingilardan farqli hodisa sifatida olib qarash o'rinli.

«Modernizm» atamasi hozirgi zamon G'arb san'atiga nisbatan bimalol qo'llanib kelinadi. Bu san'atning yuzaga chiqishi esa, aslida bir-biri bilan aloqada bo'lmagan, Yevropaning turli mamlakatlarida yashagan, har xil millatga mansub yozuvchi, shoir, musavvirlar tomonidan turli vaqtlarda tashkil etilgan, uyushtirilgan, harakatga keltirilgan oqimlar, to'garaklar, guruhlarining intilishlari samarasidir. Masalan, kubizm Fransiyada, futurizm Italiyada, dadaizm Shvetsariyada paydo bo'ldi. Ularning barchasiga xos yetakchi jihatlardan biri g'ayrirealistik ijod usulidir. Barchasini umumlashtiruvchi yagona atama esa «modernizm». Bu atamaning nazariy, umumfalsafiy asoslarini A.Shopenhauer, M.Shtirner, S.Kerkoger, F.Nitsshe, A.Bergson kabi faylasuflarning ijodiy merosi bilan bog'lashadi¹.

Modernizm oqimining o'zbek adabiyotida kirib kelishini shoir Bahrom Ro'ziyev quyidagicha izohlaydi: «Modernizm»ni realizmga qarshi qo'yib bo'lmaydi. Modernizmga realizm suratidagi sotsial realizm oqimigina qarshi qo'yilgan. endilikda asta-sekin adabiyot siyosatdan holi bo'lmoqda. Chunonchi, adabiyotning o'z «siyosati» mavjud. Adabiyot inson ruhiy olami uzra siyosat yurgizadi - ruh olamidagi jismlar orasida intizom o'rnatiladi. Qadim-qadimdan shunday bo'lib kelgan. So'fiylarning ko'ngil parvarishi talimot bejiz kun tartibiga chiqmagan bir mahallar. Biz shu yo'ldan yurmog'imiz lozim. Bu yo'l manaviyatimizni yuksaklikka olib chiqadi, bu yo'l millatimiz yuragini, sharqona kechinmalarini bobolarimiz ma'naviyatiga omuxta etgan holda jahon ilm ahliga ko'z-ko'z qiladi».

Nazar Eshonqul asarlarini o'qib turib yozuvchi ijodidagi boshqich jihatlari asosan xalq mifologiyasi asosida, uning o'zidan ruh olib yaratilganligiga amin bo'lsan. «Urush odamlari»dagi Normatdek ezilgan, singan insonlar, «Haroba

¹ Ulug'ov A. Ijodiy metod va ijodkor uslubi. 2019 y

shahar surati»dagi parishon yigit, o'z tanazzulini sezmagan saylovga nomzodi qo'yilgan shoir, unga qarama-qarshi tarzda o'z mag'lubiyatini seza turib, bunga ko'nikkan professor, «Xayol tuzog'i»dagi aldov va maqsadsizlik ustiga qurilgan bu dunyodan voz kechgan Voqif, "Momoqo'shiq" qissasidagi o'z tug'ilgan yurtini bolaligini unuta boshlagan Shamsi Saloh, inson miyasini taomiga aylantirgan «To'zon»dagi maxluqlarga urush ochib, o'zi ham uning domiga tushgan yozuvchi yigit, «Qora kitob»dagi kabi yo'qlik va noma'lumlik, puch g'oyalarga berilgan insonlarning o'y-xayollari, orzu-armonlari, kechinmalari, his-tuyg'ulari aks etgan bir qator qissa va hikoyalar dunyoga keldiki, ular Xurshid Do'stmuhammadning ta'biri bilan aytganda bugungi «uyg'onish badiyatining» nodir namunalari sirasiga kiradi.

I bob yuzasidan xulosalar

Dissertatsiyamizning birinchi bobi yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

1.O'zbek qissachiligida yangi yo'nalishni boshlaab bergan va realistic yo'nalishni ham yangicha tomonlarini ochib bergan ijodkor Nazar Eshonqul ijodi hali ko'p dissertatsiyalar mavzusi bo'la oladi. Bugungi kun qissachiligini yangi bir pog'onaga ko'targan ijodkor ijodi o'zbek adabiyotida o'rganilishi lozim bo'lgan masalalar sirasiga kiradi.

2. Adib ijodini o'rganish jarayonida ko'plab nomzodlik ishlarini, bir qator adib ijodi haqida ilgari surilgan fikrlarni, maqolalarni, shuningdek, Mashxura Sheraliyeva, Umida Rasulova, Shohista Mahmudova va bir qator bitiruv malakaviy ishlarini o'qib chiqish natijasida shu xulosaga kelishimiz mumkinki, adib ijodining har-xil tomonlari ilmiy jihatdan tadqiq etilgan, ammo adib ijodi keng planda hali o'rganilmagan. Qissalar tadqiqiga yetarli darajada o'rin berilmagan, monografiyalar, nomzodlik ishlari ko'proq ichki qiyoslashga emas, balki, ikki ijodkorning asarlarini bir-biri bilan qiyoslashga qaratilgan. Masalan, Dilmurod Xoldorov "Shoyim Bo'tayev va Nazar Eshonqul" ijodini bir-biri bilan qiyosiy tadqiq etsa, Feruza Burhanova "Ulug'bek Hamdam va Nazar Eshonqul" hikoyalarini qiyosiy tadqiq etadi.

3.Adib ijodini o'rganish jarayonida bir qator yangiliklarga duch keldik:

a) Ijodkor asarlarida tilga olingan Tersota qishlog'i bu ijodkorning o'zi yashagan maskan hisoblanadi.

b) Ijodkor qissalarida tilga olingan Biydi momo obrazi haqida to'xtaladigan bo'lsak, bu obrazga prototip sifatida olingan qahramon yozuvchining buvisi Maslig' momo ekan. Maslig' momo ham ikki farzandi bilan beva qolib, farzandlarini tarbiya qilgan ayol ekan.

4. Ijodkor hikoyalari juda ko'plab bitiruv malakaviy ishlar va nomzodlik dissertatsiya mavzulari bo'lgan va bunda hikoyalar keng planda tadqiq etilgan deb bermalol aytish mumkin. Ijodkor hikoyalari ko'proq modern uslubda bo'lib, ushbu uslub adib ijodining o'ziga xos xususiyatiga aylanib ulgurgan desak, yanglishmagan bo'lamiz. Modern adabiyot, modern hikoyachilik, ramzlar, turli

noyob o'xshatishlar, qiynalgan, ruhan ezilgan obrazlar tasviri Nazar Eshonqul ijodi bilan o'zbek adabiyotiga qayta kirib keldi.

5. Adib ijodida Albert Kamyuning "Begona"si-yu, Frans Kafkaning "Jarayon"i bilan tenglasha oladigan "Go'ro'g'li yoxud hayot suvi" deb nomlangan roman ham uchraydi. Ushbu roman davlatimizda va butun dunyoda sotsializm ruhi hukmron bo'lgan davr voqeligini aks ettirishda tengsiz asar namunasidir. Ushbu roman orqali yozuvchi nafaqat hikoya va qissalari bilan, balki, roman janri namunalari bilan ham bimalol jahon adabiyotining betimsol romanlari bilan bellasha oladigan romanlar yoza olishi mumkinligini kuzatishimiz mumkin. Adib ijodining bu tomoniga, ya'ni roman tadqiqiga hali keng o'rin berilmagan, ushbu romanni bimalol tadqiq qilib, nomzodlik dissertatsiyasi mavzusiga aylantirish mumkin. Ushbu roman Frans Kafkaning "Jarayon" romani bilan qiyoslab tadqiq etilsa, yaxshi nomzodlik dissertatsiyasi mavzusiga aylanishi mumkin.

6. Iste'dodli yozuvchi Nazar Eshonqul ijodining o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu epigraf qo'llash san'ati bo'lib, ijodkor asarlarida bu xususiyat ulug' ijodkorlarimizning an'analarini baholi qudrat davom ettirib kelayotganligidan dalolatdir. Ijodkor asarlariga epigraf tanlar ekan, uni asar mazmuniga shu darajada singdirib yuboradiki, xuddi asar mana shu epigraf zaminiga qurilganga o'xshaydi. Qissalarida keltirilgan epigraflar ham bekorga tanlanmagan, har bir epigrafidagi so'zlar asar mohiyatini ochib berishga xizmat qilgan.

7. Qissa janri borasida gap ketganda bir nechta ijodkorlar bu borada yaxshigini ishlarni amalga oshirishgan. A.Qahhor, G'.G'ulom, Oybek, S.Ahmad, O'.Hoshimov, U.Hamdani, Sh.Bo'tayev, A.A'zam, E.Azim kabi ijodkorlar qissa janrini o'z asarlari bilan boyitishgan. Nazar Eshonqul ham o'zbek qissachiligini yana bir pog'onaga ko'tarilishiga sabab bo'ldi. U mumtoz adabiyotimizda ilk kurtaklarini ko'rsatgan modern uslubni o'zbek adabiyotiga qayta olib kirdi. Zamonaviy yo'nalishdagi yangicha hikoya, qissalari bilan adabiyot xazinamizni boyitdi. Ijodkor realistik va modernistik uslublarni bir-biriga omixtalashtirib yangicha bir adabiyot namunalari tuhfasi etdi.

8. Nazar Eshonqul qissalarida adib ijodining o'ziga xos xususiyatlari peyzaj, ya'ni tabiat tasviri bilan qahramon ruhiyatini birlashtirib yuborish to'la namoyon bo'lgan. "Urush odamlari" qissasida Normat rafiqasi xiyonatidan so'ng qishloqdan chiqib ketgach, uning yo'lidagi archa barglarining qorayib turishi, yoki bir archaning singan holati tasviri qissani yaxshilik bilan tugamasligiga ishora qilsa, xuddi shu asarning oxirida uchraydigan ikki boychechak tasviri esa farzandlarini ulg'ayib-o'sayotganlarini va ular hayotga umid nishonasi bo'lib yashash uchun kelganligini bildiradi. Shuningdek, ijodkor qissalarida yana shunday holatga to'qnash kelamizki, asar g'amginlik ruhi bilan boshlansa-da, voqealar rivojida odamni zeriktirib qo'ymaydi, asar so'ngida esa qissalarni o'qib chiqqach yorug' bir ruh qoladi.

9. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, ijodkor mahorati u yozgan asarlar bilan o'lchanadi, Nazar Eshonqul adabiyotimizning baland pog'onalarida turishga arzigulik, jahonning eng buyuk ijodkorlari asarlari bilan bimalol bellasha oladigan, insonlarning qalblariga yorug'lik solib, ularning ko'ngil olamini go'zallashtira oladigan asarlar yaratgan mahoratli ijodkordir. Uslub o'ziga xosligi, badiiy did, san'atkorona tashbehlar, ramzlar va ranglar jilosi, tilimizning go'zalligi adib ijodining o'ziga xos xususiyatlaridandir. Bu xususiyatlar esa adib ijodining yanada estetik qiymatini oshirgan.

II BOB. NAZAR ESHONQUL QISSALARINING BADIY TALQINI

2.1. Nazar Eshonqul ijodining o'ziga xos uslubi

Mustaqillik davri badiiy-estetik tafakkurining taraqqiyot tamoyillari ko'p asrlik adabiy-madaniy qadriyatlarni tiklash va yangicha baholashdan iborat umumiy jarayon bilan uzviy bog'liq ravishda rivojlanib bormoqda. Bugungi kunda xalqimizning ming-ming yillik ma'naviyat xazinasini istiqbolning ma'naviy poydevorini mustahkamlashga kamarbasta bo'layotganligi ham ana shundadir. "Meros", "Javohir", "Ma'naviyat" va boshqa turkumlarda adabiyot, fan, madaniyat va san'at sohalaridagi bebaho nashrlar yuzaga chiqdi.

Bugungi tarixiy yangilanishlar ildizini millatning erk-ozodlik uchun olib borgan kurash g'oyalari, vatanparvarlikdan holi tasavvur qilish mumkin emas. Erkparvarlik, hurfiylik, ozodlik ideali, imon salomatligi, e'tiqod butunligi, Vatan kamoli singari azaliy qadriyatlar bugungi adabiyotning g'oyaviy mazmunini tashkil etmoqda. Millatning o'z-o'zini anglash, o'zlikning qadrlanishi va ulug'lanishi, milliy iftixor tuyg'ularining shakllanishida badiiy tafakkur madaniyatining sifat o'zgarishlari namoyon bo'layotir.

Adiblarimiz xoh tarixiy voqelikka, xoh diniy g'oyalarga, xoh bugungi kunga murojaat etishsin, ularning asarlarida mohiyatan millat butunligini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy - falsafiy konsepsiya yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bu narsa badiiy tafakkurning "labbaychilik"dan qutilib inson ruhiyatining falsafiy-psixologik tahlili orqali shaxsni kamolga yetkazishga intilishi, komillik alomatlarining ulug'lanishida ko'zga tashlanmoqda. Odamdagi odamiylikni kashf etish - ustuvor tamoyilga aylanib bormoqda. Avvalgi o'n yilliklarda hozirjavoblik, zamonaviylik, dolzarblik, rostgo'ylik, siyosiy faollik badiyatning muhim belgilari sifatida ilgari surilgan bo'lsa, endilikda milliylik, tarixiylik, go'zallik, ezigulik, adolat singari bashariy qadriyatlar estetik mezon sifatida badiiy tafakkurdagi o'zgarishlarni aniqlovchi va belgilovchi yetakchi mezon bo'lib borayotir.

Hozirgi adabiy jarayonda yaratilgan lirik, epik va dramatik asarlarni tadqiq etganda, o'zbek adabiyotida alohida shaxslar olamini, ularning o'ziga xos

tuyg'ularini aks ettirish borasida qator yutuqlar qo'lga kiritilayotganligiga amin bo'lamiz. To'g'ri, har bir odamning o'zi alohida shaxs. Ayni chog'da, u o'zigagina xos olamga, intellektual - ruhiy xususiyatlarga ega. Shu jihati yuksalgan sayin inson o'ziga xos xislatlarini, o'z individualligini yanada teranroq, yorqinroq aks ettiradi.

O'zbek yozuvchilari ayni shu hayot haqiqatini o'z ruhiyatini taftish etib, o'zligini anglashga intiladigan qahramonlar vositasida, odamlarga ham boshqalar kabi emas, o'ziga xos munosabat bildirish, o'z qahramoni orqali atrofdagi odamlarni o'zimizga ma'qul kelish yo kelmasligiga qarab emas, balki boricha, qanday yaratilgan bo'lsa, shundayligicha ziddiyatli va murakkab inson sifatida qabul qilish zarurligini, muhimi, insonni anglash ekanini ta'kidlashga urinayotganliklari milliy mustaqillik davri o'zbek adabiyotiga xos muhim xususiyatdir.

Shunisi ham borki, insonni tushunishga da'vat etish insonni anglash falsafasini talab qiladi. Insonni tasvirlash orqali esa ana shu hayot falsafasi yaratiladi. Zotan, adabiy janrlar taraqqiyotining yangi davrida hodisalarga va inson shaxsiga yondashish tamoyillarining o'zgarib, takomillashib borishi tabiiy va zaruriy jarayon hisoblanadi. Ammo badiiy ijodning azaliy qonunlari barcha davrlar uchun o'zgarmasdir: yozuvchi voqeanavis emas, insonshunos sifatida ish ko'rib inson qalbi haqida aytilmagan haqiqatlarni badiiy kashf etsagina, u yaratgan asar estetik qimmat kasb etadi, bunday ijodkor esa asrlar davomida kelajak avlodlar tomonidan yodga olinadi, u yaratgan asarlari va bunday ijodkorning shaxsi ham qadrlanadi. Shunday buyuklikka erishgan buyuk ijodkorimiz

Navoiy bobomiz o'z asarlari tili, o'zlarining badiiy, nihoyatda betakror uslublari bilan o'zbek adabiyoti ravnaqini osmonlarga quyosh misoli olib chiqib qo'ydi.

Navoiydan keyingi adabiyot esa bu uslublarni o'zlashtirdi va quyosh porlab turgan osmonga birin-ketin yulduzlar bo'lib to'la boshladi.

Har bir ijodkorning o'z yo'li, o'z uslubi, o'z maqsadlari bor bo'ladi. Ijodkor o'z uslubi bo'lsagina, birovlarini takrorlamasagina haqiqiy talant, haqiqiy sohibi qalam ekanligi ravshanlashadi.

Navoiy hazratlari o'zining "Farhod va Shirin" dostonlarida ijodkor uslubi haqida shunday betakror misralarni keltirib o'tadi:

"Ani nazm etki, tarhing toza bo'lg'ay,
Ulusqa mayli beandoza bo'lg'ay.
Yo'q ersa nazm qilg'onni xaloyiq,
Mukarrar aylamak sendin ne loyiq¹ ".

Xo'sh, ijodiy metod va ijodkor uslubi o'zi nima?

"Ijodiy metod bu ijodkorning dunyoni qay ravishda idrok etishi bo'lsa, ijodiy uslub aynan mana shu dunyoni, mana shu davrni o'z ijodida qay tariqa gavdalandirib bera olishidir.

Ayrim tadqiqotlarda ijodiy metodga ijodkorning hayot faktorlarini tanlashi, umumlashtirishi, baholashi va badiiy obrazlarda aks ettirishda qo'llagan asosiy prinsiplari degan so'zlar keltirib o'tiladi.

Demak, ijodiy metodda hayot voqeligiga yondashish, hayot voqeligiga munosabat ham ijodiy metodning xususiyatlariga kiradi. Shuning uchun ham ijodiy metod sharq va g'arb adabiyotini belgilashda, sharq mumtoz adabiyoti va bugungi zamonaviy adabiyot xususiyatlarini aniqlashda ham muayyan salmoq kasb etadi. Chunki har bir davrda ijodkorlar o'zining fikr yuritishidan, davrga munosabatidan kelib chiqib hayot voqeligini yoritadi.

Inson Navoiy davrida ham, bugungi davrda ham inson. Adabiyotning o'rganish obyekti ham insondir. Ammo insonni ichki olamini, uning dunyosini aks ettirishda zamonaviy adabiyot bilan bundan besh yuz yil ilgari mumtoz adabiyot bir-biridan farq qiladi.

Ana shu farq bu hodisalarga qanday yondashishdan kelib chiqib belgilanadi. Mana shu yondashish esa ijodiy metod deyiladi.

¹ Urush odamlari: qissalar. Nazar Eshonqul. -Toshkent: Yangi nashr, 2019. 3-bet

Uslub yozuvchining individual ekanligini belgilaydi, ijodiy individuallik esa u yaratgan asarning barcha sathlarida yoki asar kompozitsiyasida namoyon bo'ladi. Umuman olganda ijodkor uslubi deganda, unga xos jumla tuzish, unga xos rivoyat qilish, unga xos badiiy detallar qo'llash, unga xos o'xshatishlar qo'llash va asarining tili, unga xos syujet yaratish nazarda tutiladi² ".

O'zbek adabiyotida o'z ijodiy uslubiga ega ijodkorlardan biri, o'z davrining betimsol iste'dod egalaridan biri, shubhasiz, Nazar Eshonquldir.

Nazar Eshonqul ijodining o'ziga xos uslublaridan biri bu real hayotni ayni o'z holatiga yaqin qilib tasvirlash (Urush odamlari va Momoqo'shiq qissalari misolida), realizm ko'zga tashlanadi. Realizm bor bo'lgan, haqiqiy degan ma'nolarni bildirib badiiy adabiyotda haqiqiy real hayotni badiiy obrazlar vositasida aks ettirishdir.

"Urush odamlari" qissasida urushning haqiqiy suvratini chizish, insonlarning urushdan qiynalib tortgan azoblarini, farzandlarning yetim, ota-onalarning esa farzanddan mahrum bo'lib qolishlarini yaqqol tasvirlab beradi. Urushdan qaytgan odmaning hayotini va front ortidagi insonlar hayotini shu darajada jonli ifodalaydiki, asardagi har bir obrazga hattoki u insoniy fazilatlardan mahrum sizga yoqmagan obraz bo'lsa-da ko'nglingizning bir chetida unga achinish bilan boqasiz.

Ushbu parchaga e'tibor qiling "Urushdan majruh bo'lib qaytish odatdagi voqea bo'lib qolganligi uchun hech kim uning mayib bo'lib qaytganligiga ajablanmadi. So'nggi uch yil ichida urushga soppa-sog' ketib, biron muchasidan ayrilib qaytish hodisasi tez-tez sodir bo'lib turardi. Urush boshlangan yiliyoq yuqori Teraklidan usta Pirnazar qo'lidan ajralib qaytgandi. Ikki yil oldin esa Qo'rg'onosti qishlog'idan Mulla Turdi ko'zidan ayrilib qaytdi. Shu yilning boshida Yangiboy hisobchi qishloqqa g'ildirakli aravada kirib keldi² ".

² Urush odamlari: qissalar. Nazar Eshonqul. -Toshkent: Yangi nashr, 2019. -4-bet

² Urush odamlari: qissalar. Nazar Eshonqul. -Toshkent: Yangi nashr, 2019. -159-bet

Asardan olingan ushbu kichkinagina parchada urush insonlarning hayot tarziga, nafaqat hayot tarziga balki insonlarning ruhiy va jismoniy olamiga qanchalar katta ta'sir ko'rsatganligini ko'rishimiz mumkin.

Urushdan qaytgan odamlarning nogiron bo'lib qaytishlari hatto odatdagi hodisaga aylanib qolganki, buni yozuvchi hech kim ajablanmadi so'zlari bilan beradi.

Urush insonlar boshiga daxshatli azoblar soldi. Yozuvchi esa urushni va urushdan keyingi hayotni, urush odamini va uning urushdan so'ng qanchalar o'zgarganligini boricha tasvirladi.

Normat polvonning urushdan oldingi va urushdan keyingi holatini quyidagicha gavdalantirdi: "Normat polvonni ko'rish uchun kelgan qishloqdoshlari o'zlari tasavvur qilgan norg'ul, barvasta, umrida olishib ko'rmagan, lekin suyagi yirik bo'lgani uchun "polvon", deb nom olgan, qishloqning old chavandozlaridan biri, qomatidan kuch yog'ilib turgan, o'ttizdan oshgan o'ktam Normat polvonni emas, ozib, mushaklari shalvirab, bo'yin tomirlarida ajinlar paydo bo'lib, yara izlari qolgan, hali dorilarning badbo'y hidi ketmagan, ko'rinishidan ellikni bersa bo'ladigan, sochlari oqara boshlagan, o'zlari eshitgan urushning tirik guvohini ko'rdilar²". Bu parchada urush inson hayotini qay darajada o'zgartirib yuborishi mumkinligini birgina urushdan majruh bo'lib qaytib kelgan odamning holati va ko'rinishini berish bilangina ochib bergan. Urushdan majruh bo'lib qaytgan odamning haqiqiy suvratini va urushning tirik guvohini chizish orqali Normatning qishloqdoshlarida va o'quvchi qalbida urush degan baloning qanchalar dahshatli hodisa ekanligini gavdalantirib berdi.

Adib ijodi haqida so'z borganda uning ijodini ikkiga ajratish mumkin, birinchi davrda ijodkor ko'proq hayotiy hodisalarni, real voqealarni o'z asarlarida gavdalantirgan bo'lsa, ijodining ikkinchi davrida, asosan, insonning ko'ngil olamini o'z asarlarida aks ettirdi.

² H.Umurov. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. - 38-bet

Realizm uning bir qancha asarlarida ustunlik qilsa, boshqa bir necha asarlarida esa psixologik tahlil uslubi (Qora kitob va Tun panjaralari qissalari misolida) yetakchi xususiyat bo'lib xizmat qiladi.

Ijodkor insonlarning eng ichki ko'ngil qo'rg'oniga, ruhiy olamiga kirib boradi.

Qora kitob qissasida asar bosh qahramoni o'zini o'z ko'nglida sud qilsa: "Jinoyatchi men yig'lab yubordi -ko'nglim supasida shunday ulug' sud bo'lib o'tdi. Bu hukmni endi hech kim qila olmaydi. Siz yana jazodan qo'rqmaysizmi deb so'rab o'tiribsiz. Jazo nima u? Shunchaki rasmiy marosim. Hakamlar va tergovchilarning kun kechirishi uchun o'ylab topilgan marosim. Aslida eng oliy jazoni ko'ngilning o'zi chiqaradi² "

"Tun panjaralari" qissasi qahramoni esa o'z xayollariga erk beradi.

Yozuvchining ijodiga xos uslublardan yana biri bu asarlariga pesh so'z, ya'ni epigراف tanlash maxoratidir.

Epigراف o'zi nima uning tarixi qaylarga borib taqaladi va u badiiy asar uchun qanday xizmat qiladi?

Epigراف (yun. — ustki yozuv) — 1) Yunonistonda qabr toshlari ustidagi yozuv; 2) adabiy asar yoki uning biror qismi (bobi)ning tepasiga yozib qo'yilgan va shu asar yoki qism (bob) mazmunini ifodalaydigan, asosiy yo'nalishini belgilab beradigan teran ma'noli ibora, maqol, matal, hikmatli so'z, qo'shiq, she'r yoki o'zga bir manbadan olingan parcha. Jahon adabiyotida E. 15-asr boshlarida paydo bo'lgan. 19-asr romantiklari asarlarida ham E. ko'p uchraydi. J. Russo, A. Stendal, I. Gyote, F. Shiller, A. Pushkin, M. Lermontov, N. Gogol, L. Tolstoy, shuningdek, o'zbek adabiyotida G. Gulom, A. Qahhor, O. Muxtor va boshqalar E. san'atidan mohirona foydalanganlar. E. iqtibos yoki ko'chirmaning barcha xususiyatlariga ega bo'lib, asosiy matnga o'ziga xos kirish vazifasini o'taydi. Ularsiz ba'zan badiiy asarning mohiyatini anglash mumkin bo'lmay qoladi² "

² Urush odamlari: qissalar. Nazar Eshonqul. -Toshkent: Yangi nashr, 2019.

² H.Umurov. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. 102-bet.

Biz bilamizki, XX asrda ijod qilgan yozuvchilarimiz ijodida epigراف tanlash maxorati asarning mohiyatini ochib berishning eng samarali usullaridan biri hisoblangan.

O'tgan davr adabiyotida Abdulla Qahhor, Said Ahmad kabi ijodkorlarimiz o'z asarlarida ko'p bora epigraflardan foydalanishgan.

Ayniqsa "so'z zargari", ustoz adib Abdulla Qahhor ijodining o'ziga xos uslublaridan biri ayni epigراف tanlash mahoratidir. Yozuvchining "Bemor" hikoyasidagi "Osmon yiroq yer qattiq", "O'g'ri" hikoyasidagi "Otning o'limi itning bayrami" epigraflari asar mazmun-mohiyatini ochib berishda, o'sha davr muhitini jonli gavdalandirishda o'ziga xos kalit vazifasini bajarib bergan.

Istiqlol davri adabiyotida ham ustoz adiblarimizning qalamini yerga tushirmay, ularning an'analarini baholi qudrat davom ettirib kelayotgan iste'dodli yozuvchilarimiz bor. Shunday novator ijodkorlardan biri Nazar Eshonquldir.

Adibning bir qator asarlarida bir-biridan ajoyib epigraflarga duch kelamiz.

Adib o'z asarlariga epigرافni shunday ustalik bilan tanlaydiki, bu asardan olingan zavqni yanada kuchayishiga, undan paydo bo'lgan mohiyatni, mazmunni yanada oydin tasavvur qilishga yordam beradi.

Masalan, "Urush odamlari" qissasida keltirilgan ushbu epigرافga e'tibor qaratamiz:

"Men katta bo'lsam, miltiq sotib olaman".

"Miltiqni nima qilasan?.."

"Otamni otaman!!!² "

Ushbu epigراف asarga nima sababdan tanlangan ekan deb o'ylay boshlashimiz tabiiy hol, albatta. Ammo asar voqealari bilan sekin-asta tanishib chiqqach, yozuvchi bejizga bu so'zlarni o'z qissasining epigrafi sifatida ishlatmaganini o'quvchi his qiladi, his qilibgina qolmay bu epigراف ayni vaqtda kimning tilidan ham aytilayotgani oydinlashadi.

² Oxunjon Safarov. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Musiqa nashriyoti. Toshkent: .2010. 57-bet

Ushbu so'zlarni aytayotgan asar qahramoni, balki, Normatning farzandi Xolmatdir?

Balki, bu urushdan majruh bo'lib qaytgan Normatlarning jigargo'shasi Xolmatlardir?

...

Asar Normatning urushda bir oyog'idan ajralib Tersota qishlog'iga kirib kelishi bilan boshlanadi. Uni bunday holatda qishloqdoshlari juda ham oddiy qabul qiladi, chunki hamma bunday holatlarga allaqachon ko'nikib qolgan, urushdan majruh bo'lib kelish ular uchun yangilik emas edi. Uning kelganidan hamma xursand, hamma shodon, go'yoki bir necha soatga urush va u keltirayotgan balolarni unutib quvnoq oldingi turmush tarzlariga, odatiy hayotga qaytishgandek rosa bayram qilishdi. Hamma o'z g'amini unutgandi, ammo ..Anzirat

U qovog'ini ochmasdi, Normatning kelishi go'yo unga malol kelgandek. Ahir Normatdan bir yil oldin qoraxat kelmagan edimi?

Qishloqdagi kolxoz raisi Mirzaqul nomardlik qildi, Normatdan qoraxat kelgach uning xotini Anziratni yo'ldan urdi. Anzirat esa qilgan gunohlaridan boshida qiynalgan bo'lsa-da, ammo ...keyin bularni unutib ham yubordi.

Xullas, Normat qaytib kelganidan so'ng katta maqsadlar, katta orzular bilan yangi hayot boshlayman, urushda to'kkan qonlarimni yuvaman, dalaga chiqib mehnat qilaman, hech kim och qolmaydi degan umidda edi. Ammo bir kuni xotini Anziratning homilador ekanligi oydinlashib qoldi. Butun xalq oldida Anzirat ham Normat ham, ularning bolalari ham bsoh ko'tarib yurolmay qolishdi.

Asar oxirida Normat urushga ketish oldidan uyiga Anzirat bilan xayrlashgani kelgan Mirzaqulni, xotini Anziratni otib tashladi. O'zini esa Buxorqoyadan pastga tashlab halok bo'ldi. Urush o'z nomi bilan urush, unga doim qurbonlar kerak. Yosh Xolmat onasini o'z otasi o'ldirganini bilardi. Balki, aynan shuning uchun ham muallif bola tilidan ushbu epigrafni tanlagandir.

Ahir bu dunyoda ming-minglab Normatlar-u, ularning farzandlari Xolmatlar va Mirzaquldek iflos raislar ham bor.

Yozuvchining juda ko'p asarlarida, qissa, hikoyalarida o'zining biqiq muhitiga tushib qolgan, ruhan ezilgan, o'zi yashab turgan jamiyatga nisbatan e'tiqodini yo'qotgan kishilar tasviri beriladi.

Jumladan, "Qora kitob" qissasida ham o'zi tanlagan yo'lni haq deb bilgan, ammo oxirida shunisi aniq bo'ladiki, qahramon tanlagan yo'l nafaqat o'zini, balki eng yaqin kishilarining ham hayotini zaxar-zaqqumga aylantirgan.

Ijodkor "Qora kitob" qissasida o'zining psixologik tasavvur olami qanchalar boy ekanligini yana bir marotaba isbot etdi. "Qora kitob" qissasida insonning o'zi bilan o'zining kurashi aks etgan. Insonning o'zi bilan kurashi esa eng qiyin kurash. Ijodkor ushbu asarida ramzlar vositasida badiiylikni go'zal tarzda ifoda eta olgan. Ijodkorning dastlabki qissalari bo'lmish "Urush odamlari" va "Momoqo'shiq" qissalarida realizm unsurlari yetakchilik qilsa, "Qora kitob" va "Tun panjaralari" qissalarida esa badiiy psixologizm unsurlari yetakchilik qiladi.

Ijodkor dastlabki asarlaridagi obrazlarda haqiqiy hayotni oddiy shaklda, hammaga tushunarli qilib ifodalagan bo'lsa, keyingi asarlarida uning asarlarida ong osti tasviri, real hayotdan qochib, real hayotni ramzlar vositasida ifoda etish aks eta boshladi.

Masalan, "Urush odamlari" qissasida urushdan qaytgan oddiy odamning g'am-anduhlari, quvonchi, chekkan iztiroblari va urushning insonlar hayotida qoldirgan azob-u alamlarini birgina kichkina Tersota qishlog'i kishilari misolida kitob shakliga jam etgan bo'lsa, "Momoqo'shiq" qissasida o'zligini unuta boshlagan, oyog'i yerdan uzilgan, shan-u shavkatga o'ch bir yozuvchining o'zidan boshqa barchani hayvonlashib ketgan deb o'ylashi va ularni odam qilish kerak, tuzatish kerak degan o'ylari, ammo asar oxirida bundan chekkan iztiroblari aks etgan.

"Ijodkorning keyinroq yaratgan "Qora kitob" va "Tun panjaralari" qissalarida esa butunlay uslubning yangilanganligini ko'rishimiz mumkin² ".

Xo'sh, bu nimalarda ko'zga tashlanadi?

Birinchidan, bu o'zgarish ijodkor laboratoriyasi bilan bog'liq, ijodkorning fikr-kechinmalari, aqliy salohiyati butunlay o'zgardi. Ijodkor sharq adabiyoti ildizlari aks etgan g'arb modernizmiga murojaat qila boshladi.

Ikkinchidan, avvalgi qissalarida an'anaviy syujet yo'nalishidan borilgan bo'lsa, endilikda ijodkor qissalarida noan'anaviy yondashuvni kuzatishimiz mumkin.

Uchinchidan, dastlabki qissalarida ijodkorning xulosalari dadil emasdek taassurot qoldiradi hamda asarning kulminatsion nuqtasi jo'nroq ko'rinadi, ammo keyingi qissalarida xulosalar juda dadil hamda ifoda yo'sini ham ancha pishiq.

To'rtinchidan, ijodkorning dastlabki ikki qissasi ifoda maromida badiiyat hodisalarini dialoglar vositasida ochib berishga harakat qilingan bo'lsa, "Qora kitob" hamda "Tun panjaralari" qissalarida roviy tilidan bayon etiladiki, bu ham o'zbek adabiyotiga an'analarimiz qaytayotganidan dalolatdir.

Beshinchidan, "Momoqo'shiq" hamda "Urush odamlari" qissalarida qishloq va qishloq kishilari tasviri, ularning kechinmalari, muammolari tasviriga keng o'rin berilgan bo'lsa, "Qora kitob" hamda "Tun panjaralari" qissalarida inson qalbi va kechinmalari asosiy planga chiqqanini kuzatishimiz mumkin.

Oltinchidan, yozuvchining dastlabki ikki qissasida bayon uslubi asosiy o'ringa chiqqan va o'quvchining anglab olishi, tushunishi ancha oson bo'lsa, keyingi qissalarida ifoda yo'sini butunlay o'zgardi, endi kitobxon ushbu asarlarni tushunish uchun mehnat qilishi kerak bo'lib qoldi, ya'ni qisqa qilib aytganda dastlabki qissalar barcha uchun yozilgan bo'lsa, navbatdagi qissalar adabiyot "elita"si uchun yozildi.

Yettinchidan, davr ham o'zgardi, dastlabki asarlar yaratilgan davrlar bilan keyingi qissalar yaratilgan davrlar tafovuti ham, balki ijodkor hissiyotlariga ta'sir ko'rsatgandir.

Yozuvchining yana bir uslublaridan biri bu -ranglar ramzi, musiqa, ohang

usullaridan keng foydalanishida ko'rinadi. Masalan, ijodkorning "Qora kitob" qissasi nomlanishiga diqqatimizni qaratsak, bu yerda ijodkor bekorga qora sifatini kitobga nisbatan qo'llamaganligining guvohi bo'lamiz.

Biz bilamizki, "xalq og'zaki ijodiyoti mif va ertaklarda «Qora» rang yovuzlik, qabohat, qorong'ulik, yo'qlik saltanati deb ta'riflanadi. Ularda uchraydigan «Qora dev», «Qora botir» kabi timsollar qabohat va jaholatning eng tuban ko'rinishi mujassam bo'lgan obrazlarga nisbatan ishlatiladi²". N.Eshonqul qissasida ham «Qora» so'ziga ko'proq urg'u berilishi o'sha "hammaga ibrat bo'ladigan", "yorug' manzillarga boshlaydigan" kitobning zulmatga chulg'angan, jaholat yashiringan, tuban kitob ekanligiga ishora bo'lsa ajabmas.

Shuningdek, ijodkorning "Qora kitob" va "Tun panjaralari" qissalaridagi shayton obraziga e'tibor qilsak, ularning farqli ekanligini kuzatishimiz mumkin bo'ladi. "Qora kitob" dagi cho'qqisoqol obrazi orqali shayton ramzi berilishi "Tun panjaralari"dan mutlaqo farq qiladi. "Qora kitob"dagi shayton obrazi mukammalroq ishlangan desak, also adashmaymiz, chunki "Tun panjaralari" da shayton tashqarida edi, unga bo'ysunmaslik, yoki mutlaqo uning aytganini qilmaslik mumkin edi, ammo "Qora kitob"dagi shayton insonning jannatdan uzilishiga sabab bo'lgan uning qonida ming yillar davomida oqib kelayotgan, barcha sitamlarga sababchi bo'lgan shayton edi.

"Qora kitob" qissasida insoniyatni yo'ldan chiqarishga urinayotgan, ozgina bo'lsa-da iymon ne'matidan bebahra bo'lgan qalblarga tezkorlik bilan yetib boradigan va ularning butun borliqlarini yanada chuqurroq zabt etadigan shayton timsolidagi nafs bo'lsa, "Tun panjaralari" da butunlay o'zga qiyofada, dumli va bu dumni bemalol sezsa bo'ladigan, juda katta kuch-qudratga ega bo'lmagan, kimgadir bo'ysunadigan shayton obrazi ishtirok etgan. Yozuvchining "Qora kitob" idagi obraz mukammalroq ko'rinishga ega deb bemalol aytishimiz mumkin.

Shu bilan birga qissalarda musiqa ohanglariga, qo'shiq ohanglariga ham alohida badiiyatni ochib beruvchi vosita sifatida qarashimiz mumkin bo'ladiki, bu

ham N. Eshonqul ijodining o'ziga xos ko'rinishlaridan biri deb bimalol aytishimiz mumkin.

"Qora kitob" qissasida kichik o'g'ilning musiqa yaratgani va bu musiqani birorta ham uskunalarsiz yaratganini aytadi va otasini hamda singlisini bu xonaga taklif etadi.

"Bu rostdan ham Betxoven edi, to'g'rirog'i, uning "yettinchi simfoniyasi"ning notalari edi, o'g'lim miltiq, qamchi va odam ingroqlarini yig'ib shu notaga qo'yib chiqqan edi. Birdan o'g'limning asl niyatini anglab qoldim. U o'zining "qo'rquv musiqa"sini o'limni, zo'rlikni anglatuvchi tovushlar evaziga qurgan edi va bu tovushlarni san'at deb atayotgandi²". Ushbu olingan parchada shu haqda so'z yuritishimiz mumkinki, ijodkor uslubi haqida gap ketgan ko'plab asarlarida ruhan siqilgan, hayot ezib tashlagan insonlar obrazini gavdalantirishini ham sezishimiz qiyin emas. "Qora kitob" qissasida ham hayotdan charchagan, butun jismi ruhan azoblangan, bundan o'lar holatga yetgan insonning azoblari aks etgan. Aynan musiqa ham o'lim musiqasi edi, unda hayotni yanada so'ndirishga, uni yanada azob va qiynoqlar bilan to'ldirishga urinish mavjud edi. Ammo yozuvchining ijodida qo'shiq va musiqa ohangi faqat hayotdan bezdirish vositasi deb biryozlama fikrlash, albatta, xato bo'lgan bo'lardi. Yozuvchining an'anaviy qissalari "Momoqo'shiq" va "Urush odamlari" qissalarida ijodkor musiqa ohanglari vositasida butunlay boshqa, "Qora kitob"dagidan farqli bo'lgan holatni gavdalantirish uchun ishlatgan.

"Bo'ston momo qaydandir yoriq childirma toptiirb kelib, taraq-turuq qilib, sho'x-sho'x chalib, miskin-u sho'x ohangda qo'shiq boshlab yubordi:

Shaftolining tagida,
Shamollagan qaynonam.
Ko'p xotinning ichida
Jomonnagan qaynonam.

Erkaklar unga nag'ma qilib qiyqirib qo'ydilar. Keldiyor so'pi shu yil shaharga tushib o'rganib kelgan hushtagini chaldi: "Oh-ha-ha-hay, hushshsht". Tersotaliklar to'rt yil davomida xursandchilik qilishmaganini va to'rt odam bir yerga yig'ilib

suhbat qurmaganinin endi eslab qolishganday alamlaridan chiqquncha xursandchilik qilishadigandek shashtlari bor edi² ".

Ushbu olingan parchada xalq termalari kuylanishida ham o'zgacha bir uslubning guvohiga aylanamiz, ijodkorning ko'plab asarlarida xalq og'zaki ijodi an'alariga murojaat qilinganini ko'ramiz. Bu parchada ham xalqning urushdan zada bo'lgan qalbini biroz bo'lsa-da unutishga, quvonchli kunlar damini unutib qo'ymaslik uchun odamlar hatto o'z alamlarini, chekkan qayg'u iztiroblarini biroz bo'lsa-da unutishga o'zlarida kuch topishga urinishlari, g'am-alamga to'lgan turli qalblar o'zlarini bir zum, aqalli bir nafas xursand qilishga urinishlari, bir birining gaplariga sharaqlab kulishlari aks etgan.

"Momoqo'shiq" qissasi esa butunlay musiqa tufayli shakllanadi desak, adashmaymiz.

Qishloqqa paxta terimiga kelgan bir qancha ijodkorlar aylanib yurishib bir uy oldidan chiqib qoladi, u yerda esa "qandaydir qiz qo'shiq aytardi. Qizning ovozi tiniq, xatto juda tiniq, ta'sirchan, shirali va maroqli edi. U qo'shiqning eng yuqori pardasini ham qiynalmay, zo'rlanmay, tabiiy va samimiy kuylardi... Bu juda gozal manzara edi, buni faqat usta rassomlarning suratlaridagina ko'rish mumkin, biroq eng zo'r musavvir ham uning qo'shig'iga bo'yoq topolmagan bo'lardi. Qizning ovozida bani dunyo o'zaro uyg'unlashib jaranglar, go'yo xayol ham, go'zallik ham, orzu ham qizning qiyofasiga kirib qo'shiq aytardi. Qo'shiqni tinglayotgan odam bahorni, yasharish faslini, sollanib turgan gullarni, shabadadan to'kilay-to'kilay deyayotgan qizg'aldog' bargidagi shudringni, tuman qoplab olgan bog'ni, varrak uchirayotgan bolalarni, yuksak-yuksaklarda parvoz qilayotgan, jilvalanayotgan bolalik xayolini ko'z oldiga keltirish mumkin edi. Bolalik kabi gozal, tiniq va orzumand bu ovoz quyoshning issiq taftidek o'z ohangi bilan odamni eritib yuborar, ko'ngilga yoqimli shabadaday esib kirardi...³ "

Ushbu parchada Muazzamning qo'shiq xirgoyi qilishi va Shamsi Salohning bu qo'shiqdan cheksiz hayrat ummoniga g'arq bo'lishi tasvirlangan. Asarning

³ E.Xudoyberdiyev. Adabiyotshunoslikka kirish.-T.: O'qituvchi, 1995. 46-bet

voqealar rivoji aynan mana shu yerdan qo'shiq eshitilgan paytdan boshlanadi.

Ushbu qissalardan olingan parchalardan shunday xulosaga kelish mumkinki, qo'shiq, ohang, musiqa yozuvchi ijodining bir qismiga aylanib ulgurgan. Ijodkor bulardan o'z badiiy maqsadini amalgam oshirish uchun o'z asarlarida xoh u, xoh bu tarzda bo'lsa-da foydalanadi.

Ijodkorning badiiy uslublaridan yana biri bu asarning til xususiyatlarida ko'rinadi.

Ammo til xususiyatlariga kengroq planda to'xtalib o'tolmaymiz, chunki bu xususiyat butun bir dissertatsiya mavzusi bo'la olishi mumkin. Ijodkorning Tersota qishlog'ida tug'ilganini hisobga olsak, asarlarining o'zida ham voha shamoli esa boshlaydi, ijodkor qandaydir asar yaratar ekan, ushbu asarga o'z menidan bir qismini, albatta, bag'ishlaydi. Ijodkorning tarjimayi holi bilan tanishib chiqar ekanman, u yashayotgan joylar, u yerdagi aholi, bolaligida ko'rgan insonlar, qiyinchiliklar, ikki nafar farzandi bilan beva qolgan momosi -bularning barchasi aynan ijodkorning asarlarida qayta bo'y ko'rsatgandek bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tishim lozimki, har bir obrazni alohida sifatlari bilan chizish, ularga xos nom tanlash ijodkor laboratoriyasidan chiqqan yaxshi namunalardir. Keldiyor so'pi, Biydi momo, cho'qqi soqol, Shamsi Saloh, Normat polvon -ushbu obrazlar zamonaviy adabiyotimizning bir bo'lagiga aylanib ulgurdi desak aslo mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Ijodkor Biydi momo obraziga to'xtalar ekan, aynan o'zining ikki nafar yetim farzandini ming mashaqqatlar bilan katta qilgan va qiyinchiliklarga sabr bilan bardosh bergan momosi Maslig' momoni eslagandek bo'ladi. Ammo biroz obrazlilik, qahramonni boyitish, yanada unga badiiy tus berish ijodkorning qarashlarini biroz o'zgartirishga ham sabab bo'ladi.

2.2. Qissalarda obraz va xarakterlar talqini

Qissa janri hikoyaga nisbatan badiiy fikr harakati uchun keng imkon beradi. Ana shu imkoniyatdan foydalangan yozuvchilar inson fojiasining yangicha badiiy talqinini yaratishga erishmoqdalar.

"Qissa epik tur janrlari orasida imkoniyatlari hikoyaga qaraganda kengligi, shaklining rang-barangligi, mazmunining koʻlamdorligi bilan ham ajralib turadi. Mana shu xususiyatlariga koʻra bu janrni ummonga qiyoslash mumkin. Badiiyat olami esa kashfiyotlar manbaidir.

Xususan, mustaqillik davrida koʻplab ijodkorlar qissachilik janrida barkamol ijod qilmoqdalar: Sh. Boʻtaev, M. Boboev, X. Doʻstmuhammad, N. Norqobilov, Sh. Hamro, N. Eshonqul yaratgan asarlar kitobxonlar eʼtiborini jalb qildi³". Chunki, bugungi adabiyot - alohida, ayni chogʻda turli-tuman shaxslarning tuygʻlari, qiyofalari aks etgan adabiyot sifatida qad rostlagan. Zamondoshimizning oʻzi - alohida, betakror va yaratuvchi inson. Shu ma'noda, zamondoshimizni oʻz shaxsiyatining elchisi, deyish mumkin.

Mustaqillik davri oʻzbek qissalarida oʻzbekning oʻziga xos tabiatini, koʻnglidagi sezimlar va mayllarini aks ettirishga intilishning kuchayganligi ham kitobxon eʼtiboridan chetda qolmayapti. Bunday oʻziga xoslik qahramon ruhiyati timsolida uning surati va siyrati orqali tasvirlanmoqda, bunday uslub tasvirning teranligini, badiiy nigohning oʻtkirlikini taqozo etmoqda.

"Mustaqillik yillarida yaratilgan oʻzbek qissalariga xos yetakchi tamoyillaridan yana biri bu an'anaviy realizm yoʻnalishidan bir oz farq qiluvchi ijtimoiy hayot oqimining shaxs tabiati, ruhiyatiga taʼsirini badiiy tadqiq va tahlil qilishdagi yangicha yondashuv orqali namoyon boʻlmoqda³". Yozuvchilar ijtimoiy hayot muammolari yoki ma'naviy-axloqiy yo maishiy hayotga oid muammolarni koʻtarib, ularning inson hayotiga, ruhiyatiga taʼsirini badiiy tadqiq etishdan koʻra odamlar qismatining fojeiy nuqtalarini tadqiq qilishga bor imkoniyatlarini safarbar etayotirlar va oʻziga xos badiiy kashfiyotlar

³ Eshonqul N. Ufq ortidagi quyosh. Qissalar. "Momoqo shiq" / Toʻplam. . -T ., 1994. -29-30-betlar

³ Eshonqul N. Ufq ortidagi quyosh. Qissalar. "Momoqo'shiq" / Toʻplam. . -T ., 1994. -35-bet

yaratmoqdalar.

Yozuvchi Nazar Eshonqulning "Momoqo shiq" qissasi qahramoni Muazzam kitobxonda aynan shunday tasavvur uyg'otadi. Qishloqqa paxta terimi hashariga kelgan bir guruh "san'at ahli" daraxtzorlar oralab aylanib yurib, qamish chayla qarshisidan chiqib qolishadi. "Chayla bilan daraxtzor oralig' i yigirma qadam ham chiqmas, supada ularga orqa o'girib, so'fa sitgancha qandaydir qiz qo'shiq aytardi. Qizning ovozi tiniq, hatto juda tiniq, ta'sirchan, shirali va maroqli edi. U qo'shiqning eng yuqori pardasini ham qiynalmay, zo'rflanmay, tabiiy va samimiy kuylardi... Bu juda go'zal manzara edi, buni faqat usta rassomlarning suratlaridagina ko'rish mumkin, biroq eng zo'r musavvir ham uning qo'shig'iga bo'yoq topolmagan bo'lardi. Qizning ovozida bani dunyo o'zaro uyg'unlashib jaranglar, go'yo xayol ham, go'zallik ham, orzu ham qizning qiyofasiga kirib qo'shiq aytardi. Qo'shiqni tinglayotgan odam bahorni, yasharish faslini, sollanib turgan gullarni, shabadadan to'kilay-to'kilay deyayotgan qizg'aldoq bargidagi shudringni, tuman qoplab olgan bog'ni, varrak uchirayotgan bolalarni, yuksak-yuksaklarda parvoz qilayotgan, jilvalanayotgan bolalik xayolini ko'z oldiga keltirish mumkin edi. Bolalik kabi go'zal, tiniq va orzumand bu ovoz quyoshning issiq taftidek o'z ohangi bilan odamni eritib yuborar, ko'ngilga yoqimli shabadaday esib kirardi...³ "

Ana shu tuyg'ularni his qilgan Shamsi Saloh tund, biroz oliftaroq, jimjima narsaga o'ch, biroz kibrliroq, hamma narsaning go'zal bo'lishini istovchi va hamisha shunga intiluvchi, hashamli va jilvali narsalarni sevuvchi, har bir manzaraning nihoyatda zebo tomonlarini ko'ra oluvchi, nafis tashbehlarga ustasi farang, yashashi va kiyinishida ham o'fa ziyolilik barq urib turuvchi kishi edi; u hayotga ham, tevarak-atrofga ham mana shu ziyolilik "ko'zoynagi" bilan qarardi. U Muazzamni uch kundan so'ng o'sha qamish chayla oldida uchratdi.

Yozuvchi Muazzam bilan kitobxonni quyidagicha tanishtiradi: "... u endigina yigirma birga kirgan, muallimlar bilim yurtini tugatgan, lekin orada bola

³ Eshonqul N. Ufq ortidagi quyosh. Qissalar. "Momoqo'shiq" / To'plam. . -T ., 1994. -37-bet

bo lib qolgani va Otaqulni sovxozning chekkasiga brigadir qilib tayinlanganliklari uchun ishga oʻrnasha olmagan, mana ikki yildan beri olti-yetti oyi shu yerda, koʻimsiz chaylada oʻtar edi. U bir oz mustarlikka moyil, ta'sirchan, ancha ziyrak kelinchak edi. Otaqul haftalab uyiga bormay, shiyponda yotib qolavergach, issiq-sovugʻidan xabar olib turish uchun u maktabda dars berish istagini ham tashlab, mana shu chaylaga koʻchib kelgan edi. Bu yil bolasi uch yashar bo lib qolgani tufayli uni qishloqqa, qaynonasining qoʻliga tashlab kelgan, oʻzi esa eri bilan besh oydan beri dalada edi.

Xoʻsh, u haqda yana nima deyish mumkin, darvoqe, u rostdan ham juda suluv edi³". Muazzamning suluvligini qayta-qayta ta'kidlagan yozuvchi "u suluv juvonlarga ato etiladigan barcha fazilatga ega edi - oʻta sodda va koʻngli boʻsh edi, vujudidan qishloq kesagining isi kelib turardi",- deya ta'rif-u tavsifni tugatgan. Ammo "vujudidan qishloq kesagining isi kelib turishi" muallifning suluv juvon haqidagi avvalgi nozik ta'riflarini bir qadar dagʻallashtirmaydimi? Agar chuqurroq fikr qilinsa, bu oʻrinda yozuvchi ayolning suluvligi ustiga undan ona zamin isi kelib turishi yanada yoqimli, tarovatli kayfiyat uygʻotishini, bilaks, suluvlik mohiyatini ham ayolning ayni ona zamin isi-yu ranglariga mos tabiiy goʻzalligi tashkil etishini ta'kidlash maqsadida qoʻllaganligiga amin boʻlamiz.

"Afsuski, choʻkayotgan tun, qizargan shafaq, churalay aytib, sigir sogʻayotgan suluv ayol, dala uzra yugurib yurgan kuzgi shabada... bular hammasi naqadar uygʻun, naqadar goʻzal va betakror ediki, ammo Shamsi Saloh bularning bariga yot, begona odam edi. Shu bois Momo qoʻshiq ham, bu manzara, atrofdagi tabiiy goʻzallik - bari uniki emas edi, uning tasavvuriga zid oʻta joʻh va sodda, ayni chogʻda goʻzal edi!³" Shamsi Saloh uni hayratga solgan goʻzallik ana shu joʻhlik, soddalik, samimiylikka uygʻun ekanini idrok eta olmaydi. Muazzam uning nazarida boshqa dunyo va boshqa hayot uchun tugʻilganday edi. "Chaylada hamma narsa betartib sochilib yotar, u odam yashaydigan joydan koʻra koʻproq tovuq katagiga oʻxshardi, bu yerda hamma narsa qoʻpol, koʻimsiz, xunuk edi³".

³ Eshonqul N. Ufq ortidagi quyosh. Qissalar. "Momoqo'shiq" / To'plam. . -T ., 1994. -40-bet

³ Eshonqul N. Ufq ortidagi quyosh. Qissalar. "Momoqo'shiq" / To'plam. . -T ., 1994. -38-bet

U mana shu qora turmushning baxtsiz asoratini izlab Muazzamning ko'zlariga tikildi, biroq bu ko'zlar Shamsi Salohga noma'lum bo'lgan baxtdan yayrab turar, o'zidan baxtsizlik izlayotgan sovuq ko'zlarga yal-yal yashnab boqardi. Shamsi Saloh qanchalik urinmasin, bu ko'zlarning sirlarini anglay olmadi, bu juvon nigohlari ortidagi baxtsizlik alomatlarining asl sabablarini idrok eta olmadi. "U o'z baxtsizligini odamlardan ustalik bilan yashirishga urinyapti", - deb o'yladi. "Ha, u baxtsiz, ammo unga bu og'ir va zahmatli sharoitdan qutilib, o'z baxtini topish yo'lini ko'rsatish kerak³" - deb o'yladi va Muazzamni shaharga olib ketish rejalarini tuzdi. Go'yo bu ayolning chinakam baxtga erishishida Shamsi Saloh kabi tushungan, qo'li uzun, san'atni, iste'dodni qadriga yetadigan homiy zarurday.

"- Men sizni o'qitish uchun hamma narsani gaplashib qo'ydim. Siz faqat borsangiz bo'ldi - qo'lingizni sovuq suvga urmaysiz. Faqat ovozingizni parvarish qilish bilan mashg'ul bo'lasiz; o'qiysiz, o'rganasiz, eng muhimi - yaxshi, bilimdon, dardi katta odamlar ichida bo'lasiz... Bu yerda esa - mana bu dala, mana bu paxta, mana bu chang-g'ubor, anavi chayla, chivinlar, sassiq suv, isqirt qozon, har yili oldi-keti o'ylanmay tug'llaveradigan kasalvand va chuvrindi bolalar, johil odamlar, tappilar, tezaklar orasida xor bo'lasiz. Bu yerda na ilmu fanni, na san'atni, na qo'shiqni tushunishadi; hammalari ota bobolaridan qolgan kataklarda itday turmush kechirishadi. Bu yerda xor-zor bo'lasiz³".

Shamsi Saloh qishloqdan chiqib kelganiga, o'zining ham ildizi qishloq odamlariga borib taqalishini, bir so'z bilan aytganda asl o'zligini unutib qo'ygandi. O'zligini shu darajada unutish darajasiga yetgandiki, u qishloqdagi insonlarni xuddi itday turmush kechiradi deb hisoblardi. Ammo mana shu qishloq uni e'zozlard, uni to'ylarga taklif qilardi. Uning e'tiborini qozonishga harakat qilishardi.

Muazzam uning bu gaplariga shunday javob beradi:

³ Eshonqul N. Ufq ortidagi quyosh. Qissalar. "Momoqo'shiq" / To'plam. . -T ., 1994. -o'sha bet.

³ Eshonqul N. Ufq ortidagi quyosh. Qissalar. "Momoqo'shiq" / To'plam. . -T ., 1994. -o'sha bet.

³ Eshonqul N. Ufq ortidagi quyosh. Qissalar. "Momoqo'shiq" / To'plam. . -T ., 1994. -39-bet

- Meni kechiring, sizni ancha urintirdim... Bizning ham yelkamizga bir kun oftob tegar, biz o'qimasak, bolalarimiz o'qir, har qalay, hamisha shunday qoloq bo'lib qolmasmiz. Agar qo'lingizdan kelsa, ana qishlog'imizda qancha baxtiqaro ayollar bor, o'shalarga yordam bering... Mening ildizim shu yerda! Shu odamlar orasida, men boshqa joyda ko'karmayman³ ".

"Momoqo'shiq" qissasidagi eng yorqin obraz bu -albatta, Muazzam obrazidir. Asar boshida butunlay boshqacha ko'ringan Muazzam asar oxiriga yetgani sayin butunlay o'zgarib boradi, uning fikrlari ham o'zi ham o'zgarib boradi. Uning o'zgarishi asarning yana bir qahramoni Shamsi Salohning ham o'zgarishiga zamin hozirlaydi. Muallif ko'p holatlarda o'z nuqtayi nazarini bildirishda Muazzam obrazidan foydalangan. Shamsi Saloh Muazzamning ushbu fikrlaridan keyin, fikrlash tarzi, qishloq odamlari va ularning ahvollari haqida tasavvuri butunlay o'zgaradi.

"Shamsi Saloh bu ayolni eridan, tug'ilgandan beri yashab kelayotgan, johilligi-yu qoloqligi bilan birga qadrdon bo'lib qolgan odamlardan, hatto har bir kesagigacha oyog'ining hidiga o'tnashib ketgan bu dalalardan ajratib bo'lmashligini ich-ichidan his qildi. Qarshisidagi yig'ilayotgan ayolga o'xshash bepoyon dalalar bilan shu ayol o'tasida qandaydir, o'zi tushunmaydigan mutanosiblik borligini his etdi; o'zining quruq, balandparvoz, puch gaplari bilan Muazzamlar hayotini, yurt tashvishlarini yengillashtira olmasligini ichdan tan oldi, bo'lg'ini achishdi, oddiygina haqiqatni anglaganday bo'ldi: bog' ko'rkam va so'lim bo'lishi uchun bitta daraxtni emas, butun bog'ni obod qilish kerak!⁴ " Ana shu badiiy umumlashma Muazzam va Shamsi Saloh obrazlarining o'ziga xos badiiy talqini vositasida yaratilgan. Binobarin, san'at va adabiyot ravnaqini belgilovchi asosiy estetik tamoyillaridan biri - hayot hodisalari va inson shaxsini yangi tomonlardan kashf etish hisoblanadi. "Momoqo'shiq"dagi qahramonlar faqat shu jihati bilangina diqqatga sazovor emas, balki asarda qalamga olingan manzaralar, xilma-xil odamlar beixtiyor yozuvchi tug'ilib o'tgan makon haqida, u

³ Urush odamlari: qissalar. Nazar Eshonqul. -Toshkent: Yangi nashr, 2019. -bet

⁴ Urush odamlari: qissalar. Nazar Eshonqul. -Toshkent: Yangi nashr, 2019. -bet

yerning bag'ri keng, dag'al, ammo sodda va samimiy odamlari haqida to'la tasavvur beradi, qishloq manzaralari ham mahorat bilan gavdalantiriladiki, kitobxon beixtiyor o'zini ona zaminning ajralmas bo'lagi ekanini anglab boradi.

Nazar Eshonqulning "Urush odamlari" qissasidagi voqealar qirq to'rtinchi yil dekabrining boshlarida Normat polvonning bir oyog'idan ayrilib urushdan qaytishi haqidagi xabar bilan boshlanadi.

Yozuvchi Normat polvonning qiyofasini quyidagicha gavdalantirgan: "Normat polvonni ko'rish uchun kelgan qishloqdoshlari o'zlari tasavvur qilgan norg'ul, barvasta, umrida olishib ko'rmagan, lekin suyagi yirik bo'lgani uchun polvon deb nom olgan, qishloqning oldi chavandozlaridan biri, qomatidan kuch yog'ilib turgan, o'ttizdan endi oshgan Normat polvonni emas, ozib, mushaklari shalvirab, bo'yin tomirlarida ajinlar paydo bo'lib, yara izlari qolgan, hali dorilarning badbo'y hidi ketmagan, ko'inishidan elliklardan oshgan, sochlari oqara boshlagan, o'zlari eshitgan urushning tirik guvohini ko'rdilar. Qishloqdoshlari uning yuzidagi zahillikka, kuygan quloqlarining orti ola-kula bo'lib qolgan bo'yinlariga va tez-tez sarak sarak silkinib turadigan boshiga hech ko'rika olmadilar⁴ "

Voqealar tuguni Normatning qishloqdoshlari yuzidagi achinish alomatini his qilishidan va xotinini jimgina kuzatib, undan to'rt yillik ayriliq asoratini ilg'amaganligidan yuzaga keladi. Normatga hamma narsadan ham xotinining tundligi yoqmaydi va bu holatning sababini ruhan izlashga tushadi. Yozuvchi urushli hayotning "qon sachragan" muhitini, ko'ngli bo'sh, soddadil insonlarni diydasi qattiq, yovuzlashgan odamga aylantirgan hayot tarzini birin-ketin kitobxon ko'z o'ngida jonlantira boshlaydi. Oxir-oqibat, ruhan majruh urush odamlari qismati o'zlari kabi ayanchli va fojiali tarzda gavdalanadi.

Yozuvchi voqealar oqimiga mohirlik bilan urushsiz yurt axtargan qo'ng'ir irotliklar haqidagi rivoyatni kiritib o'tganki, bu rivoyat asarga xos epik tafakkur miqyosini ta'minlashga xizmat qilgan. Boyxunning o'limi oldidagi

⁴ Urush odamlari: qissalar. Nazar Eshonqul. -Toshkent: Yangi nashr, 2019.

vasiyati shunday bo'lgan ekan: "Agar urushsiz yurtni topmasalaring, unda aka ukaga, do'st do'stga, xotin erga, odamlar bir-birlariga xiyonat qiladigan, bir-birini aldaydigan bo'lib qoladilar. Qayerda qon oqsa, o'sha yerda xiyonat ko'p sodir bo'ladi, baxt u yerdan yuz o'giradi, odamlar yashash ilmini emas, bir-birini o'ldirish ilmini o'rganib boshlaydilar, suv o'rniga qon ichadigan maxluqqa aylanadilar. Urush - yer yuzidagi hamma ezgu narsani quritadi, sizlarni yer yuzidan supurib tashlaydi, sizlar johil va adashgan urush odamlariga aylanib qolasizlar. Shu sababli sizlar urushsiz yurtni topinglar, urushni oralaringdan haydanglar, totuv yashashga o'rganinglar⁴".

Asar voqealari davomida kitobxon bu hukm-xulosaning qay darajada ulkan hayotiy asosga ega ekanini "urush odamlari" taqdiri misolida anglab yetadi.

Normat Buxor zovlaridan o'tib, qotning ustidagi daraga borganda yam-yashil tog' archalari, tiniq buloq suvi qarshisida tinch hayotga qaytganiga ishondi. "Endi bu tinchligimni hech narsaga alishmayman, xotinimni hech ham o'ksitmayman, odamlarning ko'nglini olaman, mana shu tog'lar hurmati, xotinimni ham, meni intizorlik bilan kutib olgan odamlarni ham boshimda ko'tarib yuraman. Bir umr ularning izzatini qilaman, mening uchun endi urush, qon, o'lim degan narsalar tugadi", - deb o'ylagan edi. Urush azoblari, qon hidi va porox dudlari bezdirgan qalbi tanish ham eski, qadrdon hayotga tashnalik bilan kirib kelayotgan pallada uning do'sti Xotam chavandoz urushdan qochib, tog'da yurgani haqidagi xabar tarqaladi. Rais, Normat polvon va bir necha harbiylar uning izidan tog'tomon ketadilar. Yana urushning qonli panjalari Normat qalbini, nainki qalbi, balki butun borlig'ini, vujudini tilka-pora qiladi. Do'stining ochiq qolgan, dahshat aks etgan ko'zlarini ko'rganda u o'zini tamom unutadi.

Anziratning sovuq muomalasi aslida Normatdan "qora xat" olgan ayol uchun favqulodda, xuddi momoqalldiroqday urushdan qaytib kelgan er oldidagi talmovsirash emas edi. Uning urushdan qaytishi Anziratning hayotida keskin burilish yasadi. U erini xuddi avvalgiday kutib olishga, avvalgiday muomala

⁴ Эшон улН Уруш одамлари – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти 1989. - 29- бет

qilishga qanchalik urinmasin, buni uddasidan chiqolmasdi. Eri kelganda, bolalari otasi bag'iga otilganda bu odam uchun o'zining harom ekanligini, endi o'zi uchun chinakam baxt harom ekanini aniq his qildi. Ammo, bolalarining chuldirashi, uyida erkakning borligi unda yana yashashga ishtiyoq uyg'otdi. Eng dahshatlisi hali oldinda ekanini ko'ngli va ongi bilan anglab tursa-da, muallaq yashashga ko'ndi.

Yozuvchi Anzirat bilan Normat obrazlarini tasvirlashda ruhiyat tahlili va tasvirini o'rinli qo'llagan. Ammo Mirzaqul raisning insoniy qiyofasini ochishda ko'proq bayon qilishga, tavsiflashga, hodisalarni muallif nutqi orqali yoritishga keng o'rin berganki, natijada, uning qalb harakatlarini, ichki dunyosidagi holatlarni to'la his qilib, anglab ololmaymiz.

Asardagi yana bir o'ziga xos obraz - bu Biydi momo hisoblanadi. Momo butun Tersota qishlog'ining kayvoni kampiri, bu qishloqda hech bir narsa uning ishtirokisiz bo'lmasdi. Buxor polvon vafotidan keyin boshiga tushgan musibatlar uni metinday toblagan, qaddini yanada tik qilib qo'ygan edi. Keyingi musibatlar kampirning ana shu adl qomatini bukdi, ammo ruhini bukolmadi. Hayotning adoqsiz musibatlari qoldirgan jarohatlardan qattiqlashgan diydasi alpdoy bahodir o'g'illaridan ayrilganda yana ham qattiqlashdi, aks holda u bu musibatlarni ko'tarolmasdi.

Biydi momo nafaqat oilasining yoki avlodining, balki butun urug'i va qishlog'ining or-nomusi timsoli sifatida gavdalanadi. U barchadan o'z burchini mas'uliyat bilan ado etishni talab qiladi, or-nomusni, vijdonni, azaliy urf-odatlarni har narsadan ustun qo'yadi, ularga o'zi hamisha itoat etadi. Shu bois u Anzirat qilgan gunohni sira kechirmaydi, uning "siri"ni oxirigacha ochishga ahd qiladi, yolg'on mulozamatdan achchiq haqiqatni afzal biladi. Nomus, oriyat, sha'n va g'urur oldida u mehr-shavqat-u kechirim tuyg'ularini yaqiniga ham yo'latmaydi. Normat polvonni esa urush va u keltirgan musibatlar ezib tashlagan, urushdan oldingi oriyatli Normat polvonni sindirib tashlagan edi.

- Menda gaping bormi?! - deb so'radi Biydi momo, uning ostonada qaqqayib turganini ko'rib.

- Ha, nima bo'ldi?..

Normat battar boshini egdi:

- Amma, - dedi siniq ovozda boshini ko'tarmay, - men... men uyga qaytsammi, deb edim... Bo'lar ish bo'ldi... endi nima foyda... shunga bizdi oraga tushib yarashtirib qo'ysangiz.

- A?! - Biydi momo qulog'iga ishonmaganday qaytib so'radi. - qaytasan?! O'sha buzuqining oldiga-ya?! Nima? Oriyat bormi senda... erkakmisan o'zi?!

- Amma! - unga iltijoli tikildi Normat. - Men bolalarimni tirik yetim bo'lib qolishini istamayman... O'sha yoqlardan ham shu qora ko'zlardi deb qaytdim. endi ularning xor bo'lib yurishini istamayman. Qo'ying eski gaplardi. Kelingiz adashgan bo'lsa o'zidan ko'rsin! Xudodan topsin... biroq bolalarda nima ayb?!⁴ " Bu kabi dialoglar orqali ham yozuvchi qahramonlar ruhiyatini butun murakkabligi bilan ifodalashga erishgan.

Ayniqsa, asardagi tabiat tasviri berilgan lavhalar asarga xos epik tafakkur ohangiga o'zgacha yorqin va yoqimli ohanglarni jo'natgan. Mana bir misol: "Nihoyat qo'ng'ir irot eliga bahor kirib keldi. U ming xil noz, ming xil karashma bilan urush odamlarining yuragiga yashash va yasharish ishqini soldi. Ularni erkaladi, sochlarini siladi, adirlarni qip-qizil lolalarga to'ldirdi, butun borliqa go'zallik gilamini yoydi. Qirlarni baxt tillari - maysalar qopladi. Janjalkash, asabiy bo'lib qolgan odamlarning dimog'ini erkaladi, ularni qirlarga yetaklab chiqdi, ko'zlaridan o'tirdi⁴.⁴ Shu o'rinda tabiiy savol ko'ndalang bo'ladi: qanday badiiy maqsadga ko'ra asarning fojiali, alamli voqealari ichida ma'lum to'xtam, "nafas rostlash"ga o'xshash holat paydo qilish uchun bir necha bor bahor manzaralaridan foydalangan? Yozuvchi qahramon dunyosidagi o'zgarishlarni yorqinroq his qildirish maqsadida, ayniqsa, Normatning yuragida, badanida zanglab qolgan urush xotiralarini, jarohatlarini poklashga urinayotganini ramzlashtirib, ta'sirchan tasvirlashga intilganki, so'zsiz buning uddasidan chiqqan.

⁴ Улуова А. Ўзгараётган адабиёт манзаралари// Шарҳ юлдузи –1998. - 4-сон - Б 138-139.

⁴ Эшон улН. М аймун етаклаган одам исса ва икоялар –Т.: Янги аср авлуди 2004. - 48-бет

⁴ Эшон улН. М аймун етаклаган одам исса ва икоялар –Т.: Янги аср авлуди 2004. - 48-49-бетлар

Yana shuni alohida ta'kidlash lozimki, bugungi o'zbek nasrida, xususan, "qissachilikda yozuvchilar she'riyatga va dramaturgiyaga xos ayrim janr unsurlaridan ruhiyat tasviri yoki peyzaj tasvirida foydalanayotirlar". Normat qalbida yashiringan intim tuyg'ularni ochish vositasida yozuvchi "urush odamlari" birikmasining ohang, ko'pma'noliligini ta'minlashga erishgan, ayni chog'da, lirizm unsurlari orqali urush insonlar ruhiyatini qanchalik mayib-majruh etmasin, yaratgan ato etgan insoniy bokira tuyg'ularni o'ldirish va butkul yakson etish mumkin emasligini epiklik talablari asosida haqqoniy tasvirlashga erishgan yozuvchining mahoratidan namuna keltiramiz:

"... yana bahor keladi. Olam bahorning shavqiga to'ladadi. qirlarda xuddi oldingidek urush bilan ishi yo'q, urushdan qo'rqmaydigan lolalar ochiladi. Yer pishadi. Yer yetiladi. Qir-adirlarni chigirtkalar chirillashi uyg'otadi... uxlatadi. Normat yuragidagi hislar qaytadan tirila boshlaganini, o'zida yaratish quvvati paydo bo'layotganini sezdi. Bu - o'sha afsonadagi Yer odamlaridan, bobosi Boyxundan qolgan Yerga bo'lgan muhabbat ekanini og'riq va rohat bilan tuydi. Uning kulfat, azob, iztirob, qo'rquv, shubha va ikkilanish ezib tashlagan qalbida umid uyg'ona boshladi".

Shu tariqa yozuvchi urush nomi bilan anglanadigan yirtqichlik, zulm va yovvoyilik, zulmat va fojia butun dunyosini ag'dar-to'ntar qilib "urush odamlari"ga aylantirgan avvalgi pok, mehnatsevar, g'ururli, oriyatli, mard, insoniylik butun vujudidan barq urib turgan odamlarning urush yanchib tashlagan qismatlarini ruhiy kolliziyalar orqali dramatik shiddat zarbiga monand ohanglar orqali ta'sirchan ifodalashga erishgan. Har qanday sharoitda ham urush odamlari qalbida nobud bo'lgan insoniy tuyg'u - Ona zaminga muhabbat ularni yana hayotga qaytarganini, yashashga, o'zligiga qaytishga chorlaganini haqqoniy tasvirlagan. Asarning bu xususiyatlari epik tafakkur tarzining ko'pohangliligini, badiiy umumlashmalarning salmog'ini tayin etgan.

Ijodkorning, shuningdek, bir qator qissalarida adabiy tafakkur tarzining butunlay o'zgarganligiga guvoh bo'lamiz. Endi bu qissalarda bosh qahramonlar oddiy qishloq odamlari emas, balki ruhan azob chekkan, o'z "men"idan azob

chekkan, butun qalbi bilan savollarga ko'milgan va o'sha savollarga javob izlayotgan insonlardir.

"O'zgarayotgan adabiyotimizning hozirgi holatidan qanoatlanmayotgan Nazar Eshonqulning "Qora kitob" qissasida ana shunday "men"ning erkin namunasi yaratilgan, - deya xulosa beradi A. Ulug'ov o'zining "O'zgarayotgan adabiyot manzaralari" maqolasida, - mazkur asar hodisalarni ramzlashtirish darajasi, inson ishonch-e'tiqodining o'zgarishlar jarayonini obrazli gavdalantirishi, iztirob ichidagi qahramon ruhiy dunyosini ta'sirchan qiyos, chog'ishtirmalar bilan falsafiy tadqiq etishi jihatidan adabiyotimizning o'ziga xos hodisasi sanaladi. Chunki qahramon iqrori, tavba-tazarrusi, izhori sifatida bitilgan ushbu qissa, avvalo, ifoda tarzi, jozibali tili bilan diqqatni jalb qiladi⁴ ".

To'g'ri, asar an'anaviy bayon usulida yozilganday ko'rinadi. Biroq, "Qora kitob", "Tun panjaralari" qissalari, shuningdek, "Xayol tuzog'i", «To'zon», "Lazzat ortida qolgan yurak", "Zulmat saltanatiga sayohat" hikoyalari an'anaviy asarlar singari bir kishi taqdiri tafsilotlari tavsifidan iborat emas. Ular mislsiz azobda o'tanayotgan, bor-bisotidan, o'zligidan ajralgan, dunyoga qo'l siltagan inson ichki olamining so'zda chizilgan suratiday bo'lib ko'rinadi. Bu surat buyuk rassomlar asarlari singari qabariq va ta'sirchandir. Undan o'z xotiralarini yengolgan, taqdir so'qmoqlarida adashgan alamzada odam so'zlab turganday ko'rinadi.

Bu qahramonlar o'zini-o'zi inkor qilgan g'alayonlarning mo'jaz umumlashmasi sanaladi. "Qora kitob" qissasida o'z "men"ini taftish qilayotgan qahramon o'ziga-o'zi... "meni hech kim o'zimdek sud qilolmaydi. Jazo nima u?" degan savol qo'yadi va "Shunchaki rasmiy marosim. Aslida eng oliy jazoni ko'ngilning o'zi chiqaradi⁴ ", - deydi.

Haqiqatan ham inson o'z qilgan aybini, xatosini qalbining tub-tubidan anglab yetsa, unda insonga sud tomonidan berilgan jazoning vijdon oldidagi jazodan o'rin chandon, yuz chandon yengil ekanligini his etadi. Ayni shu jihatni

⁴ Adabiy jarayon. Qo'llanma. Yangi nashr, Toshkent: 2019. 43-bet

⁴ Adabiy jarayon. Qo'llanma. Yangi nashr, Toshkent: 2019. 44-bet

ochishda, hayotning, zamonning turfa o'yinlari, insonning qilmishlari to'g'risida fikr yuritgan mazkur asar alohida ahamiyatga ega.

Asarning sarlavhasiyoq uning badiiy tafakkuriga singishgan ramziy ma'noga urg'u beradi. Odam Ato bilan Momo havoning tavqi-la'natga uchragan naslining hayotini asar qahramoni la'natga mahkum etilganlarning hayot kitobiga o'xshatadi. Ammo u shunchaki hayot kitobi emas, balki "Qora kitob". Yozuvchi kitobning qoraligi ma'nosini yoritishga kirishadi, qahramon o'z hayotini suhbatdoshiga go'yo "o'qib bera boshlaydi".

Qahramon portreti qisqa shtrixlar bilan chiziladi: "... yuzimga qarasangiz, darrov sezasiz, kuygan charm deysiz. Yuzim emas, yuragim kuyib ketgan, kuygan kovushga o'xshab qolgan. O'zim ham misoli g'ijimlab tashlangan qog'ozman. Hayot meni g'ijimlab tashladi, birodar. G'ijimlab-g'ijimlab, so'ng mana shu xiyobonga otib yubordi... Qo'llarimga qarang, kimning qo'llariga o'xshaydi? Qotilning qo'llariga o'xshaydi".

Ko'z o'ngimizda o'z qiyofasini qorong'ulikda namoyon eta boshlagan kimsa gavdalana boshlaydi. Qorong'ulik ichidan go'yo uning cho'ng temirday qora tanasi, yuzlari yanada qorayib, yaltirab ko'rinib turganday... U o'z-o'zini namoyon etishda, o'zligini anglatishda davom etadi: "Qarang, yer hidi kelib qoldi. Men yomg'irdan keyin shu hidni yaxshi ko'raman. Taqsim, kechalari mening tushimga jalalar kirib chiqadi. U oylab, yillab yog'ayotgan bo'ladi - hamma yoq suvga to'lib ketadi, shaharlar sel ostida qoladi, yer yuzi g'arqob bo'ladi. Bu gunoh sellari, taqsim, gunoh yomg'irlari, bu yomg'ir har kecha meni bir marta cho'ktirib o'ldiradi va men yaratgan oldida tavba qila boshlayman⁴".

Qarshimizdagi timsolni anglashda davom etamiz: barcha insonlardagi kabi insoniy tuyg'ular unda mavjud ekan-ku, aks holda u ona zamin isini tuyishi, bundan hayajonga tushishi mumkin emasdi. Qolaversa, o'z gunohlarini anglash va yaratgan qarshisida tavba qilish uchun ma'naviy kuch-qudrat talab qilinadi.

Demak, qarshimizdagi odam ana shunday darajani zabt etgan. Ammo uning

⁴ Эшон улН Момо ўши // Ялпиз иди – Т.: Шар, 2008. – Б 113 –162.

bu qadar mahzunligi, ezilishi, iztirobining sabablari nimada? Hatto tushlarida tim qora loyqa suvga botib, necha bor cho kib chirkin xazonga aylanib qolishining boisi nimada? U o'zida na niyat, na istiqbol qolganini tilga oldi. Masjidga borib, tavba qilgani, ammo gunohlariga iqror bo'la turib yana gunohga, og'ir gunohga botganini: Qizini bo'g'ib o'ldirganini tan olishi qanday ma'noni ifoda qiladi? O'ttiz yil go'zal va totli narsalar haqida o'ylashga vaqti bo'lmagan bu kimsaning siyratiga nazar tashlang: u o'ttiz yil qon va najasga belanib yashashni, badanlaridan najas va qon hidi anqib turadigan kimsani tasavvur qila olasizmi? Yozuvchi ayni shu odamning qora hayotiga oid kitobni o'qishga va undagi hodisalar ma'nosini uqishga bizni yo'llamayaptimi?

Ha, ayni shunday holatni tuyamiz: aql-idrokdan mahrum, telba va yovuz maxluqlar ichida yashagan odamlarning ruhiyatida ham hayvoniy hirs, hayvoniy kayfiyatning uyg'unishi tabiiy. "Na go'zallik, na ishonch, na ezgulik qoldi! Biz har qanday go'zallikni ham hirsimizni qondiruvchi vosita sifatida baholashga ko'nikib qoldik... Men insonning ulug'ligi, ezgu va go'zal fazilatlar, ota va farzand burchi, oila totuvligi, jamiyat va inson munosabati, axloq va muhabbat haqida qirq ikki yil ma'ruza o'qidim, endi o'ylasam, qirq ikki yil odamlarni aldabman⁴", - deya iqror bo'ladi u. O'z so'zlari va orzulari, xayoldagi go'zallik haqidagi safsatalari odamlarni aldashgagina xizmat qilganligini, oxir-oqibat uning o'zi ham yolg'onliklar va yovuzliklarni niqoblashga xizmat qilganligini anglash - buyuk fojia! Yovuz kuch hukmronlik qilsa-yu, hamma narsa, hatto go'zallik timsoli bo'lmish san'at ham unga xizmat qilsa-chi? Unda hammayoqda yovuzlik yaratiladi, hatto insonning o'zi shu yovuzlikning ijodkoriga aylanadi!

Asarda chol vujudidagi yovuzlikdan dunyoga kelgan o'g'illarining shu taxlit yovuzlik ijodkorlariga aylanishlari haqqoniy va ta'sirchan manzaralarda gavdalantirilgan. Inson bolasi ijod etgan yovuzliklar hatto yaratganni lol qoldiradi! Ana shuni anglab yetgan ota o'sha yovuzlik zurriyotini vujudida o'stirayotgan, yovuzlik onasi bo'lmish o'z qizini bo'g'ib o'ldiradi. O'g'illari esa o'zlari e'tiqod

⁴ Эшон ульНора китоб// Ялпиз иди – Т.: Шар, 2008. – Б 193–250.

qo'lgan yovuzlik domiga g'arq bo'ladilar. Yovuzlik ulardan har birining qalbiga joylashib olgan edi. Ana shu yovuzlik timsollari: cho'qqisoqol, cholning o'zi, uning farzandlari... Goh ulardan har biri o'zini, bir-birining kim ekanini anglashga urinadilar, ammo oxir-oqibat qora rang quyuqlashgan qorong'ulik qo'rida singishib, yaxlit bir qiyofaga birlashadilar, shayton bolalariga aylanadilar!

"Otam kim o'zi? Mening qonimda kimning qoni oqayapti? Nega uni ko'rsam qalbim quvonch-u shodliklarga to'ladi? Nega u o'z otam, rahnamomday tuyuladi, nega uni ko'rsam unga qul bo'lgim keladi, etaklarini o'pgim, unga xush yoqish uchun itday hurgim, yaltoqlangim keladi?"⁵ - kabi o'zligini taftish etuvchi savollar ham asta-sekin barham topib, har birining vujudida yovuzlikka tobelik qaror topadi. Ammo, asbob buzilsa, uni tuzatish uchun ustaga olib borishadi. Qalbi buzilgan, shayton shogirdiga, balki shaytonning zurriyotiga yo quliga aylangan insonni tuzatish kimning qo'lidan keladi? Iblis bilan bir to'shakda uxlab yotgan ushbu dunyoni-chi? "Qora kitob"ni o'qigan kitobxon qalbi qora kitob ko'chalaridan o'tgandagi tasavvurlari, tuyg'ulari g'alayoniga to'lib-toshadi.

"Qora kitob" timsoliga uyg'unlik kasb etgan ayni shu makon ichidagi ramzlar, obrazlar insoniyatni halokatga olib boruvchi zulm va zo'ravonlik, yovuzlik va qabohat hukmronligiga qarshi kurashga da'vat etadi. Zotan, har qanday kurashni inson eng avvalo o'z dunyosini tozartishdan boshlamog'i lozim. Yovuz tuyg'ulardan qutilish esa osonlik bilan yuz bermaydi.

Insoniyat tarixi bunga yorqin misol bo'ladi. Davrlar biri ikkinchisidan o'zmoqchiday shitob bilan harakat qiladi, tinimsiz o'zgaradi. Badiiy tafakkur ham shunday. O'zgargani sayin badiiy tasvir imkoniyatlari ham goh kengayadi, goh torayadi, tinch turmaydi. Shu tariqa har qanday milliy-badiiy tafakkur biridan keyingisiga o'tuvchi bosqichlar evolyutsiyasidan tashkil topa boradi. Ana shu tadrijiy davomiylik ilg'ab olinsa, milliy-badiiy tafakkurning yaxlit bir jarayon ekanligini tasavvur etish oson ko'chadi. Mazkur yaxlit jarayon ichidagi badiiy tafakkur evolyutsiyasi bosqichlarini aniqlash uchun esa qo'llanilayotgan badiiy

⁵ Эшон улН Тун панжаралари// Ялпиз иди – Т.: Шар, 2008. – Б 162–192.

tasvir vositalari tadrijini o'rganishga to'g'ri keladi. Chunki ijodkor shaxs dunyoni, insonni qanday idrok etsa, shunga yarasha badiiy tasvir vositalaridan foydalanadi, yangilarini kashf etadi.

Bugun inson ongi-shuuri o'zgardi. Uning dunyoqarashi, mushohadasi, hayot tarzi ham yangilandi. Bu jarayon adabiyotda ham o'ziga xos ko'inish oldi. Badiiy tafakkurda yuz berayotgan o'zgarishlar qissa tarziga mutlaqo yangi islohlarni kiritdi. Badiiy tasvir vositalaridan foydalanish imkonini ko'paytdi. Muayyan ohang, ritmlar uyg'unligi vositasi bilan kayfiyat uyg'otuvchi -musiqa asarlariga monand asarlar yaratila boshlangani o'zbek realistlik nasri binobarin, o'zbek qissachilik uchun yangi hodisadir. Bunday izlanishlar o'zbek qissachilik badiiy tafakkurining yuzaga kelishi, shakllanishida ayni jahon adabiyoti ilg'or namunalarining ta'siri beqiyosligidan darak beradi.

Demak, o'zbek qissachilik o'ziga xos uslublar orqali rivojlanmoqda, bu o'zbek nasrining umumbashariy badiiy tafakkur simfoniyasiga qo'shila oladigan milliy va umuminsoniy ohanglarga egaligidan dalolat beradi. Ayni chog'da, o'zbek yozuvchilarining modern adabiyoti an'analardan foydalanishlari orqali o'zbek milliy badiiy tafakkuri imkoniyatlari hisobiga jahon adabiyoti ham boyib borayotganligini ko'rsatadi. Aniqrog'i, Sharq va G'arbning uyg'un jihatlari adabiyotda ham estetik uyg'unlik kashf etilishiga asos bo'ldi. Milliy qadriyatlar bilan umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligidan yuzaga kelgan o'zbek qissalariga xos epik tafakkur tarzi esa yangi hayotiy qahramonlarning badiiy kashf etilishiga ta'sir ko'rsatdi. Ayni shu xususiyat qissachilikka xos yetakchi taraqqiyot tendentsiyasiga aylandi.

Badiiyat ehtirosli fikrdan tug'iladi, ijodkor esa o'z tasavvuridagi go'zallikni badiiy kashf etadi —yaratadi.

Badiiy ijod jarayonida qissa poetikasida salmoqli o'zgarishlar ro'y bergan, uning ichki bo'linishlari janr imkoniyatini teran anglashni taqozo etadi. Qissaning bunday taqsimlanishi poetik usul va vositalarning o'zgarishi, g'oyaviy-mazmuniy xususiyatlarning yangilanishi bilan bog'liq. Shu bois, tarixiy biografik, fantastik, xotira qissalar ham yaratilsa, adabiyot xazinasini yanada boyiydi.

II bob yuzasidan xulosalar

Dissertatsiyamizning ikkinchi bobi yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi.

1.Qissa janrida yetarlicha tajriba to'plagan o'zbek adabiyotida yangicha usullar, yangicha qarashlar shakllandi. Bu qarashlar ijodkorlarning uslublarida namoyon bo'ldi.

2. Nazar Eshonqul asarlarida o'zini yaqqol namoyon qilayotgan yangicha poetik ifoda usullari, metofofik obraz va tasvirlar, ramz va motivlar qissalari asosida parallel qiyoslanib, adibning ijodiy yutug'i sifatida ko'rsatilgan.

3. N.Eshonqul realistik tasvir usulini romantika, sentimentallik, simvolik talqin yo'lini bilan boyitgani asarlari tahlillari misolida isbotlangan.

4.N.Eshonqul qissalarida adibning adabiy-estetik qarashlari va ijodining ustuvor yo'nalishlari G'arb va Sharq falsafiy, adabiy-estetik qarashlari hamda xalq og'zaki ijodi motivlari asosida shakllanganligi ilmiy asoslangan.

5.Qissalarda yozuvchi uslubi, uning ijod xususiyatlari, uslubga oid qarashlar, yozuvchi qaysi yo'nalishdan foydalanganligi qissalari misolida ochib berildi. Qissalarni qiyoslab o'rganish asnosida yozuvchining uslubidagi yetakchi xususiyat psixologik tamoyil ekanligi, insonning ong osti tizimiga murojaat etilishi, qalb dinamikasi o'zgarishlarini xoh realistik asar bo'lsin, xoh psixologik asar bo'lsin chuqur darajada bera olishi yaqqol bo'y ko'rsatib turibdi. Asarlarida bu yo'nalishda juda katta muammolarni olib chiqqan.

6. Ijodiy jarayonda ilhom yozuvchini badiiy ijodga yo'ltiradigan psixologik holatdir. Shuningdek, ilhom ijodkorlik hissi, yozish zavq-shavqi, pafosini oshiradi. Ilhom bilan ijod etilgan asar o'quvchiga ham yuqadi.

7. Yozuvchi fenomenini u mansub jamiyat orasida amal qilayotgan falsafalar, psixologik jarayonlar shakllantiradi, ularga nisbatan aniq pozitsiyaning mavjudligi ijodkor shaxsiyatining ma'naviy-estetik darajasini belgilaydi. O'z falsafiy qarashlari xususida muayyan to'xtamga ega bo'lgan, uni bashariyat manfaatlariga muvofiqlashtira olgan shaxsgina ijodkor atalishga munosibdir. Xos shaxsiyati, falsafasi, ijodiy prinsiplari, adabiy-ilmiy konsepsiyasiga ega

yo'zuvchigina adabiy jarayonning faol a'zosiga aylanadi, uning tabiat, jamiyat, inson shaxsiyati, san'at va madaniyat haqida aytgan fikrlari umummilliy, umuminsoniy ko'lamni ishg'ol etadi.

8. Badiiy adabiyotning asosiy maqsadi asar markazidagi inson hamda uning ichki dunyosini tadrijiylik asosida badiiy tasvirlash bo'lar ekan, Nazar Eshonqulning aksariyat asarlari inson va uning ko'ngil olami, ruhiy kechinmalari badiiy talqin etishga qaratilgani bilan e'tiborga sazovor bo'lib, yo'zuvchining adabiyot haqidagi kuzatishlari asosida o'z adabiy-estetik pozitsiyasini belgilash xosdir. Unga xos estetik pozitsiya ijod laboratoriyasi va ijod psixologiyasini o'rganishda muhim manba bo'ladi.

Nazar Eshonqul estetikasida har bir ijodkor o'z qiyofasiga ega bo'lishi uchun tashqi omillardan tashqari ichki "men"ini anglashi, individual shaxsni namoyon qiladigan tafakkur-u tasavvur olamini namoyon etmog'i kerak. Yo'zuvchi o'z asarlarida insonni, uning mohiyatini anglash va ochishga harakat qilar ekan, turli xil badiiy tasvir usullari va vositalaridan samarali foydalanishga urinadi. Falsafiy qarashlarini badiiy obrazlar, psixologik talqinlar, noyob motivlarga singdiradi.

9. Nazar Eshonqulning ijtimoiy-estetik qarashlarida g'arb zamonaviy adabiyoti, ayniqsa, F.Kafka qarashlariga mushtaraklik kuzatiladi. F.Kafka va N.Eshonqul ijtimoiy-estetik qarashlari va badiiy asarlariga xos parallelizm ulardagi ramziy ma'nolarning bo'rtib turishida, voqelikning an'anaviy vositalar asosida emas, balki g'ayritabiiy, ong oqimiga xos tasvir orqali ifodalanishida ko'rinadi. Uning estetik qarashlari mazmun-mohiyatida milliy ma'naviyat ijtimoiy hurlik, erkin shaxs konsepsiyasi yetakchidir.

10. Nazar Eshonqul ijodida musiqa, tovush, ohang, suratlar, ranglar ramziy ma'no kasb etib, qahramon ruhiyatini ochishga xizmat qilib, asarlaridagi ifoda va badiiy talqin originalligiga asos bo'lgan.

N.Eshonqul ijodiga xos bunday xususiyatlarning barchasi undagi ijodiy niyat va badiiy ifoda sintezini ta'minlagan.

III BOB. NAZAR ESHONQUL IJODIDA QISSA JANRINING TUTGAN O'RNI

3.1. An'anaviy syujet va uning o'ziga xos talqini (Urush odamlari va Momoqo'shiq qissalari misolida)

Ushbu bob "Nazar Eshonqul ijodida qissa janrining tutgan o'rni" deb nomlanib, bunda modern uslub shaklini hozirgi davr o'zbek qissachiligi uslubining konkret bir ko'inishi sifatida va realistik uslub shaklini tasvir uslubi bilan o'rganishga yo'naltirilgan. Ushbu bobning birinchi fasli "An'anaviy syujet va uning o'ziga xos talqini (Urush odamlari va Momoqo'shiq qissalari misolida)" deb nomlanadi.

Hozirgi o'zbek qissachiligida turli uslublarning mozaika tarzida aks etishi, xalq qissachiligi, mumtoz qissachilik, XX asr rus va o'zbek qissasi, jahon realistik va modernistik uslubi singari adabiy an'analar vositasida ijodiy yangilanish jarayonlari kechmoqda. Uslubning bu shakli modernistik tasvir yo'lini hisoblanib, ko'proq 80-90-yillardan ko'zga tashlana boshlandi.

Mana shunday uslubda ijod qilayotgan nosirlarimizdan biri Nazar Eshonquldir. Demak, ham realistik, ham modern uslub imkoniyatlarini mukammal darajada namoyon etayotgan bu yozuvchi qissalarini o'rganmay turib, bugungi o'zbek qissasi uslubi haqida to'laqonli xulosalar chiqarish imkoni bo'lmaydi. Qissa janri hikoyaga nisbatan badiiy fikr harakati uchun keng imkon beradi. Ana shu imkoniyatdan foydalangan yozuvchilar inson fojiasining yangicha badiiy talqinini yaratishga erishmoqdalar.

Ma'lumki, Nazar Eshonqul an'anaviy uslubda yozilgan "Urush odamlari" qissasi bilan adabiyot maydoniga kirib keldi. Nazar Eshonqulning "Urush odamlari" qissasi 1988-yilda yozilgan qissa bo'lib, ushbu qissa an'anaviy syujet namunasi bo'la oladi.

Ushbu qissa bizga urush davri va urush odamlarining boshidan kechirganlarini, ularning qalb tug'yonlarini katta maxorat bilan tasvirlagani bilan ham diqqatga sazovordir. An'anaviy syujet o'zi nima?

Badiiyat unsurlari ketma-ketlikda berilgan syujet an'anaviy syujet deyiladi.

Bunda xuddi avvalgi davrlarda bo'lgani kabi ekspozitsiya, prolog, voqealar rivoji, tugun, kulminatsiya, epilog kabi unsurlar ketma-ketligi o'zini saqlagan holda bayon etiladi. Mana shunday syujet turi adabiyotshunoslik tilida an'anaviy syujet deb yuritiladi. Umuman olganda, bir so'z bilan aytganda an'anaviy syujet unsurlari qat'iy ketma-ketligini saqlab qolgan, uzviy asosga ega bo'lgan syujetdir.

"Urush odamlari" qissasi an'anaviy syujet namunasi sifatida e'tirof etilsa-da ammo unda bir qator diqqatga sazovor o'zgarishlarni muallif mahorat bilan shu kabi syujet chizig'iga singdirib o'tganki, buni e'tirof etmasdan ilojimiz yo'q.

Qissa voqealari to'rtinchi bo'limning sog' Normat polvonning urushdan nogiron bo'lib, "urushning tirik guvohi"ga aylanib, uyiga qaytishi bilan boshlanadi. Asarda bir qarashda sodda, ammo mohiyatida o'ta murakkab holatni - urush davri qishloq kishilarining psixologiyasini, hissiyotlari, botiniy va zohiriy olamlarini Normat nigohidan o'tkazib tasvirlanadi.

Yozuvchi qissa qahramonini tasvirlar ekan, uni qishloqdoshlari nigohidan o'tkazib tasvirlashga intiladi, buning boisi hech kim Normat polvonni qishloqdoshlari kabi yaxshi bilmaydi.

Urushning eng dahshatli fojiasi ham qissadagi Anzirat obrazi orqali beriladi. U norasida qizining hayotini saqlab qolish maqsadida shofiro rai Mirzaqulning oldiga boradi, uning makri qurboniga aylanadi. Ya'ni daryoning o'zi istamagan qirg'og'iga o'tib qoladi. Daryoning ikkinchi qirg'og'ida insonni to'g'ri yo'ldan urishga ahd qilgan, shayton uya qurgan qirg'og' edi. Aslida, u o'zi istamagan holda bu ishga yo'l qo'yib beradi. Bundan keyingi ishlar esa u istaydimi yoki yo'qmi sodir bo'laverdi.

Ushbu qissada Anzirat obrazi muallifning yaxshilik va yomonlik haqidagi qarashlarni o'ziga singdirgan obraz sifatida ham qadrli. Chunki yozuvchi dunyoda doimo ikki yo'l borligini, inson ulardan birini tanlashi mumkinligini yoki o'z tanlagan yo'lining xato ekanligini bilgandan so'ng ham qaytish imkoniyati mavjudligini, ammo juda kech qaytish katta yo'qotishlarga olib kelishi mumkinligini tasvirlaydi. Adib urush odamlarining azob-uqubatlari, fojiasi, urush davri psixologiyasini yoritishda Anzirat ichki kechinmalarini shafqatsiz tarzda

ochib tashlaydi.

Nazar Eshonqulning "Urush odamlari" qissasi va O'zbek Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romanlaridagi ayol xiyonati bilan bog'liq ruhiy tasvirlar o'zaro juda bir-biriga o'xshab ketadi.

Shuningdek, Anzirat obrazini ayni vaqtda "Momoqo'shiq" qissasidagi Muazzam obraziga qarama-qarshi obraz sifatida ham qiyosan tadqiq etishimiz mumkin bo'ladi. "Momoqo'shiq" qissasida ham Nazar Eshonqul bosh qahramonlaridan biriga ikki yo'l qoldirdi. Birinchisi, o'z an'alarini saqlab qolib, Shamsi Saloh fikricha "madaniylashmagan" qishloqlar orasida ham eri bilan birga baxtli hayot kechirish yoki o'z ona qishlog'ini xuddi Shamsi Saloh kabi tashlab ketib, erini ham yolg'iz qoldirib, shon-u shuhratlarga ko'milib shaharda, poytaxtda shohona yashash imkoniyatini tanlashi mumkin edi. Ammo Muazzam o'zini tutib oldi, unda ham xuddi Anziratda bo'lgani kabi imkoniyat bor edi, ammo u o'zligini topa oldi. O'zgardi va qat'iy qarorga keldiki, u sevgan insonlarisiz, jonajon qishlog'isiz, shu qishloq odamlarisiz hech kim ekan.

Anzirat esa boshqa yo'ldan ketdi, unda ham ortga qaytish imkoniyati bor edi, yozuvchi unga shunday imkoniyatni bergan edi, ammo u daryoning yomonlik degan qirg'og'ini tanladi va o'z fojiasiga sababchi bo'ldi, nafaqat o'zining fojiasiga, balki o'z turmush o'rtog'i bo'lgan Normat polvon fojiasiga ham sababchi bo'ldi. Muazzam esa eri Otaqulga, uning sevgisiga xiyonat qilmadi. Shu jihatdan ham muallif Muazzam obrazini o'zgacha bir zavq-shavq bilan qalamga olgan.

Yozuvchi Anzirat bilan Normat obrazlarini tasvirlashda ruhiyat tahlili va tasvirini o'rinli qilgan. Ammo Mirzaqul raisning insoniy qiyofasini ochishda ko'proq bayon qilishga, tavsiflashga, hodisalarni muallif nutqi orqali yoritishga keng o'rin berganki, natijada, uning qalb harakatlarini, ichki dunyosidagi holatlarni to'liq his qilib, anglab ololmaymiz.

Asardagi yana bir o'ziga xos obraz - bu Biydi momo hisoblanadi. Momo butun Tersota qishlog'ining kayvona kampiri, bu yerda bir narsa uning ishtirokisiz bo'lmasdi. Buxor polvon vafotidan keyin boshiga tushgan musibatlar uni metinday toblagan, qaddini yanada tik qilib qo'ygan edi. Keyingi musibatlar

kampirning ana shu adl qomatini bukdi, ammo ruhini bukolmadi. Hayotning adoqsiz musibatlari qoldirgan jarohatlardan qattiqlashgan diydasi alpday bahodir o'g'illaridan ayrilganda yana qattiqlashdi, aks holda u bu musibatlarni ko tarolmasdi.

Biydi momo nafaqat oilasining yoki avlodining, balki butun urug'i va qishlog'ining or-nomusi timsoli sifatida gavgdalanadi. U barchadan o'z burchini mas'uliyat bilan ado etishni talab qiladi, or-nomusni, vijdonni, azaliy urf-odatlarini har narsadan ustun qo'yadi, ularga o'zi hamisha itoat etadi. Shu bois u Anzirat qilgan gunohni sira kechirmaydi, uning "siri"ni oxirigacha ochishga ahd qiladi, yolg'on mulozamatdan achchiq haqiqatni afzal biladi. Nomus, oriyat, sha'n va g'urur oldida u mehr-shavqat-u kechirim tuyg'ularini yaqiniga ham bormaydi.

Bu kabi dialoglar orqali ham yozuvchi qahramonlar ruhiyatini butun murakkabligi bilan ifodalashga erishgan.

Urush odamlari qissasining syujet ko'rinishi.

Qissa ekspozitsiyasi payt munosabatidan 44-yil va voqealar kechuvchi joy o'sha Nazar Eshonqul asarlaridan bizga tanish, yozuvchining bolaligi kechgan Tersota qishlog'i. Asar voqealari aynan mana shu yerda bo'lib o'tadi.

Qissa tuguni -xiyonat, Anziratning xiyonati asarning tugunlaridan biri hisoblanadi. Qissada Anziratning to'rt yildan beri ko'lmagan eridan begonasirashlari, o'zini g'ayrioddiy tutishlari barchasi anglab bo'lmaz tugunday edi.

Qissada voqealar rivoji juda ham katta ahamiyatga ega. Bir yil avval o'ldi deb qoraxat kelgan Normat polvonning yasama oyoqda cho'loqlanib uyiga kirib kelishi butun qishloq hayotini parokanda qiladi. Dastlab to'y-tomoshalar bo'lib qishloqqa tarovat bergan bo'lsa-da, ammo oradan biroz vaqt o'tib fojialar yuz bera boshladi. Normat polvon urushdan qaytib qishlog'iga kelganda uning jismida yashashga bo'lgan ishtiyoq yuqori darjada edi. Dehqonchilik qilaman, hech kim hech qachon och qolmaydi, dunyoda ochlik bo'lmaydi, doimo tinchlik bo'ladi deya yangi rejalar tuzadi. Lekin urush o'z nomi bilan urush, u millionlab kilometrlar olisda bo'lsa-da, insonlar hayotiga kulfatlar keltirishda, yangi

qurbonlar izlashda davom etaverardi. Anziratning kutilmaganda fosh bo'lgan siri (Normat polvonga xiyonati) uning butun hayotini tubdan o'zgartirib yubordi. Ayni mana shu sirning ochilishi tufayli ham qissada boshqa ko'plab qahramonlarning ham asl qiyofasi, shaxsiyatlari ochilib bordi. Masalan, Biydi momo, uning kelinlari, Mirzaqul, qishloq ayollari, insonlar munosabati, Xolyor obrazlarida o'zgarishlar sezildi.

Qissa kulminatsion nuqta sifatida o'sha mudhish qonli tun, qahramonlarimizning hayotiga zomin bo'lgan o'sha kechani olsak, meningcha, to'g'ri qilgan bo'lamiz. Chunki bu kecha Normat Anzirat va Mirzaqulni otib, o'zini ham buxor qoyalarida uloqtirgan, uch insonning hayot iplarini abadiy uzgan o'sha kecha edi...

Balki, qaysidir ijodkorlar yoki boshqa biror o'quvchi kulminatsiya sifatida boshqa qismni olishi mumkindir, ammo o'ylab qarasak, Chexov so'zlariga ko'ra, asar boshida miltiq ko'rindimi, u otilishi shart edi. Ya'ni bu yerda asar voqealari eng yuqori dinamik cho'qqiga chiqqandi, asarni yozuvchi o'z qalb prizmasidan o'tkazib, ta'sirli tarzda o'quvchi diliga joylay olganki bu ham asar qimmatini yanada oshishiga xizmat qilgan.

Qissada yechim sifatida Anziratning Normat polvonga qilgan xiyonati va uni yo'ldan urgan kim(Mirzaqul) ekanligi fosh bo'lishini va uchala insonning ham hayot iplarining uzilishini olishimiz mumkin bo'ladi. Ne chog'lik ayanchli bo'lmasin, tugun ham shu yerda o'z yechimini topadi.

Asarning tugashi, xotima qismi ham boshqa ko'pgina qissalardan farq qiladi, ko'plab qissalar yechimdan so'ng tugaydi, yoki ularda xotimani o'quvchining o'ziga yuklab qo'yiladi. Nazar Eshonqul esa bunday yo'ldan bormadi, qissa boshqa asarlardan mutlaqo ajralib turadigan epilog bilan o'z yakuniga yetadi.

Epilog (Momoqo shiq qissasidan farqli o'laroq bu asarda biz epilog (keyingi tarix ham deyiladi, yani yechimdan keyingi hodisalar)ga ham duch kelamiz) ..."*nihojat qo'ng'ir trot eliga bahor kirib keldi. U ming xil noz,, ming xil karashma bilan urish zahmatlari ezib tashlagan urush odamlari qalbiga yashash va yashnash ishqini olib kirdi...*

Ko'zlari ojiz(asar boshida unday emasdi) bo'lib qolgan Biydi momoning katta kelini boshqa Tersotaliklar qatori Qotning ustiga ko'chib ketmay, uyining chirog'ini o'chirmaslik uchun va momoning o'zini tashlab qo'ymaslik uchun shu yerda qoldi. Kichik kelini esa bahorning ohirlarida Qamashilik bir mulla bilan qochib ketdi. Qotning ustidagi bug'doylar sarg'aydi. Ular to'rt yillik horg'in sukunatni buzib,quvnoq shovilladilar. Baxt va ezgulik, muhabbat va hayot, mehr va oqibat haqida shivirlashib, dunyodagi eng muqaddas kuyni oltin qo'ng'iroqlari bilan chala boshladilar".

Asarni o'qib chiqqandan so'ng qissa qahramonlariga nisbatan achinish bilan birga, albatta, yorug' damlarga, ertangi kunga, baxtli lahzalarga bo'lgan ishonch ham qoladi.

"Momoqo shiq" va "Urush odamlari" qissalarini qiyoslab tadqiq etadigan bo'lsak, ularning o'xshash tomonlari: syujet elementlarining qat'iy ketma-ketligi bir-birini takrorlaydi. Lekin Urush odamlari qissasida biz Momoqo shiqda uchratmagan epilogga ham duch kelamiz. Bu "Urush odamlari" qissasining o'ziga xos jihatlaridan biri hisoblanadi.

Qissadagi obrazlarda ham ma'lum darajada o'xshashlik bor. Misol uchun oladigan bo'lsak, ikkala qissada ham bir-biriga o'xshab ketuvchi ayollar bosh qahramon sifatida olingan (asarlarning tuguni ham aynan shu ikkala ayolga borib taqaladi) . Ikkisining boshiga ham hayot turli mashaqqatlarni yog'dirgan, ikkisini ham rahm-shafqat homiysi sifatida ko'ringan hiylakor erkaklar (Shamsi Saloh va Mirzaqul kabi) yo'ldan urishga urinadi. Lekin farqli tomoni shundaki Muazzam o'zligini yo'qotmadi, eriga xiyonat qilmadi, hatto erining or-nomusi himoya qildi. Anzirat esa aldanib qoldi, xiyonat qildi, arzimagan xatosi tufayli o'zi, eri, otasi va bolalarining hayotini vayron qilib yubordi. Ammo bunday deb butunlay Anziratni ayiblashga ham haqqimiz yo'q. Hayot Anziratga shafqat qilmadi, Anziratni qanday ahvollarga solganiga qissani o'qish jarayonida guvoh bo'lamiz.

U uch yil Normat polvonni vafodorlik bilan kutdi, lekin qoraxat kelgandan so'ng u butkul undan umidini uzdi. Shunda ham darrov xiyonat yo'lga o'tib ketmadi, uyining chirog'ini yoqib, farzandlariga g'amxo'rlik qilayotgan edi.

Ammo kutilmaganda kichik farzandi Hojarning juda qattiq tobi qochib qoldi va tovuq sho'rva ichmasa tuzalmasligi ayon bo'lgach, ona sifatida Anzirat tovuq izlab sargardon bo'ldi. Oxiri uzoq qarindoshi bo'lgan Mirzaquldan yordam so'lashga majbur bo'ldi. Mirzaqul bu damlarni olti oydan buyon (o'zining takidlashiga qaraganda) kutib payt poylab yurgandi. Chunki Normat bir paytlar uni urib so'kkan edi. Fursatdan foydalanib o'zining qabih rejasini amalga oshirdi (Xalil otboqarning uyiga bor, tovuqni o'sha yerda beraman dedi va u yerga borgach uning nomusiga tajovuz qildi). Senga uylanaman ering baribir endi yo'qku degan gaplar bilan uni yo'ldan urdi. Albatta, Anzirat ham bu gaplarning o'zi bilan darrov aldanib qolgani yo'q. Anchadan beri Mirzaqul qarindoshchilikni bahona qilib Anziratlariga ko'p mehribonliklar qilib kelayotgandi. Anzirat esa erkak mehriga tashna edi, ana shu tashnalik, balki, uni aldanib qolishining asosiy sababi hamdir.

"Urush odamlari" qissasida urushning insonlar hayotiga fojiali tasirini ochib berishdan tashqari ota-bobolardan qolgan qadriyatlar, urf-odatlariga bo'lgan munosabat borasida ham so'z boradi. Shu jihat bilan ham "Momoqo'shiq" qissasi bilan yana bir uyg'unlik sezish mumkin.

"Momoqo'shiq" qissasida Muazzam momolar qo'shig'ini kuylovchi, uni nabiralarga meros qilib qoldiruvchi siymo sifatida vafodorlik siymosi sifatida tasvirlangan bo'lsa, "Urush odamlari" qissasida Biydi momo bu siymoda boy ko'rsatgan. Vafo timsoli va ota bobolar qadriyatlarini asrovchi, bu qadriyatlarni va or-nomus masalalarini poymol bo'lishini esa eng katta gunoh deb biluvchi ayol sifatida tasvirlangan. Buxor polvondan keyin uyining chirog'ini o'chirmay, farzandlarini munosib tarbiyaladi. Kelinlaridan ham shuni istardi, ammo o'zi suyib yurgan kenja kelini begona bilan qochib ketdi, lekin katta kelin ikkinchi Biydi momo bo'ldi. U butun bir savlati va yurish-turishi bilan Biydi momoni takrorlar edi. Buxor polvon avlodlarini asrab qolish va davom ettirish vazifasini Biydi momoning bo'ynidan o'z zimmasiga olgandi. Uning siymosida yozuvchi ertangi kun farzandlarini tarbiyalash va avlodlar an'anasini davom ettirish vazifasini yuklagan.

Nazar Eshonqulning "Momoqo shiq"⁵ qissasi ham milliy o'zlik, milliy qadriyatlarni saqlash yo'lidagi murakkab konfliktlar, ichki iztiroblar tasviri asosiga qurilgan. Bir guruh madaniyat xodimlari uzoq bir qishloqqa paxta yig'imini uchun hasharga borishadi. Shu paxtazor chekkasiga tiklangan qamish chaylada yashab, kun kechirayotgan, ammo noyob ovoz egasi Muazzamni uchratib qolishadi. Yozuvchi Shamsi Saloh bu ayolni shaharga olib borib, ovozini tarbiyalashni maslahat beradi. Muazzam va uning eri Otaqul, tabiiyki, bu muhitga - qishloqqa va uning keng dalalariga o'rgangan odamlar. Ular hayot mazmunini ona tuprog'isiz tasavvur qila olmaydi. Qishloqqa bog'lanib qolishni Shamsi Saloh madaniyatsizlik sanaydi. Oxir-oqibat, Shamsi Salohning yengil-yelpi, oliftanamo qarashlaridan Muazzam bilan Otaqulning sodda va samimiy tuyg'ulari ustun keladi.

Yozuvchi hasharchilar tabiatiga xos "turli ovozlar"ni o'z individual uslubiga xos bemalollikka asoslanib "ingichka, yo'g'on, shirali, shirasiz, nozli, ishvador, xirildoq, sovuq, hirlingagan, chirillagan, yig'lamsiragan, kulinqiragan, bosinqiragan, hadiksiragan, cho'chinqiragan" kabi o'n beshta sifat bilan beradi. Bu ovozlar paxta yakkahokimligi davrida majburan hasharga ommaviy jalb qilingan odamlarning tabiatini ana shu sifatlar orqali tasavvur qilish imkonini beradi.

Asar bosh qahramoni Shamsi Saloh va uning atrofidagi ziyolilar ruhida kechayotgan sovuqlik, beparvolik, bepisandlikni yozuvchi "o'zlik"dan uzoqlashganlikda, "begonalik"da ko'radi. O'zligini unuta boshlagan, ba'zilar esa butunlay unutgan insonlar qiyofasini ushbu obrazlar vositasida ochib beradi. Daraxt o'z ildizidan uzilib uzoq vaqt yashay olmaganidek, bir kuni ushbu qahramonlar o'z asliga qaytadi deb umid qiladi yozuvchi.

Ayni Shamsi Salohning fikrlari, uning tasavvurlari ham asar oxirida o'zgara boradi. Qissa ichidagi hayot kontrast ikki tomonga ajraladi. Biri yer odamlari, el odamlari, ikkinchi toifasi o'z tuprog'iga o'zi begona, ammo o'zgalar madaniyatini

⁵ Nazar Eshonqul 'Urush odamlari' qissa. Yangi nashr. Toshkent 2019. 159-bet

chuqur o'rganib olgan, milliy madaniyatdan uzoqlashgan odamlardir.

Nazar Eshonqulning mahorati shundaki, "Momoqo shiq"da o'z elida o'zini begona sanaydigan kimsalarga ta'sir etadigan muhim bir vositani, ya'ni "qo shiq" detalini kiritadi, butun syujet voqeligini shu asosga quradi. Nazar Eshonqul uslubining eng muhim qirralaridan biri ham shuki, ismlarga ma'no yuklaydi. Shamsi Saloh - ancha balandparvoz taxallus. Muazzam ismida lug'aviy ma'noga munosib bo'lgan ulug'vorlik mujassam. Otaqul ismini ham yozuvchi bejiz tanlamagan. Otaqul tabiatida or-nomus, o'jarlik, g'urur aralash bir oz "qullik" ham seziladi.

Umuman, N.Eshonqulning "Urush odamlari", "Momoqo shiq" qissalarida biz bir yozuvchi misolida jahon nasrida o'zining o'tmishi va ma'lum an'alariga ega bo'lgan realistik uslubning mustaqil holatda, yangilangan shaklda voqe bo'lganini ko'ramiz.

Nazar Eshonqulning "Momoqo shiq" qissasi syujet tizimi.

Ushbu qissa voqelikka odatiy yondoshuv va an'anaviy syujetning yorqin misoli hisoblanadi. Ya'ni an'anaviy syujet deganda elementlari (prolog, ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya, yechim, epilog -bulardan prolog va epilogning doim ham bo'lishi qat'iy talab etilmaydi) qat'iy kettma-ketlikda kelgan syujet tushuniladi.

Asarning to'liq syujeti bilan tanishib, uni qanday unsurlardan iborat ekanligini aniqlab olamiz.

Qissa ekspozitsiyasi (asar qahramonlarini bizga ilk bor tanishtiruvchi joy, vaqt va shu kabilar) -qahramonlarni bizga tanitgan shiypon, paxtazor va o'sha chayla.

Shamsi Saloh va bir guruh ijodkorlar paxta terimida yordam berish uchun uzoq qishloqlardan biriga keladi. Bu yerda shiyponda hamma ularni kutib oladi va Shamsi Saloh va ijodkorlar atrofni aylanib, suhbatlashib kelish uchun yo'lga chiqishadi. Bir joyda ular qo'shiqning sehrli ohangidan to'xtab qolishadi. Shamsi

Saloh va Muazzam ilk bor mana shu yerda uchrashadi.

Qissa tuguni (asarning boshida yuzaga keladigan va kulminatsiyada o'z yechimini topishi kerak bo'lgan masala) - Ushbu qissada Muazzamning o'zi tugun, uning shaxsiyati qissa so'ngida to'liq namoyon bo'ladi. Asarni o'qib borar ekansiz, Muazzam obrazi asar boshida boshqacha shaklda namoyon bo'lgan bo'lsa, asardagi voqealar rivoji o'zgarib brogan sari Muazzam obrazi ham o'zgarib boradi.

Asar oxirida tugun yechiladi, ya'ni Muazzam obrazi oldin shaharga ketish istagida bo'lgan, Shamsi Salohga biroz bo'lsa-da yon bosgan bo'lsa, asar oxirida o'zligini tanigan, o'zi tug'ilib o'sgan yurt tuprog'ini butun jismiga singdirgan, momolar qo'shig'ini avlodlardan avlodlarga meros sifatida olib o'tadigan qahramon sifatida talqin etiladi.

Qissada voqealar rivoji (tugundan yechimga qadar davom etuvchi voqealar ketma-ketligi) -Hasharchilarning kelishi, Shamsi Salohning Muazzamga ishq tushib, uni san'at osmoniga olib chiqish uchun (aslida esa o'zini qilish uchun) harakat qilishlari, Otaqul bilan ziddiyatlari, asar qahramonlari bo'lmish Muazzam, Otaqul va Ismoil Alilarning shaxsiyatining ochib borilishi bilan bog'liqdir.

Qissa kulminatsiyasi (asar voqealar rivojining cho'qqisi, u cho'qqida turib qarasangiz, asar qahramonlarining asl qiyofasi aniq va ravshan ko'rinadi)- Asarning bosh qahramonlari bo'lmish Shamsi Saloh va Muazzamning so'nggi to'qnashuvlari. Bu to'qnashuvda Muazzamning asl shaxsiyati yaqqol ochiladi. Uning o'z qadriyatlari, o'z shaxsiyati, oilasi va o'z hayoti borligi va uni har qanday shahardan kelgan rahm-shafqat homiysi qiyofasidagi Shamsi Salohlardan afzal ko'rish namoyon bo'ladi.

Qissa yechimida (asar tugunida qo'yilgan muammoning yechilishi) - Muazzamning asl shaxsiyati -" bu ayol erini, tug'ilgandan beri yashab kelgan yerini, johilligi-yu qoloqligi bilan birga qadrdon bo'lib qolgan odamlarini, hatto bir kesagigacha oyog'ining hidi o'tnashib ketgan bu dalalarini " har qanday san'at osmonidagi porlashlardan, har qanday orzu-havaslardan ustun qo'yadigan qishloqning fidoyi ayoli ekanligi namoyon bo'ladi.

"Momoqo'shiq" qissasi momolardan meros bo'lib qolgan va ko'plarimiz

(Shamsi Saloh kabi) unutib qoʻygan qoʻshiq (qadriyatlar) haqida dard bilan yozilgan asardir. Koʻpchiligimiz bugungi kunda bu qoʻshiqlarni unutib qoʻyganimiz nechogʻlik haqiqatdur, ammo uni hech qachon kuylashdan charchamaydigan va nabiralariga meros qilib qoldirguvchi Muazzamlari hali ham hayot. Bu asarda umrini, orzularini oilasiga, eriga, dalasiga, qishloqdoshlariga fido qilgan, oʻzbekning fidoyi momolaridan biri boʻlmish Muazzam ismli qishloq ayoli, dalasiga, paxtasiga oʻzini fido qilgan, biroz toʻpori boʻlishiga qaramay, tanti va joʻmard brigadir Otaqul, shahardan kelgan Shamsi Saloh ismli biroz olifta, jimjimadorliklarga oʻch, biroz kibrli, hamma narsani goʻzal boʻlishini istovchi va hamisha shunga intiluvchi yozuvchi yigit va oʻzini kibr deb hisoblovchi, kibrli, va boshqalardan qolishmaydigan tuban va yaltoq Ismoil Ali ismli dramaturg obrazlarini uchratamiz.

Qissadagi qahramonlar xarakteriga toʻxtaladigan boʻlsak:

Dramaturg Ismoil Ali obrazi asarga kirib kelish chogʻidayoq oʻzining biroz tund va badfahmroq, yaltoq kimsa sifatida namoyon boʻla boshlaydi. Otaqul bilan dastlabki suhbatlarida uning dimogʻdor, manman ekanligi koʻzga tashlanadi. Otaqul haqida gapira turib oʻzining teatrida koʻrganini qistirib oʻta faxrlanishi uning maqtanchoq shuhratparastligini namoyon etsa, ziyofatdagi yaltoqlanishlari uning boshqa yaltoq kimsalarda hech qolishmasligini yaqqol namoyon etgan. Yozuvchi hatto uning portretini chizishda ham unga iltifot qilmaydi va shaxsiyatiga mos tarzda tepakal va koʻpchigan yuzli bir badhusn kimsa sifatida tasvirlaydi.

Shamsi Saloh obrazi dastlab biroz kibrli boʻlishiga qaramay nozik tabiat va hushroʻy kimsa sifatida namoyon boʻlsa-da, qissa davomida uning qalbi biroz quruqshab qolganini, hamma narsa u istaganday boʻlishiga oʻrganib qolgan, eng ayanchlisi momosi aytib bergan qoʻshiqni (azaliy qoʻshiqni, kuylovchilar oʻzgargani bilan oʻzi abadiy qoluvchi momo qadriyatlarni) unutib qoʻygani namoyon boʻladi. Qishloq hayotini achinarli qiyofasini koʻra oladi xolos. Buni quyidagi parchadagi Muazzamga aytgan ushbu soʻzlaridan ham bilib olish mumkin.

"Bu yerda mana bu dala, mana bu paxta, mana bu chang g'ubor, anavi chayla, chivinlar, sassiq suv, isqirt qozon, har yili oldi-keti o'ylanmay tug'iladigan kasalvand va chuvrindi bolalar, johil odamlar, tappi, tezaklar orasida xor bo'lasiz."

Shamsi Salohning fikricha u ko'rib turgan qishloq odamlari "baxt bilan baxtsizlikni farqlay olishmaydi, quloqlari kar, ko'zlari ko'rt, ular ojiz, zaif, mute odamlar..." deb hisoblaydi. "Uy, ro'zg'or, bola-chaqa tashvishi odamni yuksak narsalar haqida o'ylashdan chalg'itadi. Hatto har qanday tug'ilma iste'dodni ham halok qilishi mumkin", -deydi u. Muazzamni bu qismatdan qutqargisi, uni baxtli qilgisi kelgandi. Ammo u xato o'ylagan edi. Muazzam baxtsiz emas edi. Shu yerlarda tug'ilish va shu umrni yashash uning qismati edi. Bunga Muazzam bilan so'nggi suhbatlaridan so'ng amin bo'ldi. So'nggi bor u chayla yonida Muazzamni kuzatar ekan, o'choq oldida ivirsib yurgani, ming mashaqqat bilan cho'g'ni puflab o'rt yondirishlarini ko'rib ich-ichidan unga achingan bo'lsa, Otaqulning qo'lga suv quyayotgan payti eriga erkaliklar qilib suv sachratishlari, ularni yosh bolalardek bir-birlariga bo'lgan beg'ubor mehrini ko'rib o'zining naqadar xato o'ylaganini va aslida o'zining naqadar ojiz va gumroh ekanligini his qildi.

Qissadagi Otaqul obrazini biz Ulug'bek Hamdamning "Isyon va itoat" romanidagi Tursunboy jontalash obrazi bilan ham solishtirishimiz mumkin. Ikkisi ham jonsarak va jontalash, uning bu xususiyatlarini qissa boshidanoq kuzatish mumkin.

Ammo Nazar Eshonqul yaratgan obraz o'zidan ko'ra boshqalarni tinchini o'ylaydigan, xalqi uchun kuyib pishadigan qahramon sifatida Tursunboy jontalash obrazidan farq qiladi.

Mototsikliga o'tirib yelib-yugurishlari, hasharchilarga qulaylik yaratish uchun o'zini o'tdan cho'qqa urishlarida buni yaqqol ko'rishimiz mumkin. Otaqulning xarakterida soddalik va to'porilikdan tashqari fidoyilik, tantilik hislatlarini ham ko'rishimiz mumkin. Uning shaxsiyatidagi bosiqlik va vazminlik yozuvchi yigit bilan Muazzam haqidagi suhbatlarida o'zini tutishidan kuzatish mumkin. Ularning to'qnashuvida Otaqul biroz mute va ojiz ko'finsa-da, ammo

uning Shamsi Salohga yozgan javob maktubida bildirgan fikrlari bu inson Shamsi Saloh o'ylagan qadar ojiz va ko'p narsani tushunmaydigan "madaniyatsiz" erkaklardan emasligini ochib beradi. Shamsi Saloh o'ylagandek, Otaqul Muazzamga zug'um qilgan emas va uning orzularidan kechib, bu yerlarda ivisib yurishida o'zini ayibdor deb istirob chekishlari uning insoniy hislardan yiroq emasligini ifoda etardi. Ketishiga ruhsat ham bergandi ham, lekin Muazzam o'zining oilasini, dalasini, erini mashxurlikdan afzal ko'rdi.

Muazzam obrazining shaxsiyati asar so'ziga borib o'z mohiyatini to'liq namoyon etgan. Dastlab ko'z o'ngimizda "rozg'or va ikir-chikirkarlarga zindonband qilingan, tutqundagi qo'shiq ilohasidek" ko'ringan bu ayol aslida "chirigan shoxlari sinib, barglari to'kilganidan mushtipar qiyofaga kirgan qarovsiz daraxtlardan ham mushtiparroq "emas ekanligi namoyon bo'ladi.

To'g'ri, u avvaliga Shamsi Salohning taklifiga osongina uchgandek ko'rinadi. Buning sababi esa yozuvchi yigitning balandparvoz va ta'sirchan gaplaridan biroz gangigan "u juda ham to'liqlanib ketgandi, hali hech kim u bilan orzular, armonlari to'g'risida bunday gaplashmagan, ish, tashvish, o'choq, qozon- tovoqdan tashqari ko'ngil degan narsa ham bor deb aytmagandi". Shuning uchun ham u dastlab yozuvchining takliflariga ko'nganday bo'ldi, lekin buning xato ekanligini vaqtida anglab yetdi va o'z shaxsiyatini yo'qotmadi. Muazzamning shaxsini quyidagi parchalar orqali bilib olishimiz mumkin.

"Men ham orzuimga yetishga haqliman... lekin men ayolman

-qo'shiq aytishga ovozim qanchalik bop bo'lmasin, avvalo, erim oldidagi burchimni bajarishim kerak ...

Agar qo'lingizdan kelsa, agar shunchalar yaxshi inson bo'lsangiz, ana qishlog'imizda qanchadan qancha baxtiqaro ayollar bor, o'shalarga yordam bering. Men emas, ular g'irt bechora. Men emas, ular ko'proq baxtsiz. Ular kim, nima uchun yashayapti, dunyoda nima gap bo'lyapti -o'ylab ko'rishga ham birzum vaqtlari yo'q. Ertadan kechgacha o'lib tirilishadi, yana ertaga bolani qanday boqaman, deb bir umr qo'rqib yashaydi, o'ylayverib erta qarib qoladi: oilasini tebratishga kuchi yetmagan bechora eri aroqqa ruju qo'yadi yoki butun alamini

ayolidan oladi, shu ham yashashmi ? Shu ham turmushmi ? Ahir o'zingiz ayting, Shu holatda u siz aytgan san'at yoki qo'shiq haqida qanday o'ylasin ?! Bechoraning o'sma qo'yishga ham vaqti yo'qku! Siz menga emas shularga yordam bering... Ularga qarab turib, meni yig'lagim keladi, juda juda yig'lagim...

-Men hech qachon ketmayman... men qiyin deb o'zimni emas... barcha qishloq ayollarini nazarda tutgandim, lekin men sizga hech qachon baxtsizman deb aytmagandim.

Mening ildizim shu yerda , mana shu odamlar orasida, men boshqa yerda ko'karolmayman..."

Yuqoridagi parchadan Muazzamning boshqa qishloq ayollariga o'xshamagan, ulardan ancha ustun tura oladigan ayol ekanligi nomoyon bo'ladi. Qishloqlardagi umri mashaqqatda kechayotgan mushtipar ayollarning qismatidan ezilayotgan ayol sifatida gavgdalanadi. O'zi ham ulardan biri bo'lishiga qaramay, u hayotidan norozi emas, uning eri, oilasi, jajji farzandi bor. Bular -uning baxti. Ha, uning o'z hayoti bor va bu hayotidan u mamnun va baxtli edi.

"Otaqul Muazzam quyib turgan suvda pishqirib yuvina boshladi. Muazzam tinmay tegajoqlik qilib, suvni uning orqasiga quyib yuborar, o'zi nari qochib qolar edi. Otaqul qo'llari bilan po'pisa qilar va uni ushlab olmoqchidek qo'llarini keng ochar, Muazzam esa suv sepib o'zini himoya qilar edi "

Bu manzaradan ularning naqadar baxtli ekanini ko'rishingiz mumkin. Bu o'finda yozuvchi hatto o'zgalar uchun ayanch va achinarli ko'ringan sharoitda ham insonlar baxtli yashashi mumkin. Ahir bu ularning hayoti, har kim o'z hayoti bilan baxtli deyayotgandek bo'ladi go'yo.

Qurbaqalarning botqoqdagi hayoti oltin baliq uchun qanchalar ayanch va erish tuyulmasin, ular botqoqlarini buloqlardan afzal ko'rishadi.

3.2. Voqelikka noan'anaviy yondashuv va ijodkor mahorati **(Qora kitob va Tun panjaralari qissalari misolida)**

Uchinchi bobning "Voqelikka noan'anaviy yondashuv va ijodkor mahorati" (Qora kitob va Tun panjaralari qissalari misolida) deb nomlangan ikkinchi faslida N.Eshonqulning "Qora kitob" va "Tun panjaralari" asarlari hozirgi davr o'zbek qissalarining jahon modern nasri an'analari asosida shakllangan yangi uslubda yozilgan namunalar sifatida o'rganiladi.

N.Eshonqulning "Qora kitob"⁵ qissasida voqea-hodisalar, his-tuyg'ular, falsafiy fikr-mulohazalar va ruhiy kechinmalar birinchi shaxs tilidan bayon qilinadi⁵.

Qissa mohiyat e'tibori bilan yetmish yoshga chiqib, o'zligini, o'z qilmishi va hayotidagi mavqeini anglab qolgan kishining tazarrusini eslatadi. Biri-biriga mutanosib bo'lgan tushunchalarning jamlanishi va biri-birining mantiqiy davomi sifatida berilishi, qahramonning favqulodda teran fikrlari uning ichki dunyosida kechayotgan jarayon ifodasi kitobxonni beixtiyor hushyor torttiradi.

N.Eshonqul o'z uslubiga ko'ra, ma'lum bir makon nomiga ataylab urg'u bermaydi. Qissadagi zamon shakli bir paytning o'zida ham tor (bir inson misolida), ham keng (butun bashariyat miqyosida) tuyuladi.

Asarda voqealar oddiydan murakkabga, birlikdan ko'plikka tomon rivojlanib boradi. Bu jihat tasvir ko'lamini, uslubning murakkablashuvida namoyon bo'ladi. Asar qahramoni o'z xayolidagi har qanday falsafa va hodisa asar mohiyatiga singdirib yuboriladi, aniqrog'i, roviyning qissasi muallifning badiiy tafakkuri quvvati bilan boyiydi, rang-barang tusda tovlanadi.

"Qora kitob"da ruhiyat nafasi ufurib turadi. Yetmishga yaqinlashib qolgan asar qahramoni inson, muhabbat, axloq, ezgulik va yovuzlik kabi azaliy savollarga javob topolmagan professor. Alloh Taolo inson bolalarini o'zini sevish uchun yaratgan. Mo'jizalarning oliysi bo'lgan vujudimiz o'z yaratganiga itoat etib ibodat sari yuzlanmas ekan, bunday vujud egasi, albatta, zavolga yuz tutishga, baxtsiz holda o'z umrini o'tkazishga va iymon ne'mati allaqachon tashlab ketgan qalb ila jonini Haqqa topshirishga majbur. Ushbu qissada muallif bizga bermoqchi bo'lgan asl haqiqat mana shu emasmi?!

Birgina qaror, birgina o'z yo'rig'idan chiqib, o'zganing yo'rig'iga, yoki yovuzlik yo'lga yurish...

Tangri Taolo izmini bir marotaba bajarmagan bir vaqtlar farishtalarning ulug'i bo'lgan shayton Allohga osiy bo'ldi va shaytoni mal'un deya lanatlandi. Alloh dargohidan quvilgan shayton qiyomatga qadar inson bolalarini yo'ldan chiqarishga qaror berdi. Endi o'ylab ko'raylik, Odam Ato va Momo Havo onamiz ham birgina xatolari, birgina man qilingan ishni bajarganliklari tufayli Jannatdan quvilgan edi. Biz -bugungi kundagi insoniyat esa shuncha xatolarimiz tufayli u yerga qaytib ko'tarila olamizmi? Nafsimizni jilovlab o'ziga tomon yuzlana

olamizmi?

Yozuvchi aytganidek savollar juda ko'p, javoblar esa yer ostiga ko'milib ketgan.

Nazar Eshonqul kichkinagina qissasida inson qalbining g'alayonini shu darajada chuqur ifodalay olganki, bunday asar yozish kamdan-kam insonlargagina nasib etadi.

Qissa bir kichkinagina "xiyobon" unda birgina "so'zlamaydigan tinglovchi" va unga o'z hayot yo'lini gapirib berayotgan bosh qahramon nutqi bilan boshlanadi. Bosh qahramon o'z hayot yo'lini, bolaligini, bir cho'qqi soqol orqasidan ergashib xaroba bir uyga kirgani va uning "qora kitob"ini o'g'irlab qochganini aytib beradi.

Negadir ushbu kitobni o'qigan sari ishlarining yurishganini, bu kitobdagi oyatlar go'yoki butun dunyoni o'zgartirish uchun bitilgan so'zlar ekanligini anglab boradi. Dunyoni ostin-ustun qilib o'zgartirmoqchi, butun dunyoni shu kitob qoidalari bo'yicha tarbiyalashga urinib ko'rmoqchi bo'ladi, hatto o'z talabalariga ushbu kitob yuzasidan ma'ruzalar o'tadi va ularni ham ushbu kitobga oshufta qilib qo'yadi. Ammo yillar o'tgani sayin bu kitob uning hayotini zaharlaganini, nafaqat, o'z kelajagini, balki farzandlarining, atrofdagilarning ham hayotini barbod etganini ko'radi.

Ijodkor kichkinagina xiyobon ramzi orqali inson ko'ngliga ishora etadi. Insonning o'z ko'ngli bilan bo'lgan savol-javobigina asl suddir, chunki bunda hech qachon yolg'on javob bera olmaydi: "Jinoyatchi men yig'lab yubordi -ko'nglim supasida shunday ulug' sud bo'lib o'tdi. Aslida eng oliy jazoni ko'ngilning o'zigina chiqara oladi⁵". Bu ko'ngilga birodar deb murojaat qilishida ham, uning eng yaqin tinglovchisi faqatgina ko'ngli bo'lishi mumkinligi, uning eng yaqin, o'z dardini ayta olishi mumkin bo'lgan narsasi ko'ngil ekanligi haqida ham chuqur o'ylab ko'rish mumkin. Endi bu ko'ngil (muallif fikricha, xiyobon) ning "qora kitob" ga oshuftaligi va bu orqali barbod etilgan butun hayot .

⁵ O sha asar.236-bet

Ushbu qissadagi "qora kitob" bu -ehtimol, o'zgalarning yomon, insoniyatga o'zini go'zal ko'rsatib, butun dunyoni jar yoqasiga keltirib qo'ygan g'oyalaridir, balki bu bosh qahramonning, nafaqat bosh qahramonning, balki butun insoniyatning yovuzliklaridir. Balki Odam Ato tufayli naslimiz qonida oqayotgan ta'qiq mevasidir. Buni ko'p hollarda biz belgilay olmaymiz. Ozgina yaqin kelishimiz mumkin xolos. "Ammo mana shu "qora kitob" bir ko'ngilga in qurib butun uning dunyosini barbod qildi. Farzandlarini ham mana shu yovuzliklar ichra ulg'aytirdi, ammo bu yovuzlik avval o'g'illarini, so'ng esa jondan sevgan qizini o'z domiga tortdi va ularning jonlari ham bu "qora kitob" tomonidan barbod etildi.⁵ "

"Qora kitob" kimning kitobi edi. Bu -iblisning kitobi edi. Dunyodagi barcha manfur g'oyalar targ'ibotchilari, insonlarni yo'ldan chiqarib, ularni yovuzlikka, o'z Vatanini sotishga, o'zgalar haq-huquqlarini poymol etishga qaratilgan g'oya mualliflari asl iblislardir. Ularning kitoblari, qilmishlari yozilgan yo'riqnomalari esa "qora kitob"dir. Ular dunyoni o'zgartiramiz deb uni jar yoqasiga olib kelmoqdalar, butun insoniyatni esa Haq yo'lidan og'dirishga urinmoqdalar.

Har bir yovuzlik bilan limmo-lim to'lgan, iymon, yaxshilik ne'matidan bebahra bo'lgan qalblar -asl "qora kitob"dir.

Asarda insoniyat yaratilishi xususan, Odam Ato va Momo Havoning yerga yuborilishi, ularning xatolar, Otaning o'g'illari osilishi, insonni hayvondan ajratib olish uchun boshlangan yalpi harakat haqida mulohaza qiluvchi qahramonimiz bu buzilgan dunyoni butunlay to'g'rilamoqni ixtiyor qiladi. Buni uning so'zlaridan ham bilish mumkin. "Men odamzodni o'rab olgan yovvoyi va yovuz muhitni so'zlarim va orzularim bilan tor-mor qilmoqchi edim. Adolat odamlarining yashash tarziga aylanmog'i, odamzod gunoh bo'yinturug'idan, tavqi-la'natdan butkul xalos bo'lmog'i kerak edi."

"Inson yovuzlikning ijodkori", "Inson yovuzlikni ulug' san'at asari darajasiga ko'taruvchi birdan-bir jonzot" shu va shu kabi aqidalarni o'zining

haqiqatlari sirasida saqlayotgan asar qahramoni atrofida bo'layotgan har qanday ishning xato ekaniga e'timod qiladi. Hatto go'zal narsalarni yovuzlik niqobi deb biluvchi qahramon "dunyoda ildiz otib ulgurgan ulkan yovuzlik"larni yo'q qilib yubormoqni istaydi. Bu foniylar dunyodan haqiqiy dunyoga qadar bo'lajak safarda har bir inson savobga yo'g'rilgan amallarni qilib boradi.

Dunyo deganlarida insonlar turli so'qmoqlar bilan haqiqiy dunyoga borsalar-da qalbi ezgulikdan porlovchi dunyodoshlarimiz ham yetarlicha. Ammo, hamma narsa zalolat botqog'iga botib, keying avlodga komil hayot emas, balki jaholat va faxsh qaynagan hayot qurib berdik deb hisoblovchi insonlar chirkin hasharotdan ham battar maxluqdirlar.

Asar qahramoni bu kabi muammolar girdobida ko'p qiynaladi. Va bu buzilgan dunyoni tuzatmoqlikka kirishadi. Bu yo'lda esa tor va devorlaridan sovuq nafas ufurib turgan kimsasiz mahalladan o'ziga, butun hayotini ostin - ustun qilib yuborgan tavqi la'natni orttirib oladi. Ojizlik va mulohazasizlik tufayli og'irlagan qora kitobi barcha mushkulotlar qulfining kalitidek ko'rinadi. Natijada esa bu kitob avval ayolini so'ng o'z farzandi deb yurgan iblis bolalari va tom ma'noda rafiqasini o'ldirgan qizalog'ining ayanchli halokati bilan yakunlanadi. Iblis kitobi hayotini yakson qilgan qahramonimizning so'nggi hulosasi esa uning og'riq to'la qalbidan shunday so'zlar bilan yakunlanadi:

"Taqsirim, men sizga bir narsani aytib qo'yay: bu gapni dunyoni o'zgartirmoqchi bo'lib oxirida nest-u zabun bo'lgan kichik bir odamning katta xulosalari deb qabul qiling .

Asbob buzilsa, uni yaratgan ustaga olib borib tuzatamiz. Odamzotning ham qalbini uni yaratgan ustagina tuzata oladi. Kim ustalikka da'vogar bo'lsa, kim uni men tuzataman desa, uni faqat yana ham ko'proq vayron qilishga olib keladi. Har kim o'zi yaratgan narsaga ustalik qilgani ma'qul.⁵ "

Insoniyatning "qora kitob"ini ham faqat Tangrigina tuzata olishi mumkin. Allaqachon xarobaga aylangan qalblarni obod etish faqat uning qo'lidangina

keladi.

"Odamning qalbidagi imorati xaroba bo'lsa, uning o'likdan farqi qolmaydi⁵". Chindan odamning qalb qo'rg'oni Allohga bo'lgan ishq bilan ziynatlanmas, yaxshiliklarga, ezguliklarga to'lmas ekan, bunday qalb bilan o'likning orasida farq yo'qdir.

Muallif qisqagina qissasida inson qalbining kurash jarayonlarini maxorat va zukkolik bilan ko'rsata olgan va insonlarni ma'naviy, ma'rifiy, qalban yetuk bo'lishga davat etgan.

Badiiy adabiyotdagi ijodiy izlanishlar an'anaviy obrazlarning mohiyatini vaqt o'tishi bilan o'zgarishini ham ko'rsatadi. Qora rang, tun faqatgina yovuzlik yoki jaholat ranglarigina emas, balki ezgulikni qadrlash, inson hayotidagi oydin kunlarni e'zozlash ma'nolarida ham kelishi mumkin. Shu ma'noda, N.Eshonqulning "Tun panjaralari" qissasidagi tun tasvirlarida ramziy-majoziy ma'nolar bo'lib turadi. Qissa qahramoni tun qo'ynidan yorug'lik izlaydi.

Qissaga Alisher Navoiyning "Boshimg'a, ko'fki, ne tun kelturibsen..." misrasi epigraf qilib olingan. Bu bir jihatdan asarning birinchi muhabbat fojiasi ekaniga dalolat qiladi. Hayot so'qmoqlari aro adasha-adasha ma'lum bir manzilga kelgan qahramon ortiga nigoh tashlaydi. Anglaydiki, u yetib kelgan manzilga qadar ortidagi yagona chiroq yoritib turibdi. Bu o'sha - birinchi muhabbat deb atalgan chiroq. Qahramon (qissago'y) kayfiyati, o'y-fikrlari, hatto, ifoda ohangidagi tragik pafos ham aynan mana shundan kelib chiqadi. Qahramonning ortga qarab, yagona haqiqatni anglashi uning fikrchan, ulug'vor insonligidan dalolat beradi. Lekin fojia shundaki, bosib o'tilgan yo'lni, vaqtni orqaga qaytarish mumkin emas.

Asardagi tun va u bilan bog'liq tasvirlar inson (asar qahramoni) botinida kechayotgan junbushlar qora rang ramzi orqali tasvirlanadi.

"Tun panjaralari" qissasi voqelik asosiga qurilgan syujetga ega emas. Ammo syujet chizig'ini qissa qahramoni tabiatidagi o'zgaruvchanlik, o'ychanlik, falsafiy

mushohadakorlik ta'minlaydi.

"Qora kitob" va "Tun panjaralari" qissasi noan'anaviy syujet asosida yozilgani bilan bir-biriga o'xshab ketadi.

Har ikkala qissada ham ijodkorning o'ziga xos mahorati ko'zga tashlanadi. Ifoda uslubi, voqelikka yondashuv jihatdan bu ikki asar bir-birini takrorlaydi. Syujet elementlar tartibi va miqdori ham aynan bir-biriga o'xshashlikni ta'min etadi.

Syujet elementlari quyidagi qolipda joylashgan: birinchi yechim, keyin ekspozitsiya, tugun va undan so'ng kulminatsiya o'rin olgan.

Bu qissalarda ijodkor an'anaviy syujet elementlaridan voz kechgan. Asardagi obrazlarda ham o'xshashlik kuzatiladi. Xususan, shayton yoki iblis obrazlarini har ikki asarda uchratamiz. Asarning bosh qahramonlari ham bir-birini takrorlovchi, hayotdan to'liq va baxtsiz kimsalardir. Har ikki qissa bosh qahramonlari bor budidan, hayotining mazmunidan ayrilgan ayanch kimsalardir.

Qora kitob qissasi syujeti quyidagi ko'rinishga ega:

Asar voqealari yechimdan boshlanishi bilan har doimgi takroriy an'analarni aksini ko'rsatadi va o'quvchiga o'ziga xos estetik zavq beradi. Qahramon asarning boshida o'zining ayanchli ahvolini va o'z qizini o'ldirganini ta'kidlaydi. Nima sababdan degan savol o'quvchini asar so'ngigacha qadar yetaklab boradi. Voqelikni tasvirlashda ijodkor noan'anaviy uslubda yondashadi ya'ni reallikdan yiroq bo'lgan uslubda. Ko'proq xayolot mahsuli bo'lgan voqealarni g'ayrioddiy tarzda reallikdek tasvirlaydi. Butun insoniyat g'azal tomonlarini ko'rsatishga harakat qilgan hayotni bosh qahramon zulmatga to'la, qora jihatlarini tasvirlashga harakat qilgan. Hayotdagi yovuzliklarni, insonlarni iblisga aylanib borayotganliklarini tasvirlaydi. Odam Ato va Momo Havo yeb qo'ygan va shu sababli jannatdan quvilishiga sabab bo'lgan meva aslida yovuzlikning urug'i ekanligini aytadi va ana shu urug'lar bugungi insonlar qalbiga ham yoyilib ketganini, ularning qonida oqiyotganligini ta'kidlaydi. Shu jihati bilan ham asar voqelikka an'anaviy, doimgi yondashuvlardan farq qiladi va noan'anaviy o'ziga xos bir uslubda yaratilgan asarlardan hisoblanadi. Bundan tashqari asar syujet elementlari ketma-ketligi va

ularning joylashish o'rnining noan'anaviyligi bilan ham o'ziga xoslik kasb etadi. Ya'ni asarda syujet elementlar ketma ketligi quyidagicha ko'rinishda:

Yechim (asar voqealari yechimdan boshlanib yechim bilan yakunlanadi) - qahramon o'z qizini o'ldirishi. Bu bilan qahramon uning qornidagi iblisning zurriyodi, yovuzlik davomchisini mahv etganday bo'ladi. Qanchalar vahshiy ko'finsa-da masalaning yechimi shu zaylda voqealanadi.

Ekspozitsiya -cho'qqi soqolni va qora kitobni bizga ilk bor tanishtirgan o'sha xaroba kulba. Asardagi barcha voqealar ehtimol shu yerdan rivojlanadi va qissa davomida bu yerga bir necha bor qaytib kelinadi va bu yerda qissadagi eng katta burilish nuqtalari tasvirlanadi.

Tugun -qora kitob (yovuzlik) asar tuguni hisoblanadi. Qora kitob va unga sajda qiluvchi cho'qqi soqolning kim ekanligi o'quvchini o'ylantirishni boshlashi bilan anglab bo'lmay tugun yuzaga keladi. O'quvchi beixtiyor bu ikkisi haqida o'ylay boshlaydi. Qissada ushbu ikki obrazga juda katta yuk beriladi. O'quvchini aynan o'ylanishga, asar voqealarini yanada chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Voqelar rivoji -qahramon g'aroyib xaroba kulbaga tashrif buyuradi va u yerda qandaydir qora muqovali kitobga sajda qilib, tinimsiz yig'layotgan, cho'qqi soqolli qariyani uchratadi va uning qiroatiga mahliyo bo'lib, tez-tez bu yerga tashrif buyuradi. Tashriflarining birida xarobada hechkim yo'qligini va kitobning qarovsiz qolganini ko'radi. Hech kim kelmagach, shosha-pisha kitobni o'zi bilan olib ketishga ahd qiladi va ketayotganda ortidan g'olibona va mamnun qiyofada cho'qqisoqol kuzatib turganday tuyuladi. U o'zi bilan olib ketayotgan narsasi yovuzlik ekanini bilmasdi ham. Kitobni cho'qqi soqol kabi yod oldi, yig'lab qiroat qildi, o'fetoqlariga o'qib bera boshladi, uylandi farzandlar ko'rdi. Ular ham kitobni yod olishdi. Talabalariga ham kitobdan ma'ruzalar qildi. Shu zaylda yovuzlik yoyila boshladi (Hamma cho'qqi soqol qo'ya boshladi).

Kulminatsiya -qissa qahramonining o'z qizini bo'g'izlashi va yovuzlikni tarqalib ketmasligi uchun o'z jonajon farzandini o'ldirishi asar kulminatsiyasi hisoblanadi. Qora kitobning yovuzlik ekanini va cho'qqisoqol unga sajda qiluvchi iblis ekani fosh bo'lgach, undan homilador bo'lgan qizini o'ldiradi va bu bilan

yovuzlikni yanada yoyilishiga to'sqinlik qilgan bo'ldi.

Tun panjaralari qissasida ham "Qora kitob"da bo'lgani kabi syujet elementlari qat'iy ketma-ketligini saqlanmagan.

Qissada hayoti zulmat panjaralari qo'ynida qolgan, tushkun kayfiyatdagi "isimsiz inson" kechinmalari tasvirlangan. Epigraf ham asar mohiyatiga monand tanlangan. "Boshimga ko'fki ne tun kelturibsen" (A.Navoiy.) misralarida ham aynan hayoti zulmatga aylangan oshiq holati ifodalangan. Yuqoridagi misralar A.Navoiy hazratlariga tegishli bo'lib, "Farhod va Shirin" dostonidan keltirilgan ushbu misralar Farhodning hayot bilan vidolashuvi sahifasidan keltirilgan parchadir.

Bu vaziyatda Farhod Shirinning o'limini eshitib oh urib, o'zini toshlarga urib halok qiladi. Bilamizki, Navoiy bu dostonida ilohiy ishqni kuylaydi. Farhodni esa komil inson qiyofasida tasvirlaydi. Shirin (ramzan Alloh) ga bo'lgan ilohiy ishq, unga intilishlari yo'lida ko'plab mashaqqatlar chekadi. Ammo unga yetolmagach o'lim orqali vasliga yetishni istaydi va hayot bilan vidolashadi.

Asarning ilk so'zlari epigrafga monand qahramonning o'zi sig'ingan, ammo endi umidini uza boshlagan qandaydir bir ilohiy kuchga murojati bilan boshlanadi. Bu qissa ham ijodkorimizning noan'anaviy yo'lida yozgan asarlaridan biri hisoblanadi, Asarda mavhum tushunchalarga reallik darajasi berilgan. Asarda shayton obrazi aynan reallikday kiritilgan, biroq unda ramziylik mavjud. Shaytonning qahramon uyiga tashrif buyurishini aynan inson qalbiga tashrif buyurishi timsolida qabul qilishimiz kerak. Bu qissa ham yechimdan boshlanadi, yakundan desak ham bo'laveradi, voqealar rivoji o'z hukmini o'qib bo'lgach ya'ni qahramon o'ziga hukm (o'zini chirib bo'lgan va endi qayta tiklanmaydigan o'simlikka aylanib qolganiga ishonch hosil qilib, endi o'zini tun panjaralari qo'ynida yashashga mahkum deb) chiqarib bo'lgandan so'ng boshdan o'tganlarini hikoya qilib beradi. Asarning syujet elementlari tartibi ham noan'anaviy tartibda.

Yechim -Isimsizning tun (umidsizlik) panjaralari qo'ynida qolganligi va hayotdan to'fganday umidi bilan vidolashib, tun qo'ynida qolgan qiyofaga kirishi.

Ekspozitsiya -derazasi yonida qurbaqalar qurillaydigan va qorong'ulik

cho'kkan o'sha xona. Ismsiz hikoyasini shu xonadan boshlaydi. Shayton ham shu yerga tashrif buyuradi.

Tugun -tugun sifatida baxtlimanmi yoki baxtsiz degan savolni qo'yadi. Qissa qahramoni umri davomida shu savolga javob izlab yashaydi.

Voqelar rivoji -o'ttiz bir yoshli hayotdan ko'ngli to'lmagan "ismsiz" qahramonning xayol fonida o'tgan umridan lavhalar so'ngan yulduzdek bir-bir uchib o'tadi. U baxt va baxtsizlik so'zlariga o'ttiz bir yillik umri davomida javob izlagan, ammo topmagan. "Ismsiz" qahramon o'zining ayanch holatini ifodalashda turli ayanch narsalarga qiyos etadi. Xususan, bolalik olmasining aynigan (chirik) qismiga, yelkanlari yirtilgan, eshkaklari singan kemaga...

U Xosila ismli yo'qotgan muhabattini xotirlab o'tadi. Shu o'rinda takidlab o'tadiki, "insonga chin muhabbatga erishish qimor o'yni kabi va yutuqli qartalarni topsangiz -ho'p- ho'p, topolmasangiz -bir umr muhabbatingizdan ayro yashaysiz", -deydi. U hayotini Xosilaga uni yaxshi ko'rishini aytgan kundan botqoqqa aylana boshlaganini aytadi. Birozdan so'ng uning o'zi yoshlik chog'i avval puflab yaproqlarini uchirgan, so'ngra esa ko'ksidan yulib, Tersotadan chiqaverishda toshyo'l yoqasida qoldirib ketgan bir gul, Robiya uning yodida haligacha Tersotadan chiqaverishdagi toshyo'l yoqasida durrachasini silkib, unga oq yo'l tilab turardi.

Qissadagi Haqqul obrazi ham ismsiz qahramon kabi umri zulmatda kechayotgan, tun panjaralari bag'ridagi insonning obrazi hisoblanadi. Asarda yana ona va qiz obrazini ham uchratamiz. Ular ham aynan shunday botqoqda yashayotganday tasvirlangan, hayotidan maqsadi yo'q. Umri bir-birini qarg'ash va so'kib kun o'tkazishdan iborat. Inson qanday bo'lsa, atrofida o'ziga o'xshaganlar topiladi deganday, Ismsiz qahramonning atrofida tasvirlanayotgan obrazlar (Haqqul, Shayton, ona va qiz) asosan, uning o'zi kabi tunda yashovchilar. Lekin endi do'st bo'lishga munosib Sulaymonni toptim deganda undan ham ayriladi.

Kulminatsiya -asar kulminatsiyasi bir o'rinda chaqnab ko'zga tashlanmaydi. Qahramon o'zining xatdagi yo'qotganlarini eslab o'tarkan, eng katta xatosi sifatida Robiyani yo'qotganini aytadi. Asar so'ngida ham aynan shuni yana bir

ta'kidlab o'tadi. Shu so'nggi xulosalari uning o'zi haqida hukm chiqarishiga so'nggi turtki bo'ladi.

Ko'rinadiki, o'zbek qissachiligida noan'anaviy uslub bevosita dunyo adabiyotini o'rganish, insonning botiniga diqqatni qaratish tajribasi sifatida paydo bo'ldi. Adabiy qahramonlarga nom bermaslik, ramziylik, voqealar kechadigan makon va zamonga aniq joy, vaqt, sanalar taqamaslik kabi xususiyatlar xos.

Noan'anaviy uslubda yozilgan qissalar bir-biriga o'xshab ketsa-da, ularda farqli jihatlar ham yo'q emas. Qissalarni mutolaa qilgach, quyidagi o'zgarishlarni tadqiq eta boshlaysiz.

«Tun panjaralari» qissasidagi qahramon atrofidagi holat va fikr turg'unligidan bezigan, «o'zini o'zi xayoliga bandi qilgan», o'zini izlayotgan odam. U bu turg'unlikdan qochib, o'z ko'ngliga yashirindi. Uning bor-yo'q isyoni shu. Uning ichida yashashga arzigulik narsa — saqlanib qolgan shu kechinmalar, xolos. U shu kechinmalari bilan o'zini tirikman, deb hisoblaydi. U o'zini kashf etayotgan, shafqatsizlarcha so'roqqa tutayotgan odamdir. Uning fojiasi ham shunda. U o'z xulosalarini o'zining mavjudligini isbotlashga urinayotgan inson xulosalari sifatida qarashni istaydi, ya'ni u o'zining mavjudligini isbotlashga urinyapti.

Umuman, inson o'zi bilmagan, hatto eng g'ofil holatda ham kechinmalari erkinlikka intiladi. Bu qahramon o'z erkini o'z xayolidan, o'z tasavvuridan topgan. Tasavvuri bilan ko'z oldidagi dunyo kelishmayapti, uyg'unlashmayapti. Oqibatda u faqat tasavvur dunyosida qolib ketdi. U faoliyatsiz odamdir. Uni xohlagancha faoliyatsizlikda ayblash mumkin. Ammo uning eng faol ijtimoiy kishidan ham bitta farqi, kerak bo'lsa, ustunligi bor: u o'zining kimligini biladi. U o'zi yashayotgan muhitda o'z ismini, o'z o'rnini, o'z mohiyatini anglab olishga (topishgacha hali uzoq) uringan qahramon.

Agar razm solgan bo'lsangiz qahramon o'zining Robiyaga, keyin Hosilaga bo'lgan muhabbat mojarolaridan «asar», «voqelik» yaratayotgani yo'q. U muhabbat mojarosini o'zini anglash yo'lidagi atigi bir vosita, deb bilyapti. Lekin uning qalbi hali his-tuyg'uga begona emas. U go'zallikni mukammal ko'rishni

istaydi. Shuning uchun ham go zallik qalbga cho kishini istaydi, faqatgina ko z yoki shunga bog liq munosabatlarga emas. Bu holat uni muhitdan ayirib qo ygan, muhit bilan u til topisha olmayapti, muhit uni, u muhitni tushunmayapti. U o zining ezgin kechinmalari ifodasi bo lmish «mashqlarini» do stiga, muharrirga o qib beradi, ular uning ustidan kulishadi. Ana shu vaziyatda u o zining muhitga begonaligini sezib qoladi va o z tasavvur qobig iga berkinib oladi. U o zini fikr va aql turg unligidan xalos qilish uchun xayol uzlatiga, qalbining to riga chekinadi. Qalbining to rida turib o zini anglashga urinyapti. Uni faoliyatsizlikda ayblab bo larmikan?

Buyog i yozuvchining ishi emas. Yozuvchi o zini anglashga urinayotgan qahramonni tavsiya qildi, uni qabul qilish, qilmaslik kitobxonlarning ishi.

«Qora kitob» qahramoni esa unga qaraganda faolroq. U o zini anglab yetdi. Anglab yetdigina emas, o zi haqida xulosa ham qilib bo ldi. Lekin u anglab yetgan xulosa, haddan tashqari shafqatsiz edi. U o zining «men»ini shu qadar fojeaga olib kelgan narsa nima, degan savolga javob izladi. Javob izlash oqibatida o zi yaratganini qurbon qildi. Chunki u daf átan o zining qurbon bo lganini bilib qoldi. Kimning, nimaning yo lida? Kim va nima uchun? Agar u kundalik hayot tarzini buzmay yashab kelganida, o zining qurbon bo lganini va qurbon bo layotganini anglamasdan, boshqalar kabi yashab o tardi. Lekin u anglash sari yuz tutdi. Oqibatda o zining qaysidir g oya yo lida qurbon bo lganini anglab qoldi. U qurbon bo lganda ham masxaraomuz tarzda qurbon bo lgandi. U nimaniki go zallik va ozodlik timsoli deb sig ingan bo lsa, sig ingani jaholat va qatag on bo lib chiqqan edi. U nimaniki ezgulik uchun yaratgan bo lsa, yovuzlikning xizmatkoriga aylangandi. U aybsiz aybdor bo lib chiqdi. U adashganini angladi. Hayotini o zgartirishga qurbi kelmadi. Faqat o zi yaratgan g oyaga bo lgan ishonchnigina bo g izlay oldi. Qurbi shungagina yetdi. U bu g oyaning, bu ta limotning yana yashab, o zi kabi millionlab kishilarni qurbon qilishini istamadi.

Bu qahramonning isyoni ham bor-yo g i shu. Kamyu aytganidek, bu anglanish, o zini topish isyonidir. Inson o zini anglash sari borayotgan ekan,

tushkunlik botqog'iga botganlardan farqli o'laroq, bu qahramon o'zining adashishi va o'zining qurbonligi so'nggi qurbonlik, so'nggi adashuv, so'nggi og'riq to'la hayqiriq bo'lib qolishini istayapti.

Shuningdek "Tun panjaralari" qissasini "Momoqo shiq" qissasi bilan ham qiyoslab o'rganish mumkin bo'ladi. "Tun panjaralari" qissasidagi ijodkor ham o'zini qorqoq va hafsalasiz deb biladi. U o'ttiz bir yoshida jurnaldagi ishidan ayrilgan, butun hayoti davomida omadsizlikka uchragan, bir umr e'tiqod qilib kelgan baxt haqidagi tuyg'ulari sarob ekanligini bilib, o'zini olmaning qurt yegan qismi deb hisoblagan ijodkor. U ismsiz, chunki o'z e'tiqodiga, or-nomusiga, shaharga ega bo'lmagan odamga ism berilmaydi. U butun jamiyatni g'afolat qorog'oni deydi. Hafsalasizlik va qorqoqlikni g'afolat tunning hibsonalariga o'xshatadi, o'zini esa undagi mahbus deb biladi. U o'zini mana shunday o'tmishi va kelajagi sarob bo'lgan jamiyatda yashab, panjara, qobiqqa o'ralib qolayotganidan o'kinadi.

"Tun panjaralari" qissasi mantiqan "Momoqo shiq" qissasining davomidir. "Momoqo shiq" qissasidagi ijodkorning (o'ttiz yosh) tunda, g'amgin kayfiyati "Tun panjaralari" qissasidagi ijodkor (o'ttiz bir yosh) kayfiyatida davom etadi. Muazzamning so'zlari tufayli o'zligini anglagan ijodkor Shamsi Saloh endi "Tun panjaralari" qissasidagi Ismsiz qahramon obrazida ruhiy azoblarni boshidan kechiradi va "Adabiyot insonning og'riqlaridir... Azob tugagan joyda faoliyatsizlik boshlanadi: xudbinlik, xiyonat, loqaydlik boshlanadi... Odamlarga bu so'zlardan ham ortiqroq falokat yo'q", deb Aristotelning katarsis ta'limotiga binoan azoblanish orqali ruhiy poklanishga harakat qiladi.

Ijodkor uyg'oqmi, uyqudami – buni farqlay olmaydi. Chunki shunday ijodkorlar borki, jismonan uyg'oq, lekin qalban uyquda bo'lishadi. "Momoqo shiq" qissasidagi Shamsi Salohning Muazzamga bo'lgan sof, armonli tuyg'ulari "Tun panjaralari" qissasidagi Robiya timsoliga ko'chadi. Robiya ijodkor uchun ilohiy ma'budaga aylanadi. Shamsi Saloh o'zi bilmagan holda davrning mahbusiga aylangan bo'lsa, Ismsiz qahramon esa o'zini o'rab turgan butun bir jamiyat uni qorong'ulik, tubanlikka boshlayotganini bilgan holda

hayoti zulmatga botib boradi. U bundan azoblanadi, bu jamiyatdan nafratlanadi. Ijodkor yashashdan maqsadini topa olmay qiynalib: 'Bu nima? Shumi dunyo?! Nega u bunchalik tushuniksiz va ayanch?!' deb absurd falsafasiga tayanib, hayotning ma'nisizligi, yashashga arzimastligidan qiynaladi. Inson yashashdan maqsadini bilgani sayin o'limga qarab boradi, degan xulosaga keladi.

Qissa so'ngida ijodkor o'zini psixologik tiklab oladi. Buni yozuvchi peyzaj orqali beradi: 'Bahor bog'ida o'g'ir – o'g'ir xo'rsinib kezib yuribdi.' Har ikkala qissadagi ijodkor psixologiyasida ham hikoya so'ngida o'zgarish ro'y beradi. O'z iqrorlari tufayli ongli yangilanish sari qadam qo'yishadi.

Xulosa qilib aytganda, yozuvchi Nazar Eshonqul bu qissalarida ijodkor uchun tafakkur erkinligi muhim ekaniga urg'u beradi. Har qanday iqtidor egasi ham ijodiy erkinlikka ega bo'lsagina, yangicha bir kashfiyotlar yaratishi mumkin yoki o'z iqtidorini to'la-to'kis ko'rsata oladi. Kishi ongida, dunyoqarashida tutqunlik bo'lar ekan, o'z hayotida va turmush tarzida aslo ijodiy o'zgarishlar bo'lmaydi. Bunday insonlar nurli, yuksak cho'qqilarga ko'tarila olmaydi, balki yanada tubanlik va zulmat qariiga singib ketadilar. Qalbida insoniy tuyg'ular so'nib, shaytoniy tuyg'ularga berilishadi. Bunday hodisa nafaqat bir inson, balki butun bir jamiyat uchun ham zararlidir.

III bob yuzasidan xulosalar

1. Nazar Eshonqul ijodida an'anaviy tasvir uslubi va modernistik tasvir uslublarining bir-biriga xalaqit bermagan tarzda qo'shilib ketganiga guvoh bo'lamiz. Adibning "Urush odamlari" va "Momoqo'shiq" qissalari an'anaviy syujet asosida shakllantirilgan bo'lsa, "Tun panjalari" va "Qora kitob" qissalari noan'anaviy modernistik syujet asosida shakllantirilganiga guvoh bo'lamiz.

Demak, ham realistik, ham modern uslub imkoniyatlarini mukammal darajada namoyon etayotgan bu yozuvchi qissalarini o'rganmay turib, bugungi o'zbek qissachiligi haqida to'laqonli xulosalar chiqarish imkoni bo'lmaydi.

2. N.Eshonqulning "Urush odamlari", "Momoqo'shiq" qissalarida biz bir yozuvchi misolida jahon nasrida o'zining o'lmishi va ma'lum an'analarga ega bo'lgan realistik uslubning mustaqil holatda, yangilangan shaklda voqe bo'lganini ko'ramiz.

3. "Tun panjaralari" qissasi voqelik asosiga qurilgan syujetga ega emas. Ammo syujet chizig'ini qissa qahramoni tabiatidagi o'zgaruvchanlik, o'ychanlik, falsafiy mushohadakorlik ta'minlaydi.

Ko'rinadiki, o'zbek qissachiligida noan'anaviy uslub bivosita dunyo adabiyotini o'rganish, insonning botiniga diqqatni qaratish tajribasi sifatida paydo bo'ldi. Adabiy qahramonlarga nom bermaslik, ramziylik, voqealar kechadigan makon va zamonga aniq joy, vaqt, sanalar taqamaslik kabi xususiyatlar xos.

4. "Qora kitob" qissasidagi zamon shakli bir paytning o'zida ham tor (bir inson misolida), ham keng (butun bashariyat miqyosida) tuyuladi. Asarda voqealar oddiydan murakkabga, birlikdan ko'plikka tomon rivojlanib boradi. Bu jihat tasvir ko'lamini, uslubning murakkablashuvida namoyon bo'ladi. Asar qahramoni o'y-xayolidagi har qanday falsafa va hodisa asar mohiyatiga singdirib yuboriladi, aniqrog'i, roviyning qissasi muallifning badiiy tafakkuri quvvati bilan boyiydi, rang-barang tusda tovlanadi.

5. Nazar Eshonqulning "Urush odamlari", "Momoqo'shiq" kabi qissalarida milliylik, ma'naviy barkamollik, odamiylik va yuksak insoniy tuyg'ular tarannum etilgan. Uning milliy, ijtimoiy, maishiy va shaxs haqidagi qarashlari, "ommaviy

madaniyat" va olomonchilikka doir chuqur xulosalari adabiy, falsafiy, estetik qarashlari asosini tashkil qilgan. U "ommaviy madaniyat" xavfiga milliy qadriyatlar hamda ma'naviy an'analarni qarshi qo'ygan. Bu konsepsiyasini "Momoqo shiq" asaridagi syujet talqini, obrazlar mutanosibligida badiiy ifodalashga erishgan. Ayni paytda, yozuvchi biografiyasidagi eng ta'sirchan voqealar uning "Urush odamlari", "Momoqo shiq" asarlarida o'z ifodasini topgan.

6. Nazar Eshonqulning "Qora kitob" va "Tun panjaralari" kabi qissalarida esa voqelikka noan'anaviy yondashuv, psixologik talqin usullari, metaforik, ramzlar vositasidan unumli foydalanilgan. Ushbu qissalarda yozuvchi xaosga katta urg'u bergan. Asardagi voqealarning tartibsiz oqimi xulosa qismiga qadar davom etib, o'quvchini biroz chalg'itishi mumkin, ammo asar oxirida ushbu tartibsizlik o'z o'zaniga tushib o'quvchini umumiy xulosalar sari yetaklaydi.

DISSERTATSIYA YUZASIDAN UMUMIY XULOSA

1. Badiiy uslub soʻz san'atining harakatlantiruvchi kuchi boʻlgani sababli jahon adabiyotshunosligida qadim-qadim davrlardan e'tiboran bu muammoga jiddiy qarab, salmoqli fikrlar bildirib kelingan. Ushbu fikrlar tahlil etilib, umumlashtirilganda ma'lum boʻladiki, badiiy asar shakl va mazmuniga doir barcha uzvlar ikki narsada tajassum topadi. Bular:

- a) muallif shaxsi;
- b) badiiy asar uslubi.

Mana shu ikki tushuncha sintezlashgan nuqtada haqiqiy soʻz san'ati maydonga keladi.

2. Qissaning turli makon va zamonlarda maydonga kelgan shakllari, shuningdek, adabiyotshunoslikning unga bergan baho va talqinlarini umumlashtirib, ushbu janrga shunday muxtasar ta'rif berish mumkin: qissa bir inson hayotining ma'lum davri, ma'lum vaziyatlari, ma'lum ruhiy holatlari haqida sub'ektiv tarzda hikoya qiluvchi, roman, novella va hikoyaga xos ayrim oʻziga monand xususiyatlaridan xoli boʻlgan mustaqil janrdir.

3. Oʻzbek qissasining bugungi holati, asosan, uning uslubiy oʻziga xosligi toʻgʻri asosiy omildan kelib chiqadi. Bular:

- a) folklor ta'siridagi qissalar;
- b) yozma mumtoz qissachilik;
- v) shoʻro qissachiligi (rus povesti);

g) jahon realistik va modern qissalari boʻlib, ayni omillar adabiy jarayonning turli davrlarida goh faol, goh sustroq vazifa bajargani kuzatiladi.

4. N. Eshonqul qissalarida mana shu soʻhgi davr qissachiligiga oid realistik va modernistik uslub prinsiplarining tajassum topgani koʻrinadiki, bu asarlar tadqiqi hozirgi oʻzbek qissalari uslubi haqida umumlashtiruvchi nazariy xulosalarga kelish imkonini tugʻdiradi.

5. N. Eshonqul qissalari kichik vaqt va makonda tasvirlangan qissa syujetiga turli gʻayrioddiy unsurlarning olib kirilishi bilan koʻlamdorlik kasb etadi.

Yozuvchining "Urush odamlari" qissasida bir yoʻl bilan bir necha mustaqil kichik syujetlar yagona uslub yadrosida uyushtirilgan. Bular:

- a) tinch-farovon kechayotgan Tersota qishlogʻi aholining hayoti;
- b) qishloq sari bostirib kelayotgan yovuz kuchning sharpasi.

6. Yozuvchi portret va xarakter yaratishda turli detallardan unumli foydalangan. Jumladan, koʻz, burun, jimjiloq detallari tasviri orqali nafaqat qahramon tabiatini ifodalashga, balki asar syujetidagi koʻlamdorlik va muallif niyatini ifodalashga erishilgan.

7. "Qora kitob" qissasi bir inson qalb kechinmalarini ifodalaganday koʻrinsada, aslida, bu qissa shu yoʻl bilan ulkan milliy muammolarni obrazli tasvirlashga xizmat qilgan.

8. N. Eshonqul oʻz asarlarida anʼanaviy, baʼzan zamonaviy-modernistik syujet turlaridan foydalanadi. Yozuvchi uslubining oʻziga xosligi badiiy asardagi har bir qahramon nutqini xoslashtirish, turli sheva elementlaridan foydalanish, juft va takror soʻzlarni oʻrni-oʻrnida ishlatishi, muallifning shoirga xos tabiati, uslubidagi lirikaga moyil jihatlar namoyon boʻladi.

9. N. Eshonqulning "Urush odamlari", "Momoqo shiq" kabi realistik qissalari milliy oʻzlik, maʼnaviy qadriyatlarni saqlash yoʻlidagi murakkab konfliktlar, ichki iztiroblar tasviri asosiga qurilgan.

10. "Momoqo shiq" qissasida konfliktli muloqot uslubining ikki shakli yaqqol namoyon boʻladi. Bularning birinchisi, yevropalashgan Shamsi Saloh va uning hamrohlari bilan Muazzam hamda Otaqullar oʻrtasida roʻy beradigan tashqi konflikt boʻlsa, ikkinchisi, Shamsi Salohning botiniy olamida kechadigan ichki konfliktidir. Ikkinchi konflikt shakli qissada ichki dialogik nutq orqali mahorat bilan tasvir etiladi.

11. Bugungi oʻzbek modern qissachiligida N.Eshonqul qahramonlari oʻz falsafiy dunyoqarashi bilan alohida ajralib turadi. Ayniqsa, "Qora kitob", "Tun panjaralari" qissalarida tun, zulmat, qora rangga eʼtibor berish va ularning yorqin tomonlaridan unumli foydalanish kuzatiladi.

12. Modern uslub, oʻzbek qissachiligida nisbatan yangi boʻlsa ham, iqtidorli

yoʻzuvchilarimiz tomonidan oʻziga xos badiiy-uslubiy kashfiyotlar qilinishiga omil boʻlyapti. Modern uslubga xos ramzlarning gʻayritabiiyligi, gap qurilishidagi chigallik va murakkablik, tinish belgilari bilan bogʻliq tajribalar, makon, zamon, qahramonlar ismining noaniqligi bugungi oʻquvchida badiiy qabul qilish didining yangi bosqichga koʻtarilishiga zamin hozirlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

I

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili" haqidagi Qonuni/ Xalq so'zi. 1995- yil, 29- dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni/ Toshkent: Sharq, 1998. - 48 b.
3. O'zbekiston Respublikasining 1997- yil 29- avgustdagi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi Qonuni.

II

1. Karimov I. "Bizdan ozod va obod vatan qolsin". T. 2006. 128-bet.
2. Karimov I. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. -T.: O'zbekiston, 1996. -B. 260.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008. - 176 b.
4. Mirziyoyev Sh. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish -xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. //Xalq so'zi, 2017, 4 avgust
5. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2016. - 56 b.
6. Mirziyoyev Sh. M. 2017-2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. 2017- yil 7- fevral.
7. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2016. - 488 b.
8. Mirziyoyev Sh. M. Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida 2017- yil 12- yanvar PF.
9. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. -

Toshkent: O'zbekiston, - 2017. - 104 b.

10. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. /1-jild/ - T.: O'zbekiston NMIU, 2017. 592 b.

11. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlari ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent: O'zbekiston, 2016. - 488 b.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017- yil 19- sentyabr Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018- yil 28- dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

III

1. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati". 1996 yil 2-fevral 5-son

2. Nazar Eshonqul. Yalpiz hidi. Qissalar va hikoyalar. –T.: Sharq, 2008. –B. 370-386

3. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. –T.: Akademnashr, 2010. – B. 380-381.

4. Adabiy jarayon. Qo'llanma. Yangi nashr, Toshkent: 2019. 43-bet

5. Adabiyotshunoslik asoslari. H.Umurov. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. - 38-bet

6. E.Xudoyberg'aliy. Adabiyotshunoslikka kirish.-T.:

O'qituvchi, 1995. 46-bet

7. Eshonqul N. Maymun yetaklagan odam. Qissa va hikoyalar. -T.: Yangi asr avlodi, 2004. -B 48.

8. Eshonqul N. Ufq ortidagi quyosh. Qissalar. "Momoqo'shiq" / To'plam. . -T ., 1994. -38-bet

9. Homidiy H... Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. - Toshkent: O'qituvchi, 1967. - 300 b.

10. Navoiy, Alisher. Xamsa. To'plam. Farhod va Shirin. T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986. -75-bet.

11. Normatov U. bugungi nasrimiz tamoyillari. Jahon adabiyoti . -1997

12. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. - T.: Ma'naviyat, 2000. -B. 47.

13. O'zbek tilining imlo lug'ati. - Toshkent: O'qituvchi, 1995. -288 b.

14. O'zbek tilining izohli lug'ati. -Toshkent: O' ME, 2006-2008. -5 tomli.

15. Oxunjon Safarov. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Musiqa nashriyoti. Toshkent: .2010. 57-bet

16. Q.Yo'ldoshev . Yoniq so'z. -T.: Ma'naviyat, 2006. -B 80-81.

17. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent: Akademnashr, 2010. -400 b.

18. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. 1-tom. -Toshkent: Universitet, 2000. -600 b.

19. Rasulov A. Tinch oqar daryo. O'z. AS. 2003 yil 9 iyul.

20. Sharafuddinov O. Modernizm -jo'hn hodisa emas. O'z As. 2002 yil 7 iyun.

21. T.Boboy ~~o~~. Adabiyotshunoslikka kirish kursi bo'yicha o'quv metodik qo'llanma.- T.: O'qituvchi, ;1984. 47-bet.
22. Ulug'ov A. Ijodiy metod va ijodkor uslubi. T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 2019.
23. Ulug'ov A. O'zgarayotgan adabiyot manzaralari. // Shaqr yulduzi. -1998. -4-son. -B. 138-139.
24. Urush odamlari: qissalar. Nazar Eshonqul. -Toshkent: Yangi nashr, 2019. 3-bet.

IV

1. www.tdpu.uz
2. www.edu.uz
3. tdpu-INTRANET.Ped
4. www.pedagog.uz
5. www.ziyonet.uz
6. www.kspi.uz
7. <https://www.zarnewsuz.com>.